

**2025-2026-O'QUV YILIDA  
IJOD MAKTABLARINING  
11-SINF  
O'QUVCHILARI UCHUN**

# **ONA TILI VA ADABIYOT**

**FANIDAN YAKUNIY ATTESTATSIYASINI  
O'TKAZISH BO'YICHA  
METODIK TAVSIYA VA MATERIALLAR**

**2025-2026-O‘QUV YILIDA IJOD MAKTABLARINING 11-SINF  
O‘QUVCHILARI UCHUN TANLOV FANLAR GURUHIDAGI ONA TILI  
VA ADABIYOT FANLARIDAN YAKUNIY NAZORAT TEST  
TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Mazkur spetsifikatsiya ijod maktablarining 11-sinf o‘quvchilarining ona tili va adabiyot fanidan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini baholashda foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli, baholash mezonlari va o‘tkazilish tartibiga qo‘yilgan talablarni belgilaydi.

**I. Umumiy tamoyillar**

Baholash maqsadi – 11-sinf o‘quvchilarining ona tili va adabiyot fanlaridan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini amaldagi dasturlarda belgilangan o‘quv maqsadlari asosida kompleks baholash. Mazkur baholash natijalari asosida 11-sinflar uchun yakuniy davlat attestatsiyasida qabul qilinadigan qarorlar asoslangan (valid) bo‘lishini ta’minlash maqsadida baholashda validlik, ishonchlilik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta’minlanadi.

**II. Me’yoriy asoslar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2008-yil 4-martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 56-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan, “Umumiy o‘rta ta’lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi to‘g‘risidagi nizom”.

2. Ona tili va adabiyot fanlaridan 5-11-sinflar uchun amaldagi o‘quv dastur.

3. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2026-yil 16-martdagi “2025-2026-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi 102-son buyrug‘i.

**III. Baholash qamrovi va ajratilgan vaqt**

Ona tili va adabiyot fanlaridan o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash bo‘yicha yakuniy davlat attestatsiyasi sinovida jami 25 ta test topshirig‘i taqdim etiladi.

**1-qism:** 22 ta qisqa javobli (13 ta ona tili, 9 ta adabiyot) topshiriqdan tashkil topgan. Bunda javob bitta raqam, bosh harf bilan yozilgan javob ko‘rinishida berilishi kerak.

**2-qism:** Kengaytirilgan javobli 3 ta (2 ta ona tili, 1 ta adabiyot) topshiriqni o‘z ichiga oladi, berilgan topshiriqqa asosli dalillar bilan batafsil hamda ijodiy fikr yuritib, yozma javob beradi.

Har bir imtihon variantining savol va topshiriqlari fan kesimida bo‘lib, ijod maktablarning talaffuz va imlo, punktuatsiya, uslubiyat, lingvistik tahlil, matni tushunish, shuningdek, milliy, jahon adabiyoti hamda adabiyot nazariyasi kabi mazmun sohalarni qamrab olgan. Tavsiyada bilish, qo‘llash va mulohaza qilish kognitiv faoliyatlarga oid topshiriqlar bo‘yicha baholash mezonlari keltirilgan.

Har bir variantda o‘quvchiga 25 tadan (15 ta ona tili, 10 ta adabiyot) savol beriladi. Savollarning 5 tasi (3 ta ona tili, 2 ta adabiyot) bilishga, 15 tasi (9 ta ona tili, 6 ta adabiyot) qo‘llashga, 5 tasi (3 ta ona tili, 2 ta adabiyot) mulohazaga oid bo‘ladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari uchun **180 daqiqa** vaqt berilgan.

#### IV. Test topshiriqlarini tuzishda foydalaniladigan matnlarga qo‘yiladigan talablar

T/r	Matnlar	Mazmuniy talablar	Hajmiy talablar
1	Ilmiy-ommabop matn	<i>Akademik uslubda yozilgan, muayyan sohaga bag‘ishlangan, keng auditoriyaga (nomutaxassisga) mo‘ljallangan, grafik elementlarni ham o‘z ichiga olgan ilmiy-ommabop matn (test topshiruvchi uchun notanish, amaldagi darsliklarga kiritilmagan)</i>	350-500 so‘z
2	Badiiy matn (nasr, drama)	<i>O‘zbek tilida yozilgan (yoki tarjima qilingan) badiiy matn (nasriy yoki dramatik asardan parcha) (test topshiruvchi uchun notanish, amaldagi darsliklarga kiritilmagan)</i>	500-600 so‘z

#### V. Test topshiriqlarining turlari bo‘yicha taqsimot

Topshiriq turi	Izohi	Topshiriq soni
Qisqa javobli ochiq test (O1)	Savolga qisqa jumla bilan javob berishni talab qiladigan yozma topshiriqlar	10 ta
Ko‘p tanlovli yopiq test (Y1)	Savol mazmuniga mos bo‘lgan javob variantlari ichidan to‘g‘rilarini topishni talab etadigan yopiq test topshiriqlar	12 ta
Kengaytirilgan javobli ochiq test (O3)	Savolga batafsil javob yozishni talab qiladigan yozma topshiriqlar	3 ta

#### VI. Kognitiv ko‘nikma va qismlar bo‘yicha taqsimot

Bilish (B)		Qo‘llash (Q)		Mulohaza (M)		Umumiy ball
soni	ball	soni	ball	qisqa javobli 1-qism	kengaytirilgan 2-qism	
<b>Ona tili</b>						

				1	2	<b>100 ball</b>
3 ta	4 baldan (12 ball)	9 ta	6 baldan (54 ball)	8 ball	13 baldan (26 ball)	
<b>Adabiyot</b>						
2 ta	8 baldan (16 ball)	6 ta	9 baldan (54 ball)	1	1	<b>100 ball</b>
				14 ball	16 ball	

## VII. Baholanadigan mazmun soha bilim, ko'nikma va kompetensiyalar, topshiriq turi, kognitiv jarayon va baholash mezonlari

Mazmun soha	Savol tartib raqami	Bilim, ko'nikma va kompetensiyalar	Topshiriq turi	Kognitiv darajasi	Baholash mezonlari
<b>ONA TILI</b>			<b>1-bosqich (qisqa javobli)</b>		
<b>Talaffuz va imlo</b>	1	<i>talaffuz va imlodagi tafovutlarni aniqlay olish</i>	Y1	B	4 ball
	2	<i>bosh harflar, asos va qo'shimchalar, qo'shib va ajratib yozish, chiziqcha bilan yozish kabi imlo qoidalarini bilish, foydalana olish</i>	Y1	Q	6 ball
	3	<i>fonetik o'zgarishlar (tovush ortishi, almashishi va tushishi)ni farqlay olish</i>	O1	Q	6 ball
<b>Punktuatsiya</b>	4	<i>yozma nutqda tinish belgilarini (so'roq, undov, ko'p nuqta; vergul, tire, ikki nuqta; nuqtali vergul, qavs, qo'shtirnoq) to'g'ri ishlata olish</i>	Y1	Q	6 ball
<b>Uslubiyat</b>	5	<i>so'zlarning kontekstdagi ma'nosi va vazifasini tushunish, farqlash hamda to'g'ri qo'llash</i>	O1	Q	6 ball
	6	<i>berilgan vaziyatga mos nutq namunalarini tanlash</i>	Y1	Q	6 ball
<b>Lingvistik tahlil</b>	7	<i>matn (gap, so'z)dagi hozirgi o'zbek adabiy tili fonetik me'yorlarini tushunish</i>	O1	B	4 ball
	8	<i>matn (gap, so'z)da hozirgi o'zbek adabiy tili leksik me'yorlarini qo'llay olish</i>	O1	Q	6 ball
	9	<i>matn (gap, so'z)da hozirgi o'zbek adabiy tili morfemik/morfologik me'yorlarini qo'llay olish</i>	Y1	Q	6 ball
	10	<i>matnda hozirgi o'zbek adabiy tili sintaktik me'yorlarini qo'llay olish</i>	O1	Q	6 ball
<b>Ilmiy-ommabop matnni o'qib tushunish</b>	11	<i>matn mazmuniga mos ma'lumotni aniqlash</i>	Y1	B	4 ball
	12	<i>matn qismlari o'rtasidagi mazmuniy bog'liqliklarni anglash</i>	O1	Q	6 ball
	13	<i>matndagi fakt va fikrlarni farqlash</i>	Y1	M	8 ball

		<b>2-bosqich (kengaytirilgan)</b>			
	14	<i>ma'lumotlarni umumlashtirish va sabab-oqibatni aniqlash</i>	O3	M	13 ball
	15	<i>matn maqsadiga mos yechim taklif eta olish</i>	O3	M	13 ball
<b>Jami</b>					<b>100 ball</b>
<b>ADABIYOT</b>			<b>1-bosqich (qisqa javobli)</b>		
<b>Milliy adabiyot</b>	16	<i>umumiy o'rta ta'lim dasturiga kiritilgan o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari tushunish</i>	O1	B	8 ball
	17	<i>umumiy o'rta ta'lim dasturiga kiritilgan o'zbek mumtoz adabiyoti namunalari tushunish va baholash</i>	Y1	Q	9 ball
	18	<i>zamonaviy adabiyot namunalari haqidagi to'g'ri fikrlarni aniqlash</i>	O1	Q	9 ball
<b>Jahon adabiyoti</b>	19	<i>umumiy o'rta ta'lim dasturiga kiritilgan jahon adabiyotida muhim o'rin egallagan epik, lirik va dramatik asarlar haqidagi fikrlarni aniqlash</i>	O1	Q	9 ball
<b>Mumtoz lirika tahlili</b>	20	<i>mumtoz matnda qo'llangan badiiy tasvir vositalarini aniqlash</i>	O1	Q	9 ball
<b>Badiiy matn (nasr, drama) tahlili</b>	21	<i>matn mazmuniga mos sarlavha tanlay olish</i>	Y1	B	8 ball
	22	<i>matndan keltirilgan parcha asosida obrazlarga ta'rif berish</i>	Y1	Q	9 ball
	23	<i>matn xronologiyasi, ketma-ketlikni aniqlash</i>	Y1	Q	9 ball
	24	<i>matnning umumiy mazmuni asosida fikr yuritish</i>	Y1	M	14 ball
			<b>2-bosqich (kengaytirilgan)</b>		
	25	<i>ochiq aytilmagan fikr va g'oyalarni anglash, taxmin qilish</i>	O3	M	16 ball
<b>Jami</b>					<b>100 ball</b>

### VIII. Ballni bahoga aylantirish tartibi

<b>Ball (%)</b>	<b>Baho</b>	<b>Izohi</b>
0 – 29	“2”	“qoniqarsiz”
30 – 65	“3”	“qoniqarli”
66 – 85	“4”	“yaxshi”
86 – 100	“5”	“a'lo”

## **IX. Sinov jarayoniga qo‘yiladigan talablar**

*Taqiqlangan vositalar:* imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki eslatmalardan foydalanish qat‘iyan man etiladi.

*Axloq va intizom:* nusxa ko‘chirish, yordam so‘rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, dalolatnoma tuzib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

## **X. Inklyuziya va moslashtirish**

Alohida ta‘limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo‘shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko‘rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o‘qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to‘g‘ri javobini aytishi mumkin emas.

## **XI. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar**

### **Ona tili**

1. 7-sinf. Ona tili darsligi. N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov va boshq. Toshkent – “Ma‘naviyat” nashriyoti. 2017.
4. 8-sinf. Ona tili darsligi. M.Qodirov, H.Ne‘matov, M.Abduraimova, R.Sayfullayeva, B.Mengliyev Toshkent – 2019.
5. 9-sinf. Ona tili darsligi. N. Mahmudov, A. Nurmonov, A.Sobirov. Toshkent – 2019.
6. 10-sinf. Ona tili darsligi. B. Mengliyev, Sh. Abdurahim, K.Mavlonova, M.Siddiqov, S.Atoyeva. Toshkent – 2022.
7. 11-sinf. Ona tili darsligi. (1-qism) N.M.Mahmudov, Y.R.Odilov, G.Sh.Ziyodullayeva. Toshkent – 2018.
8. 11-sinf. Ona tili darsligi. (2-qism) B.Mengliyev, Sh.Toshmirzayeva, S.Atoyeva, S.Majidova. Toshkent – 2020.

### **Adabiyot**

1. 7-sinf. Adabiyot darsligi. Sh.Sirojiddinov, B.Karimov, Sh.Rizayev, Sh.Turdimov, I.Adizova, A.Tilavov, D.Yusupova. Toshkent – 2021.
2. 8-sinf adabiyot darsligi. (I, II qism) J.Nurmuhammadov, S.Qambarova, O.Olimjanov, M. Yuldasheva, S. Inomjonova. Toshkent – 2022.

3. 9-sinf adabiyot darsligi. (I, II qism) J.Nurmuhammadov, S.Qambarova, O.Olimjanov, M. Yuldasheva, S. Inomjonova. Toshkent – 2022.
4. 10-sinf adabiyot darsligi. (I, II qism) D.Yusupova, J.Nurmuhammadov, Y.Do‘stmatova, O.Olimjanov. Toshkent–2023.
5. 11-sinf adabiyot darsligi. (I qism) Z.Mirzayeva, K.Jalilov, J.Nurmuhammadov. Toshkent – 2022.
6. 11-sinf adabiyot darsligi. ( II qism) Z.Mirzayeva, K.Jalilov. Toshkent – 2022.





## 2-SAVOL

1. (Qo‘llash – 6 ball) Chiziqcha qo‘llash bilan bog‘liq xatolikka yo‘l qo‘yilMagan gap(lar)ni aniqlang.

1. Shahrimizda har kuni yangidan-yangi uylar qurila boshladi.
2. Maqollar ulkan ma‘noning uch-to‘rt og‘iz so‘z bilan ifodalangan shaklidir.
3. Bobom bayram kunlari bizga ko‘pdan-ko‘p sovg‘alar ulashar edi.
4. Oyimning hay-haylashiga qaramasdan yugurib ketaverdim.
5. Ma‘naviyat fe‘l-atvorda mujassam bo‘lmog‘i kerak.
6. Muallim o‘z fikrini ochiqdan-ochiq aytib, hech narsani yashirmadi.
7. Idroklilik va axloqiylik hamisha bir-biriga muvofiq keladi.

**Javob:**

--	--	--	--	--	--	--

2. (Qo‘llash – 6 ball) Chiziqcha qo‘llash bilan bog‘liq xatolikka yo‘l qo‘yilMagan gap(lar)ni aniqlang.

1. Rangi uniqqan chit ko‘ylak ustidan nimcha kiyib olgan Umri xola sharpaday unsiz yurib keldi-da, zinadan ayvonga ko‘tarildi.
2. Safar asnosida bir-kuni shom vaqtida yetti yo‘lovchini uchratib qoldi va ularga qo‘shildi.
3. Notiq minbarga chiqdi, kitobini ochdi va so‘z-boshiga qarab, zalvarli ovozda zaldagilarga qarata nutq so‘zlay boshladi.
4. Nodir xatlarni bitta-bitta ochib o‘qidi, ammo ular orasida akasidan kelgan so‘nggi maktub yo‘q edi.
5. Uning duosi ijobat bo‘lib, Yaratgan avvalgilardan ko‘ra ikki-karra ko‘p yegulik lutf qildi.
6. Nosirovning xonaga so‘ramay-netmay kirib kelishi Olimjonning jig‘iga tegar, ammo u rahbar bo‘lgani uchun buni aytishga iymanardi.
7. Ikki do‘st hamma-vaqt birga bo‘ldilar, bog‘chada ham, maktabda ham, hatto universitetda ham, yaxshi va yomon kunlarni birga totdilar.

**Javob:**

--	--	--	--	--	--	--

3. (Qo‘llash – 6 ball) Chiziqcha qo‘llash bilan bog‘liq xatolikka yo‘l qo‘yilMagan gap(lar)ni aniqlang.

1. Iqtisodiy islohotlar samaradorligini ta‘minlash uchun anti-korrupsiya yo‘nalishida keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.
2. Ko‘chalarda ming-minglab qo‘zg‘olonchilar qal‘a devorlari bo‘ylab otda yoki piyoda jang qilardi.
3. Shuyam muammomi, gapni bir joyga qo‘yib, o‘zing istagan joyingga borasan-qo‘yasan.

4. Shirin-so‘z, mehribon xolasi yana uning yonini olib, ota-onasidan asl haqiqatlarni yashirgandi.
5. Yashang-e, sizga qoyil qolmadim, yaqinlaringiz siz uchun shuncha yo‘l bosib kelsa-yu, chiqmasangiz!
6. Poyezd meni ser-shovqin stansiyaga tashlab, yana qichqirgancha oldinga intilardi.
7. Bu hayotda har-kim ekanini o‘rar, kim yaxshilik urug‘ini sochsa, yaxshilikka, aksincha bo‘lsa, yomonlikka yuzlanadi.

**Javob:**

--	--	--	--	--	--	--

**4. (Qo‘llash – 6 ball) Chiziqcha qo‘llash bilan bog‘liq xatolikka yo‘l qo‘yilMAgan gap(lar)ni aniqlang.**

1. Otasi ishdan qaytgach, o‘g‘il barcha sirlarini oqizmay-tomizmay aytib berdi.
2. XXI-asr fan va texnika, sun‘iy intellekt, shuningdek, boshqa ajoyib kashfiyotlar davri sifatida tarixga kirdi.
3. Azizaning opasi 8-chi sinfda o‘qiyotganida bu qiziqarli kitobni unga sovg‘a qilgandi.
4. Yashang-e, o‘g‘lim, menga yuk xaltamni ko‘tarishib katta yordam qildingiz, umringizdan baraka toping.
5. Yigit kuni bo‘yi ko‘cha-ma ko‘cha sang‘ib yurgach, biror ish topolmasdan qaytib keldi.
6. Bort kuzatuvchisi samolyot saloniga kelib-oq, mijozlarga xushmuomalalik bilan kamarlarni taqishni aytdi.
7. Bor-budidan ayrilgan tadbirkor olgan qarzlarini to‘lash uchun qiyin yumushlarni ham bajarishiga to‘g‘ri keldi.

**Javob:**

--	--	--	--	--	--	--

**5. (Qo‘llash – 6 ball) Chiziqcha qo‘llash bilan bog‘liq xatolikka yo‘l qo‘yilMAgan gap(lar)ni aniqlang.**

1. Salima aya yaqin-yaqinlargacha bo‘lib o‘tgan ishlardan, boshiga tushganlardan xafa bo‘lib yurdi, keyin taqdirga tan berdi.
2. Bolaginey, zap kepsizda, har-kun yo‘llaringizga ko‘z tikaveribman, tikaveribman, umrim qanday o‘tganini ham sezmay qolibman.
3. 1989 yilning 21 oktyabri unutilmas sana – O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun sifatida tarixga kirdi.
4. Bo‘ldi-da endi, voy-bo‘! Bitta gapni achchiq ichakday cho‘zaveradimi!
5. Insonlar bilan do‘stlash, chunki karvon qanchalik katta va odami ko‘p bo‘lsa, yo‘l-to‘sarlarning bellari shu qadar bukiladi.
6. Odamzod nima uchun kitob o‘qiyotib, suyukli qahramoni o‘lib qolsa yig‘laydi? Uni yozuvchi “ichidan to‘qib-chiqargani”ni biladiku!
7. Odamlar o‘zgardi, kuppa-kunduzi kimdir boshqa birovning yuziga qarab turib yolg‘on gapiradigan, bu qilg‘idan uyalmaydigan bo‘lishdi.



9. (Qo‘llash – 6 ball) Chiziqcha qo‘llash bilan bog‘liq xatolikka yo‘l qo‘yilMAGan gap(lar)ni aniqlang.

1. Jazirama yoz havosida tuproq ham qizigandan-qizidiki, oyoq qo‘ysa kuydiradi.
2. Qip-qizil saraton quyoshi muloyim jilmayib saxovat bilan nur socha boshladi.
3. Buyuk shoir, mutafakkir, davlat arbobi Navoiy 1441-1501 yillarda Hirotda yashab, ijod qilgan.
4. Dahlizda ushoqqina bir qiz turar, uning qosh-ko‘zlari o‘ziga yarashgan qora edi.
5. Bola maktabdan keyin hovliga tushdi-da, o‘rtoqlari bilan koptok o‘ynay boshladi.
6. Maftuna kechqurun uyiga kelib-oq ishlarini tartibga solishga kirishdi.
7. U damba-dam ortiga qarab qo‘yar, go‘yo kimdir uni kuzatayotgandek bezovta edi.

**Javob:**

--	--	--	--	--	--	--

10. (Qo‘llash – 6 ball) Chiziqcha qo‘llash bilan bog‘liq xatolikka yo‘l qo‘yilMAGan gap(lar)ni aniqlang.

1. To‘yga qarindoshlaridan hech-kim kelmagani uchun qizning ko‘ngli o‘ksidi.
2. Ko‘cha yuziga baland-baland chinorlar soya-salqinlik berib turardi.
3. Bola shu qadar buyuk-ki, biz uning darajasiga yetolmaymiz!
4. Majnun sahroda dar-badar kezarkan, Laylini izlardi.
5. Sen-a? Shuncha ishni bitta o‘zing bajardingmi, qoyil!
6. Kishi do‘stu-dushman oldida o‘zini to‘g‘ri tuta bilmog‘i lozim.
7. Nayzabozlik, bir-birovining jazosini bermoq sarbozlarga bo‘ldi ermak.

**Javob:**

--	--	--	--	--	--	--

### 3-SAVOL

1. (Qo‘llash – 6 ball) Ushbu parchada ro‘y bergan fonetik hodisalar sonini aniqlang.

*Mening yuragimni o‘rtar bir armon,  
Unutib bo‘lmaydi bu ulkan g‘amni.  
Eslamay bo‘lurmi, axir, ushbu on,  
Otashnafas shoir Asqar Mahkamni!*

**Javob:**

--

2. (Qo‘llash – 6 ball) Ushbu parchada ro‘y bergan fonetik hodisalar sonini aniqlang.

*Osmon chorlasa gar, oyga boraman,  
Suvsizman, chanqasam – soyga boraman,  
Ko‘nglimni ishq bilan to‘ldir Xudojon,*

*Bo 'sh yuragim bilan qayga boraman?*

**Javob:**

3. (Qo'llash – 6 ball) Ushbu parchada ro'y bergan fonetik hodisalar sonini aniqlang.

*Rasvo bo 'lgan nomus-or uchun,  
Jangda o 'lgan do 'st uchun yig 'lang.  
Yov toptagan gul diyor uchun,  
Taqiqlangan so 'z uchun yig 'lang.  
Qolgan dardlar – charxning hazili.*

**Javob:**

4. (Qo'llash – 6 ball) Ushbu parchada ro'y bergan fonetik hodisalar sonini aniqlang.

*Biz doim birgamiz, mening Vatanim.  
To tirik ekanman, mehring, g 'ururing  
Mehnatda, rohatda jonim payvandi,  
Sen mening sevganim, sen maqtaganim!*

**Javob:**

5. (Qo'llash – 6 ball) Ushbu parchada ro'y bergan fonetik hodisalar sonini aniqlang.

*Men sizni o 'y layman shom-u saharda,  
Ona, sog 'insam ham bora olmayman,  
Tunlari charog 'on shunday shaharda,  
Hech kimga ko 'nglimni yora olmayman.*

**Javob:**

6. (Qo'llash – 6 ball) Ushbu parchada ro'y bergan fonetik hodisalar sonini aniqlang.

*Sen bo 'lmasang, so 'zlarning,  
Bag 'ri ming tilim bo 'lar.  
Onajon, ona tilim,  
Mening shohona tilim.*

**Javob:**

7. (Qo'llash – 6 ball) Ushbu parchada ro'y bergan fonetik hodisalar sonini aniqlang.

*Hovuzcha – kosaga bahor sharobin  
Shildiratib quyar ariqchalar ham.  
Ana, yulduz sanab bog 'ot labida  
Qo 'shnim mushugi ham kutadi yorin.*

**Javob:**

8. (Qo‘llash – 6 ball) Ushbu parchada ro‘y bergan fonetik hodisalar sonini aniqlang.

*O‘zing boshla maydonga, boshla, To‘maris!  
Qolsin bizdan tarixda shonli porloq iz!  
Qo‘li bog‘liq yashashdan o‘lim a‘lodir,  
Bosqinchi yov o‘limga mahkum balodir.*

**Javob:**

9. (Qo‘llash – 6 ball) Ushbu parchada ro‘y bergan fonetik hodisalar sonini aniqlang.

*Chang-to‘zonda kechdi bu visol,  
Supurildi ko‘nglim zanglari.  
Ko‘chang to‘zib, muhabbat misol  
Yuragimga qo‘ndi changlari...*

**Javob:**

10. (Qo‘llash – 6 ball) Ushbu parchada ro‘y bergan fonetik hodisalar sonini aniqlang.

*Yovmit shahrima ketarman,  
Bundan Turkmanga yetarman,  
Har tarafga ariza qilib,  
Nomi beklarni yig‘arman.*

**Javob:**

#### 4-SAVOL

1. (Qo‘llash – 6 ball) Qavsiga olingan qaysi raqam(lar) bilan ko‘rsatilgan tinish belgilari NOto‘g‘ri qo‘llangan?

*Qozoqboy Yo‘ldoshev: (1) “Kitob o‘qimagan odamning ko‘ngli, (2) xuddi suv ichmagan, suvga tashna bo‘lib yotgan dalaga o‘xshaydi; (3) Bunday dalada hech narsa unmaydi”, (4) – (5) deydi.*

**Javob:**

2. (Qo‘llash – 6 ball) Qavsiga olingan qaysi raqam(lar) bilan ko‘rsatilgan tinish belgilari NOto‘g‘ri qo‘llangan?

*Nazarimda, (1) Shavkat Rahmon esini taniganidanoq tog‘ga nazari tushgan – (2) tog‘ bilan yurgan, (3) tog‘ bilan nafas olgan... (4) Shu ruhiy asos – (5) uning she‘rlariga ko‘chib, badiiy libos kiygan va jonli tog‘lar obrazi tug‘ilgan.*

**Javob:**

3. (Qo'llash – 6 ball) Qavsga olingan qaysi raqam(lar) bilan ko'rsatilgan tinish belgi NOto'g'ri qo'llangan?

*Farovonlik istasang, (1) baxtli bo'lganingda ham, (2) do'st-u yor orttir: (3) dengiz to'lib-toshsa ham – (4) daryo suviga muhtojdir. (5)*

**Javob:**

--	--	--	--	--

4. (Qo'llash – 6 ball) Qavsga olingan qaysi raqam(lar) bilan ko'rsatilgan tinish belgi NOto'g'ri qo'llangan?

*– Tarhlarigizga tegmay – (1) hamyoningizni olib ketgan bo'lsa, (2) bu – (3) to'qaydan chiqqan o'g'rilarning ishi; (4) – (5) dedi.*

**Javob:**

--	--	--	--	--

5. (Qo'llash – 6 ball) Qavsga olingan qaysi raqam(lar) bilan ko'rsatilgan tinish belgi NOto'g'ri qo'llangan?

*Insoniyat tarixi bu – (1) har birimizga bog'liq bo'lgan; (2) o'zligimizni ko'rsatadigan, (3) bizning olis shajaramizni, (4) nasl-nasabimizni, insoniy qadr-qimmatimizni belgilaydigan muqaddas va mo'tabar voqelikdir. (5)*

**Javob:**

--	--	--	--	--

6. (Qo'llash – 6 ball) Qavsga olingan qaysi raqam(lar) bilan ko'rsatilgan tinish belgi NOto'g'ri qo'llangan?

*Go'ro'g'libek ko'zini ochib qarasa; (1) katta bir shahar ko'ziga ko'rindi. (2) Daryolar oqqan, (3) ko'rgan odamlarning aqli shoshgan, (4) ichida kemalar qurtday qimirlab har tarafga, (5) ketib borayotibdi.*

**Javob:**

--	--	--	--	--

7. (Qo'llash – 6 ball) Qavsga olingan qaysi raqam(lar) bilan ko'rsatilgan tinish belgi NOto'g'ri qo'llangan?

*Yangi rahbar sinalmagan otning sirtidan o'tib, (1) obro'sini tushirgisi kelmadi; (2) shekilli, (3) shaytonga hay berib; (4) alamini ichiga yutdi. (5)*

**Javob:**

--	--	--	--	--

8. (Qo'llash – 6 ball) Qavsga olingan qaysi raqam(lar) bilan ko'rsatilgan tinish belgi NOto'g'ri qo'llangan?

*O'qishlar har xil bo'ladi – (1) birov ermak uchun o'qiydi, (2) birov hordiq chiqarish uchun; (3) birov o'qiyotgan kitobini ilmiy tahlil qilish uchun, (4) birov bo'lak mashg'ulot bo'lmaganidan vaqt o'tkazish uchun, birov asar qahramoni taqdiriga qiziqib o'qiydi. (5)*

**Javob:**

9. (Qo‘llash – 6 ball) Qavsga olingan qaysi raqam(lar) bilan ko‘rsatilgan tinish belgi NOto‘g‘ri qo‘llangan?

*Buyuk Iskandar, (1) “Dunyoda eng haqiqiy, (2) to‘g‘ri o‘lchov nafs o‘lchovidurki; (3) bu mezonda zarra nuqson yo‘qdur”, (4) – (5) demish.*

**Javob:**

10. (Qo‘llash – 6 ball) Qavsga olingan qaysi raqam(lar) bilan ko‘rsatilgan tinish belgisi NOto‘g‘ri qo‘llangan?

*“Endi hamisha xonadon sohibining gapiga quloq solgaysiz! (1) – (2) dedi Bibixonim kelinga. (3) – (4) aytganlarini so‘zsiz bajargaysiz”. (5)*

**Javob:**

## 5-SAVOL

1. (Qo‘llash – 6 ball) Uslubiy jihatdan NOto‘g‘ri qo‘llangan so‘z ishtirok etgan qatorni toping.

- A) Kutilmagan xabardan talmovsirab qolgan Asqar odamlarga bir-bir qarab chiqdi.
- B) Futbolga alahsirab, yuklatilgan topshiriqni bajarishni unutibman.
- C) Masalaning asl mohiyatini anglash kerak, shunda yechim topiladi.
- D) Podshohlik taxtiga o‘tirishi bilan adl bayrog‘ini baland ko‘tarishga ont ichdi.

**Javob:**

2. (Qo‘llash – 6 ball) Uslubiy jihatdan NOto‘g‘ri qo‘llangan so‘z ishtirok etgan qatorni toping.

- A) Donolik bilan nodonlik shu qadar yaqinki, odam donolikni qancha ko‘p davo qilsa, shuncha nodon bo‘ladi.
- B) Hikoyadagi tasvirlar tabiiy, voqealarni uyushtirishda muallif o‘zini ortiqcha zo‘riqtirmaydi.
- C) Imoni mukammal bo‘lishini istagan har bir solih kishi kamtarin, tavezeli bo‘lmog‘i darkor.
- D) Boshimizga kulfat va zahmat yomon tilimizdan, me‘yordan ortiq so‘ylaganimizdan keladi.

**Javob:**

3. (Qo‘llash – 6 ball) Uslubiy jihatdan NOto‘g‘ri qo‘llangan so‘z ishtirok etgan qatorni toping.

- A) Hatto tunda ham adl teraklarning qorasi g‘ira-shira ko‘zga tashlanardi.

- B) Tunuka tom ostida kaptarlar kukulashib, g'uj-g'uj bo'lib don terishardi.
- C) Notanish kimsaning tomdan tarasha tushganday savolga tutishi uni hayratlantirdi.
- D) Masalaning tub mohiyatiga yetish uchun do'ppini yerga qo'yib o'ylash zarur.

**Javob:**

4. (Qo'llash – 6 ball) Uslubiy jihatdan NOto'g'ri qo'llangan so'z ishtirok etgan qatorni toping.

- A) Maktabimiz o'quvchilari sport musobaqasida yuqori natijalarni qayd etdilar.
- B) Chinorning tarvaqaylab o'sgan shohida kattakon uya qorayib ko'rinardi.
- C) Qafasga solib qo'yilgan sa'va kechasi bilan tinmay sayrab chiqardi.
- D) Borlik yo'qlikni, yengillik mushkulotni yuzaga keltiradi.

**Javob:**

5. (Qo'llash – 6 ball) Uslubiy jihatdan NOto'g'ri qo'llangan so'z ishtirok etgan qatorni toping.

- A) Olomon ichidan bir kosib yigitcha bo'ynini xo'rozday cho'zib, baralla qichqirdi.
- B) Sabr og'riqlarni da'volovchi achchiq malhamga o'xshaydi: jonni og'ritadi, biroq yarani da'volaydi.
- C) Hech zamonda bizni o'ylab, kimdir kelib qurbaqa bosgan qudug'imizga toza suv quyib berarmidi?
- D) To'g'ri bo'lsang, o'sib borib gul bo'lasan; egri bo'lsang, o'sib borib kul bo'lasan.

**Javob:**

6. (Qo'llash – 6 ball) Uslubiy jihatdan NOto'g'ri qo'llangan so'z ishtirok etgan qatorni toping.

- A) Qalovini topsang, qor ham yonadi, deydi xalqimiz.
- B) Sunbulaning suvi tiniq bo'ladi, deydi qariyalarimiz.
- C) Amirlar kelar-ketar, bu dunyo ulardan keyin ham qolar.
- D) Bugun qishloqqa – bobomni yoqlashga ketyapman.

**Javob:**

7. (Qo'llash – 6 ball) Uslubiy jihatdan NOto'g'ri qo'llangan so'z ishtirok etgan qatorni toping.

- A) Unda sobit turar maqsud-manzilim, Qolib ketmasaydim sening mehringdan.

B) Roziya buvi so‘rigacha inqillab-sinqillab, zo‘rg‘a yetib keldi va asta-sekinlik bilan ko‘tarilib, yostiqqa yonboshladi.

C) O‘rtamizdagi sovuqlikning hali ham davom etayotganiga qaramay, tan olishim kerak: Narimon o‘lguday chiroyli edi.

D) Qamoqdan bo‘shaganimizda Dyun bilan uchovimiz tushgan sur‘atni olib kel.

**Javob:**

8. (Qo‘llash – 6 ball) Uslubiy jihatdan NOto‘g‘ri qo‘llangan so‘z ishtirok etgan qatorni toping.

A) Samovar tomondan dutor, tanbur, nay, doira ko‘tarib kelayotgan mashoqlarga ko‘zi tushdi.

B) Ey, zulm uchun quduq qazigan, shuni bilginki, sen o‘zing uchun tuzoq hozirlayapsan!

C) Agar menda ozgina bo‘lsa-da olijanoblik, axloqiy poklik shakllangan bo‘lsa, hammasi onamdan.

D) Baliqqa dengizdan boshqa joy azob keltirgani kabi insonga ham begona tuproq mashaqqat keltiradi.

**Javob:**

9. (Qo‘llash – 6 ball) Uslubiy jihatdan NOto‘g‘ri qo‘llangan so‘z ishtirok etgan qatorni toping.

A) Biz yoshligimizdan otamga qarashib keldik, poda boqdik, mashshoq terdik.

B) Bo‘lib o‘tgan ishlarni o‘ylayverganidan Sayyoraning boshi g‘ovlab ketdi.

C) Ultarmalik Asrorqul Haydar otaning qadrdon oshnasi bo‘lib, oralaridan qil o‘tmasdi.

D) Shahardagi ko‘p narsalar Navoiy dahosini, uning buyuk insonparvarligini eslatib turadi.

**Javob:**

10. (Qo‘llash – 6 ball) Uslubiy jihatdan NOto‘g‘ri qo‘llangan so‘z ishtirok etgan qatorni aniqlang.

A) Ushbu qala devorlari ming yillardan beri o‘z mustahkamligini yo‘qotmagan.

B) Quyoshda toblanish inson salomatligi uchun ancha foydali mashg‘ulotdir.

C) Shifokorlar bemorni davolashda qo‘llaridan kelgan barcha chorani ko‘rishdi.

D) Yo‘l bo‘yida adil teraklar saf tortgan, ko‘chalarga suvlar sepilgan edi.

**Javob:**

## 6-SAVOL

1. (Qo‘llash – 6 ball) Badiiy uslubga xos gaplarni aniqlang.

1. Quyosh botib borar, ufq qizg‘ish ranglarga burkanib, go‘yo tabiat kun bilan xayrlashayotgandek sokin va mungli bir manzarani namoyon etardi.

2. Fonetik tizimdagi o‘zgarishlar vaqt o‘tishi bilan tilning talaffuz me‘yorlariga ta’sir ko‘rsatib, bu jarayonlarni ilmiy asosda o‘rganish tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

3. Mazkur qaror asosida tashkilot faoliyatini yanada takomillashtirish hamda ish samaradorligini oshirish maqsadida tegishli chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish belgilandi.

4. Yengil shabada daraxt yaproqlarini mayin silkitib, ularning shitirlashi qalb tubidagi eng nozik tuyg‘ularni uyg‘otgandek, atrofga ajib bir osoyishtalik baxsh etardi.

5. So‘z yasalishi jarayoni tilning ichki imkoniyatlari asosida amalga oshib, unda qo‘shimchalar yordamida yangi ma‘noli birliklarning hosil bo‘lishi kuzatiladi.

**Javob:**

--	--	--	--	--

2. (Qo‘llash – 6 ball) Ilmiy uslubga xos gaplarni aniqlang.

1. Qishloq ko‘chalari tong saharda hali uyg‘onmagan, faqatgina uzoqdan eshitilgan xo‘roz ovozi yangi kun boshlanishidan darak berib turardi.

2. U bolalik xotiralarini eslar ekan, ko‘z o‘ngida beg‘ubor kunlar, kulgi va quvonchga to‘la lahzalar yana bir bor jonlangandek bo‘lardi.

3. Nutq uslublarining shakllanishi kommunikativ vaziyatga bog‘liq bo‘lib, ilmiy, rasmiy, badiiy va so‘zlashuv uslublari o‘ziga xos til vositalari bilan ajralib turadi.

4. Til birliklarining semantik tahlili orqali so‘z va iboralarning ma‘no qatlamlari aniqlanib, ularning nutqdagi funksional imkoniyatlari kengroq yoritiladi.

5. Fuqarolarning murojaatlarini o‘z vaqtida ko‘rib chiqish va ularning qonuniy manfaatlarini ta‘minlash maqsadida mas‘ul shaxslarga aniq vazifalar yuklatildi.

**Javob:**

--	--	--	--	--

3. (Qo‘llash – 6 ball) Rasmiy uslubga xos gaplarni aniqlang.

1. Osmonda yulduzlar charaqlab, go‘yo cheksiz koinotning sirli hikoyalarini jimjit tun bag‘rida asta-sekin so‘zlayotgandek tuyulardi.
2. Tashkilotning moliyaviy faoliyatini tartibga solish va mablag‘lardan oqilona foydalanishni ta‘minlash yuzasidan qo‘shimcha nazorat mexanizmlari joriy etiladi.
3. Qaror ijrosini ta‘minlash maqsadida har oy yakuni bo‘yicha hisobotlar taqdim etilishi va ular asosida tahliliy xulosalar ishlab chiqilishi belgilandi.
4. E, qayerlarda yuribsan o‘zi, anchadan beri ko‘rinmaysan, bir marta ham xabar olmading, hatto telefon qilsak ham ko‘tarolmay yuribsan-ku!
5. Oyi, bugun qilgan ovqatingiz juda mazali chiqibdi, rosa och qolgan ekanman, yana biroz qo‘shib bersangiz juda yaxshi bo‘lardi.

**Javob:**

--	--	--	--	--

**4. (Qo‘llash – 6 ball) So‘zlashuv uslubga xos gaplarni aniqlang.**

1. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar aholining turmush darajasini oshirish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi.
2. Ustoz, kechirasiz, uy vazifasini to‘liq bajara olmadim, ayrim joylarini tushunmay qoldim, shuning uchun yana bir bor tushuntirib bersangiz yaxshi bo‘lardi.
3. Yuringlar, bugun biroz aylanib kelamiz, ochig‘i, uyda o‘tiraverib juda zerikib ketdim, biroz toza havoda yurish ham foydali bo‘ladi.
4. Bugungi kunda yoshlarning bilim olishga bo‘lgan intilishi va zamonaviy texnologiyalarni egallashga bo‘lgan qiziqishi jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri sifatida e‘tirof etilmoqda.
5. Atrof-muhitni asrash masalasi endilikda faqat mutaxassislarning emas, balki har bir fuqaroning kundalik hayotida muhim o‘rin egallashi zarur bo‘lgan dolzarb vazifaga aylanib bormoqda.

**Javob:**

--	--	--	--	--

**5. (Qo‘llash – 6 ball) Publitsistik uslubga xos gaplarni aniqlang.**

1. Tong shabadasi yaproqlar orasida sirli qo‘shiqlar aytar, go‘yo tabiat yuragi asta urayotgandek tuyulardi.
2. Uning nigohida butun bir olam yashirin edi — quvonch ham, sog‘inch ham bir-biriga qorishib ketgandi.
3. Loyiha bo‘yicha zarur choralar belgilandi va ularni amalga oshirish uchun mas‘ullar tayinlandi.

4. Axborot asrida yashayotgan bugungi inson uchun ishonchli va tezkor ma'lumotga ega bo'lish nafaqat qulaylik, balki hayotiy zaruratga ham aylanib bormoqda.

5. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini shakllantirish har bir jamiyatning ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

**Javob:**

--	--	--	--	--

6. (Qo'llash – 6 ball) Rasmiy uslubga xos gaplarni aniqlang.

1. Uning nigohida butun bir olam yashirin edi — quvonch ham, sog'inch ham bir-biriga qorishib ketgandi.

2. Ushbu qaror bugundan boshlab kuchga kiradi va uning bajarilishi doimiy nazorat ostida bo'ladi.

3. Tashkilot tomonidan tegishli ko'rsatmalar berildi, shuning uchun ishlar tartibli ravishda davom ettirilmogda.

4. Agar harorat oshsa, moddaning hajmi kengayishi kuzatiladi va bu hodisa fizik qonuniyatlarga mos keladi.

5. Olimlar tomonidan o'tkazilgan kuzatishlar natijasida aniqlanganki, bu jarayon murakkab bosqichlardan iborat.

**Javob:**

--	--	--	--	--

7. (Qo'llash – 6 ball) Ilmiy uslubga xos gaplarni aniqlang.

1. U deraza yonida jim turardi, go'yo o'tmish xotiralari uning qalbini asta-sekin qamrab olayotgandek edi.

2. Bugungi kunda yoshlar ta'limga katta e'tibor qaratmogda va bu jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omil hisoblanadi.

3. Hujjat barcha tegishli bo'limlar bilan kelishildi hamda rahbar tomonidan imzolandi.

4. Agar kuzatishlar muntazam ravishda olib borilsa, ilmiy xulosalarning aniqligi yanada ortadi.

5. Agar reaksiya tezligi oshirilsa, mahsulot hosil bo'lish jarayoni tezlashadi, chunki zarrachalar faolligi ortadi.

**Javob:**

--	--	--	--	--

8. (Qo'llash – 6 ball) So'zlashuv uslubga xos gaplarni aniqlang.

1. Shamol yaproqlarni asta silkitdi va ular xuddi nimanidir pichirlab aytayotgandek jarangladi.
2. Keling, hoziroq yo'lga chiqaylik, aks holda tirbandlik sababli kech qolib ketishimiz mumkin.
3. Sport bilan muntazam shug'ullanish sog'liqni mustahkamlaydi, shu bois bu masalaga alohida e'tibor qaratilmoqda.
4. Hisobot o'z vaqtida taqdim etildi, shu sababli u belgilangan reja asosida tasdiqlandi.
5. O'rtoq, sen aytgandek hamma ishni qildim, shuning uchun hozir hech qanday muammo yo'q deb o'ylayman.

**Javob:**

--	--	--	--	--

**9.** (Qo'llash – 6 ball) Publitsistik uslubga xos gaplarni aniqlang.

1. Nazariy qarashlarga ko'ra, ushbu hodisa tabiiy qonunlarga asoslanadi va u tajribada ham isbotlangan.
2. Quyosh ufqqa bosh qo'yar ekan, osmon ranglari asta-sekin so'nib, tun o'z hukmini o'tkaza boshladi.
3. Atrof-muhitni asrash har birimizning burchimizdir, chunki kelajak avlod taqdiri shunga bog'liq.
4. Yolg'iz daraxt shamol bag'rida tebranib, go'yo uzoq yo'llardan hikoya so'zlayotgandek edi.
5. Yoshlar o'z salohiyatini namoyon etmoqda va ular mamlakatimiz kelajagini belgilovchi asosiy kuchdir.

**Javob:**

--	--	--	--	--

**10.** (Qo'llash – 6 ball) Badiiy uslubga xos gaplarni aniqlang.

1. Sintaksis bo'limi gap tuzilishini tadqiq etib, undagi so'zlarning bog'lanish qonuniyatlari va mazmuniy munosabatlarini ilmiy jihatdan izohlaydi.
2. U uzoq yo'llarni bosib o'tgan charchoqni his qilsa-da, yuragidagi umid uchquni hali ham so'nmay, uni oldinga, noma'lum manzillar sari yetaklab borardi.
3. Uning nigohlarida aytilmagan minglab so'zlar yashiringan bo'lib, bu sukut ba'zan eng baland ovozdan ham kuchliroq ta'sir ko'rsatardi.
4. Hozir chiqyapman, yo'lda biroz tirbandlik bo'lishi mumkin, shuning uchun ozgina kutib tursang, tezroq yetib borishga harakat qilaman.

5. Xodimlarning mehnat intizomini mustahkamlash hamda xizmat vazifalarini lozim darajada bajarishini ta'minlash bo'yicha muntazam monitoring olib borilishi belgilandi.

**Javob:**

--	--	--	--	--

## 7- SAVOL

1. (Bilish – 4 ball) Faqat jarangli undoshlardan iborat so'zlar sonini aniqlang.  
*Odamlar orolmas, qit'adek yashashni o'rgansa, ko'p balolardan saqlanardi.*

**Javob:**

2. (Bilish – 4 ball) Faqat jarangli undoshlardan iborat so'zlar sonini aniqlang.  
*Har ikki kitobda ham muqaddima o'rnida muallifning "izohnoma"si bor.*

**Javob:**

3. (Bilish – 4 ball) Faqat jarangli undoshlardan iborat so'zlar sonini aniqlang.  
*So'zlarimizning ma'noviy bo'yqadorligi nutqimiz jozibasini yanada oshiradi.*

**Javob:**

4. (Bilish – 4 ball) Faqat jarangli undoshlardan iborat so'zlar sonini aniqlang.  
*Mahmud ota yuzida qandaydir tabassum bilan qutini tita boshladi.*

**Javob:**

5. (Bilish – 4 ball) Faqat jarangli undoshlardan iborat so'zlar sonini aniqlang.  
*O'tgan ajdodlarimiz bizni shu Vatanni sevishga, fidokorona xizmat qilishga o'rgatishgan.*

**Javob:**

6. (Bilish – 4 ball) Faqat jarangli undoshlardan iborat so'zlar sonini aniqlang.  
*Bola ko'chadan yig'lab, kiyimlari yirtilgan, titilgan holda kirib keldi.*

**Javob:**

7. (Bilish – 4 ball) Faqat jarangli undoshlardan iborat so'zlar sonini aniqlang.

*Qoratoy turdi, tor va dim hovlida bo'g'ilib, tag'in qaytib xonasiga kirib ketdi.*

**Javob:**

**8.** (Bilish – 4 ball) Faqat jarangli undoshlardan iborat so'zlar sonini aniqlang.

*Hamza Shahrizabz va Karkida yangi usulda ta'lim berishga ixtisoslashgan jadid maktablarini ochadi.*

**Javob:**

**9.** (Bilish – 4 ball) Faqat jarangli undoshlardan iborat so'zlar sonini aniqlang.

*Yaxshini maqtasang yarashur, gar yomonni maqtasang adashur.*

**Javob:**

**10.** (Bilish – 4 ball) Faqat jarangli undoshlardan iborat so'zlar sonini aniqlang.

*Suyuklidan kelgan jafoga nisbatan qayg'uga botma, uni xush kayfiyat ila qarshi olish kerak.*

**Javob:**

## **8-SAVOL**

**1.** (Qo'llash – 6 ball) Berilgan gapdagi ma'no ko'chish turini aniqlang.  
*Kecha oshda ko'rinmadingiz, sayohatga ketganmidingiz?*

- A) Ma'no ko'chmagan
- B) Metonimiya
- C) Sinekdoxa
- D) Metafora

**Javob:**

**2.** (Qo'llash – 6 ball) Berilgan gapdagi ma'no ko'chish turini aniqlang.  
*Mustaqillik tufayli millatning g'ururi, obro'-e'tibori o'sdi.*

- A) Ma'no ko'chmagan
- B) Metonimiya
- C) Sinekdoxa
- D) Metafora

**Javob:**

**3.** (Qo'llash – 6 ball) Berilgan gapdagi ma'no ko'chish turini aniqlang.  
*Sattor yonginasida ochiq turgan Zarifaning daftariga ko'z yugurtirdi.*

- A) Ma'no ko'chmagan
- B) Metonimiya
- C) Sinekdoxa
- D) Metafora

**Javob:**

4. (Qo'llash – 6 ball) Berilgan gapdagi ma'no ko'chish turini aniqlang.  
*Insoniyat paydo bo'libdiki, nodir va umuminsoniy g'oyalarga yo'g'rilgan asarlar asrlar davomida o'lmaydi, umriboqiy xazinaga aylanadi.*

- A) Ma'no ko'chmagan
- B) Metafora
- C) Sinekdoxa
- D) Metonimiya

**Javob:**

5. (Qo'llash – 6 ball) Berilgan gapdagi ma'no ko'chish turini aniqlang.  
*Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana ko'ngillarni qitiqlay boshladi. Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi.*

- A) Ma'no ko'chmagan
- B) Metonimiya
- C) Sinekdoxa
- D) Metafora

**Javob:**

6. (Qo'llash – 6 ball) Berilgan gapdagi ma'no ko'chish turini aniqlang.  
*Hofiz ikki-uch qo'shiqdan so'ng Fuzuliyini aytayotganida odamlar tarqala boshladi.*

- A) Ma'no ko'chmagan
- B) Metonimiya
- C) Sinekdoxa
- D) Metafora

**Javob:**

7. (Qo'llash – 6 ball) Berilgan gapdagi ma'no ko'chish turini aniqlang.  
*Ular bir umr tirnoqqa zor o'tishdi, umr yakunida esa Oymomoga onalik mehrini bir bora tuyish nasib qildi.*

- A) Ma'no ko'chmagan
- B) Metonimiya
- C) Sinekdoxa
- D) Metafora

**Javob:**

8. (Qo'llash – 6 ball) Berilgan gapdagi ma'no ko'chish turini aniqlang.

*Bu asar yozilgan paytlarda xalqimiz tarixini to'la va atroflicha o'rganish, o'tmishda o'tgan amirlar, xonlar, sarkardalar faoliyatini tahlil qilish nihoyatda mushkul va xatarli edi.*

- A) Ma'no ko'chmagan
- B) Metonimiya
- C) Sinekdoxa
- D) Metafora

**Javob:**

**9.** (Qo'llash – 6 ball) Berilgan gapdagi ma'no ko'chish turini aniqlang.  
*Qiz yonimga kelib: "Hamid Olimjonga qaysi tomondan chiqiladi?" – deb sekin so'radi.*

- A) Ma'no ko'chmagan
- B) Metonimiya
- C) Sinekdoxa
- D) Metafora

**Javob:**

**10.** (Qo'llash – 6 ball) Berilgan gapdagi ma'no ko'chish turini aniqlang.  
*Haqiqat yo'lini ochinglar va doimo shu bexavotir, to'g'ri yo'ldan yuringlar, shundagina o'z maqsadlaringizga erishasizlar.*

- A) Ma'no ko'chmagan
- B) Metonimiya
- C) Sinekdoxa
- D) Metafora

**Javob:**

## 9-SAVOL

**1.** (Qo'llash – 6 ball) Asosi fe'l so'z turkumiga oid yasama so'z(lar) raqamini yozing.

*1) kiyim, 2) qaviq, 3) buklamoq, 4) quvlamoq, 5) sovuq, 6) muzlatmoq, 7) ko'kar.*

**Javob:**

--	--	--	--	--	--	--	--

**2.** (Qo'llash – 6 ball) Asosi fe'l so'z turkumiga oid yasama so'z(lar) raqamini yozing.

*1) iliq, 2) yashamoq, 3) surildi, 4) toparmon-tutarmon, 5) kamaymoq, 6) cho'ziq, 7) sug'ormoq.*

**Javob:**

--	--	--	--	--	--	--	--

3. (Qo‘llash – 6 ball) Asosi fe‘l so‘z turkumiga oid yasama so‘z(lar) raqamini yozing.  
1) to‘g‘nog‘ich, 2) qultum, 3) to‘kin, 4) tursin, 5) kamxarj, 6) taqiqlamoq, 7) tilak.

**Javob:**

--	--	--	--	--	--	--

4. (Qo‘llash – 6 ball) Asosi fe‘l so‘z turkumiga oid yasama so‘z(lar) raqamini yozing.  
1) sochqi, 2) toshqin, 3) tergayotgan, 4) keliboq, 5) saylov, 6) kamaymoq, 7) g‘unchalamoq.

**Javob:**

--	--	--	--	--	--	--

5. (Qo‘llash – 6 ball) Asosi fe‘l so‘z turkumiga oid yasama so‘z(lar) raqamini yozing.  
1) kekkaymoq, 2) sovitkich, 3) shovullamoq, 4) ko‘rik, 5) sensiramoq, 6) og‘riq, 7) sarg‘aymoq.

**Javob:**

--	--	--	--	--	--	--

6. (Qo‘llash – 6 ball) Asosi fe‘l so‘z turkumiga oid yasama so‘z(lar) raqamini yozing.  
1) chiziq, 2) ishonqiramoq, 3) terim, 4) kuyik, 5) quvlamoq, 6) qizgina, 7) hayratomuz.

**Javob:**

--	--	--	--	--	--	--

7. (Qo‘llash – 6 ball) Asosi fe‘l so‘z turkumiga oid yasama so‘z(lar) raqamini yozing.  
1) yugurdak, 2) istak, 3) g‘unchalamoq, 4) purkagich, 5) tekislamoq, 6) vizillagan, 7) bo‘shamoq.

**Javob:**

--	--	--	--	--	--	--

8. (Qo‘llash – 6 ball) Asosi fe‘l so‘z turkumiga oid yasama so‘z(lar) raqamini yozing.  
1) kesik, 2) go‘shxo‘r, 3) chorvador, 4) turtki, 5) bo‘rttirish, 6) elak, 7) ikkilanish.

**Javob:**

--	--	--	--	--	--	--

9. (Qo‘llash – 6 ball) Asosi fe‘l so‘z turkumiga oid yasama so‘z(lar) raqamini yozing.  
1) yutuq, 2) kiraverish, 3) boshlangan, 4) kutubxona, 5) sayroqi, 6) sensiramoq, 7) qizg‘anchiq.

**Javob:**

--	--	--	--	--	--	--

10. (Qo'llash – 6 ball) Asosi fe'l so'z turkumiga oid yasama so'z(lar)ni aniqlab, raqamini yozing.

1) taroq; 2) guvulla; 3) chirindi; 4) tezlik; 5) berkinmoq; 6) sharshara; 7) qovurdoq.

Javob:

--	--	--	--	--	--	--

### 10-SAVOL

1. (Qo'llash – 6 ball) Ushbu gapning tuzilishiga ko'ra turini aniqlab, to'g'ri javob raqamini yozing.

*Xizmatchilardan liftni ishlatib berishni iltimos qilishdi, lekin buning foydasi bo'lmadi.*

1. Bog'lovchisiz qo'shma gap.
2. Ergashgan qo'shma gap.
3. Bog'langan qo'shma gap.
4. Sodda yoyiq gap.

Javob:

2. (Qo'llash – 6 ball) Ushbu gapning tuzilishiga ko'ra turini aniqlab, to'g'ri javob raqamini yozing.

*Badiiy adabiyot to'g'risida fikr aytish adabiyotshunos va munaqqiddan keng qamrovli nazariy bilimni, did hamda farosatni talab etadi.*

1. Bog'lovchisiz qo'shma gap.
2. Ergashgan qo'shma gap.
3. Bog'langan qo'shma gap.
4. Sodda yoyiq gap.

Javob:

3. (Qo'llash – 6 ball) Ushbu gapning tuzilishiga ko'ra turini aniqlab, to'g'ri javob raqamini yozing.

*Tilagim shuki, bugungi kun sizning hayotingizda o'chmas iz qoldirsin.*

1. Bog'lovchisiz qo'shma gap.
2. Ergashgan qo'shma gap.
3. Bog'langan qo'shma gap.
4. Sodda yoyiq gap.

Javob:

4. (Qo'llash – 6 ball) Ushbu gapning tuzilishiga ko'ra turini aniqlab, to'g'ri javob raqamini yozing.

*Yusufbek hojining qiziq bir tabiati bor: xotini bilangina emas, umuman uy ichisi bilan har qanday masala ustida uzoq so'zlashib o'turmaydir.*

1. Bog'langan qo'shma gap.
2. Ergashgan qo'shma gap.
3. Bog'lovchisiz qo'shma gap.
4. Sodda yoyiq gap.

**Javob:**

5. (Qo'llash – 6 ball) Ushbu gapning tuzilishiga ko'ra turini aniqlab, to'g'ri javob raqamini yozing.

*Alisher Navoiy asarlari bizni dunyoning eng sirli mo'jizasi hisoblangan so'zga ehtiyotkorlik va mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishga, uni qadrlashga chorlaydi.*

1. Bog'lovchisiz qo'shma gap.
2. Ergashgan qo'shma gap.
3. Bog'langan qo'shma gap.
4. Sodda yoyiq gap.

**Javob:**

6. (Qo'llash – 6 ball) Ushbu gapning tuzilishiga ko'ra turini aniqlab, to'g'ri javob raqamini yozing.

*Bilim har qanday muammo va qiyinchiliklarni yengib o'tishga zamin yaratadi, shuning uchun farzandlarimiz yuksak bilimga ega bo'lishlari kerak.*

1. Bog'lovchisiz qo'shma gap.
2. Ergashgan qo'shma gap.
3. Bog'langan qo'shma gap.
4. Sodda yoyiq gap.

**Javob:**

7. (Qo'llash – 6 ball) Ushbu gapning tuzilishiga ko'ra turini aniqlab, to'g'ri javob raqamini yozing.

*G'ayratlining yuragi qaynar, g'ayratsizning yuragi o'ynar.*

1. Bog'lovchisiz qo'shma gap.
2. Ergashgan qo'shma gap.
3. Bog'langan qo'shma gap.
4. Sodda yoyiq gap.

**Javob:**

8. (Qo‘llash – 6 ball) Ushbu gapning tuzilishiga ko‘ra turini aniqlab, to‘g‘ri javob raqamini yozing.

*Ishqni til ila ta‘rif etish naqadar go‘zal, ammo tilga olinmagan ishq undan-da go‘zal.*

1. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap.
2. Ergashgan qo‘shma gap.
3. Bog‘langan qo‘shma gap.
4. Sodda yoyiq gap.

**Javob:**

9. (Qo‘llash – 6 ball) Ushbu gapning tuzilishiga ko‘ra turini aniqlab, to‘g‘ri javob raqamini yozing.

*Qorong‘ilik quyuqlasha borardi, ko‘kdagi yulduzlar ham yorqinroq chaqnar edi.*

1. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap.
2. Ergashgan qo‘shma gap.
3. Bog‘langan qo‘shma gap.
4. Sodda yoyiq gap.

**Javob:**

10. (Qo‘llash – 6 ball) Ushbu gapning tuzilishiga ko‘ra turini aniqlab, to‘g‘ri javob raqamini yozing.

*Tillarning eng yaxshisi – so‘zga usta til, so‘zlarning eng yaxshisi bilib, oxirini o‘ylab so‘ylangan so‘zdir.*

1. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap.
2. Ergash gapli qo‘shma gap.
3. Bog‘langan qo‘shma gap.
4. Sodda yoyiq gap.

**Javob:**

## 11–15-SAVOLLAR

### 1-MATN (ona tili)

#### Ilmiy-ommabop matn

11 – 15-savollar matn asosida bajariladi.

### MO‘JIZANING SIRI NIMADA?

#### I

Nurota tumani Navoiy viloyatida joylashgan bo‘lib, bu yerda Nur qal’asi, qal’aning mudofaa devori, Chilustun yodgorliklari saqlanib qolgan. Bu yodgorliklar

haqida Nurotaga borganingizda, albatta, so‘rab bilib oling. Men esa sizga Nurota chashmasi hamda baliqlari haqida gapirib bermoqchiman.

Chashma o‘zining sirliligi bilan juda mashhur. Chashma suvi ko‘zni qamashtiradigan darajada yaltirab turadi. Bunga sabab suv tarkibidagi fosfor moddasidir. Chashma suvi minglab kilometr yer ostidan otilib chiqadi. Suv qishin-yozin bir xil haroratda — 19,5 darajada iliq bo‘ladi. Shuning uchun hech ham muzlamaydi. Aytishlaricha, tarkibida oltin moddasi bo‘lgani uchun bu suv turli kasalliklarga davo ekan. Bugungi kunda ko‘plab ziyoratchilar va xorijdan kelgan mehmonlar shu muqaddas chashmadan suv olib ketadilar.

## II

Chashmadagi baliqlar esa ko‘zni quvontiradi. Ular o‘rtacha o‘n yetti yil yashaydi. Baliqlar umri davomida chashma suvi sizib chiqadigan ariqchalarni qumlardan tozalaydi. Suvning bir me‘yorda oqishini ta‘minlab, hatto uni filtrlab beradi. Qizig‘i shundaki, baliqlarga hech kim yemish tashlamaydi. Ular suv tarkibidagi ozuqalar bilan oziqlanadi. Shu bois o‘tmishda ba‘zilar ularni “avliyo baliq” deb ham atashgan. Bu baliqlarni iste‘mol qilib bo‘lmaydi. Chunki ularning ichidagi uvuldirig‘i zararli hisoblanadi. Uni tozalamasdan iste‘mol qilgan odamning terisida har xil dog‘lar paydo bo‘ladi. Agar ko‘proq iste‘mol qilinsa, yomon oqibatlariga olib kelishi mumkin. Emishki, yurtimizga bostirib kirgan bosqinchilar mahalliy xalqning ogohlantirilishiga qaramay “avliyo baliq”larni ovlab yeyishgan va anchagina ko‘ngilsizliklarga uchrashishgan.

## III

Bugungi kunda ushbu ziyoratgoh obod qilingan. Yon-atroflariga xiyobonlar, favvoralar va gulzorlar barpo etilgan. Sir-sinoatlarga to‘la Nurota chashmasi va ziyoratgohidan xorijlik sayyohlar va yurtdoshlarimizning qadami uzilmaydi. Siz ham yurtimizdagi bu ajoyib ziyoratgohga, albatta, tashrif buyuring. Barcha fasllarda bir xil haroratda oquvchi, sovuq mavsumlarda ham muzlamaydigan bu chashma suvi juda noyobdir. Bularning barchasini o‘z ko‘zing bilan ko‘rganga nima yetsin!

**11.** (Bilish – 4 ball) Matnda aks etgan ma’lumot berilgan javob(lar)ni aniqlang.

- A) Chashma suvining tozaligida avliyo baliqlarning ahamiyati katta.
- B) Baliqlarning “Avliyo baliq” deb atalishiga sabab ular yordamida fol ochilishidir.
- C) Chashma suvidan ko‘p iste‘mol qilish teri kasalliklariga sabab bo‘ladi.
- D) Nurota muqaddas joy bo‘lgani uchun yog‘iylar bostirib kira olishmagan.
- E) Qishda ham muzlamaydigan bu chashma suvi juda xislatlidir.

**Javob:**

--	--	--	--	--

**12.** (Qo‘llash – 6 ball) Matn qismlari o‘rtasidagi mazmuniy bog‘liqliklarga e’tibor qiling va qaysi qismda takroriy fikr mavjudligini aniqlang.

- A) III qismda takrorlangan
- B) II qismda takrorlangan
- C) I qismda takrorlangan
- D) fikr takrorlanmagan

**Javob:**

**13.** (Mulohaza – 8 ball, qisqa javobli) Ushbu matndan keltirilgan gaplardan qaysilari fakt hisoblanadi?

- 1. Chashma suvi hech qachon muzlamaydi, har doim 19,5°C iliq bo‘ladi.
- 2. Chashmaning sirli joy ekanligi haqida xalq orasida turli rivoyatlar yuradi.
- 3. Baliqlar o‘rtacha 17 yil yashaydi va chashma suvini tozalashga yordam beradi.
- 4. Baliqlar tarkibidagi modda zaharli hisoblanadi.
- 5. Baliqlar suv tarkibidagi ozuqalar bilan oziqlanadi.

**Javob:**

--	--	--	--	--

**14.** (Mulohaza – 13 ball, kengaytirilgan)

Nurota chashmasining o‘ziga xosligi nimada ekanligi, baliqlarning tabiatdagi ahamiyati va nega bu maskan muqaddas hamda qadrlil ziyoratgoh hisoblanishini izohlang.

Fikrlaringizni 80 – 100 ta so‘z bilan ifodalang.

**Javob:** \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

**15.** (Mulohaza – 13 ball, kengaytirilgan)

Ziyoratgohni toza saqlash va kelajak avlodlarga yetkazish uchun qanday tadbirlar o‘tkazish mumkin?

Agar siz sayyoh bo‘lsangiz, Nurota chashmasi haqida boshqalarga qanday tavsiya berar edingiz? O‘z fikringizni yozing.

Fikrlaringizni 80 – 100 ta so‘z bilan ifodalang.

**Javob:** \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

## **2-MATN (ona tili)**

### **Ilmiy-ommabop matn**

11 – 15-savollar matn asosida bajariladi.

### **TOSHKENTNING QADIMIY DARVOZALARI**

#### **I**

Qadimiy va koʻhna Toshkent shahri tarixida shahar darvozalari haqidagi maʼlumotlarni koʻplab uchratish mumkin. Manbalarda aytilishicha, IX–X asrlarda shahar markazidagi bozor hududida qalʼa qurilgan. Uning atrofi mudofaa devorlari bilan oʻralgan. Vaqt oʻtishi bilan shahar kengayib ikkinchi mudofaa devori qurilgan. Tashqi dushmanlardan muhofaza qilish uchun keyinchalik shaharning uchinchi mudofaa devori qurilib, darvozalar oʻrnatilgan. Toshkent tabiiy ravishda markazda joylashgan bozor atrofidan har tomonga kengaya borgan.

#### **II**

Turli davrlarda shahar darvozalarining soni turlicha boʻlgan. Masalan, XVIII asrda 8 ta darvoza boʻlsa, XIX asrga kelib ular soni 12 taga yetgan. Shahar darvozalaridan Labzak, Qashqar, Qoʻqon, Qoʻymas kabi darvozalar Sharq tomondan keyinchalik shaharga qoʻshib olingan qismiga qurilgan, ayrimlarining oʻrni surilgan. Shahar darvozalari qorongʻi tushishi bilan yopilgan va ertalab tong saharda ochilgunga qadar hech kim shaharga kiritilmagan, hech kim shahardan chiqib ham ketolmagan. Darvozaxonalar ustida maxsus qorovulxonalar va doʻmbiralar saqlanadigan xonalar ham boʻlib, xavf-xatar sezilganda doʻmbiralar chalinib xaloyiq ogohlantirilgan.

### III

12 darvozaning hammasi katta yo‘l ustida qurilgan bo‘lib, darvozalar mustahkam, qattiq yog‘och – tog‘ archasidan yasalgan va ust tomoniga naqshinkor bezaklar berilgan. Har bir darvozada juft halqalar va kalitlar bo‘lgan. Kalitlar darvozabonlar qo‘lida saqlangan. Darvozabonlar darvozalarni tongda ochib, Quyosh botganda berkitganlar. Kechasi shaharga hech kim kiritilmagan va hech kim shahardan chiqib ham ketolmagan. Uzoq yo‘ldan charchab kelgan karvon shahar darvozasi oldida to‘xtab yuklarini tushirgan va shaharga kirish uchun hujjatlashtirish ishlarini olib borgan. Bojxona solig‘ini olish uchun zakotchi mahsulot hajmidan kelib chiqqan holda soliq olgan. Barcha darvozalarning tashqariga chiqish hududida qabristonlar bo‘lib, ularning aksariyati hozirgi kungacha saqlanib qolgan.

### IV

Bugungi kunda Toshkentning umumiy manzarasini yangi ko‘p qavatli turarjoy majmualari, mehmonxonalar va banklarning binolari aks ettiradi. “Eski shahar” ham o‘zgardi, u yerda tarixiy mavzelar joylashgan hududlarda keng magistrallar va ko‘p qavatli binolar paydo bo‘la boshladi.

Davrlar o‘tishi bilan darvozalar ramziy tarzda shaharlar hududi markazlarida saqlanib qoldi. Afsuski, Toshkent shahar darvozalaridan birortasi ham saqlanib qolmagan. Shu bois, bugungi kunda ilmiy izlanishlar asosida ilgari mavjud bo‘lgan Toshkentning mashhur qal’a darvozalarining ko‘rinishini tiklashga harakat qilish muhim ahamiyatga ega.

**11.** (Bilish – 4 ball) Matn mazmunida aks etgan ma’lumot berilgan javob(lar)ni aniqlang.

A) Uzoq yo‘ldan charchab kelgan karvon shahar darvozasi oldida to‘xtab yuklarini tushirgan va shaharga kirish uchun hujjatlashtirish ishlarini olib borgan.

B) Shahar to‘rt tomondan g‘ishtli devor bilan o‘ralgan bo‘lib, 32 ta minorali darvozalari bo‘lgan.

C) Toshkentni asosiy 8 ta yo‘l kesib o‘tgan bo‘lib, ular asosiy savdo yo‘llari hisoblangan.

D) Toshkent savdogarlari Xitoy bilan savdo-sotiqni yo‘lga qo‘ygani sabab bu yerdan tinimsiz savdo karvonlari o‘tib turgan.

E) Darvozaxonalar ustidagi maxsus qorovulxonalarda xavf-xatar sezilgan vaqtda do‘mbiralar chalinib xaloyiq ogohlantirilgan.

**Javob:**

--	--	--	--	--

**12.** (Qo‘llash – 6 ball) Matn qismlari o‘rtasidagi mazmuniy bog‘liqliklarga e’tibor qiling va qaysi qismda takroriy fikr mavjudligini aniqlang.

- A) IV qismda takrorlangan
- B) II qismda takrorlangan
- C) III qismda takrorlangan
- D) I qismda takrorlangan

**Javob:**

**13.** (Mulohaza – 8 ball, qisqa javobli) Ushbu matndan keltirilgan gaplardan qaysilari fakt hisoblanadi?

1. Toshkentning har 12 darvozasi ham katta yo‘l ustida qurilgan.
2. Darvozalar mustahkam, qattiq yog‘och – tog‘ archasidan yasalgan va ust tomoniga naqshinkor bezaklar berilgan.
3. XIX asrda Toshkent darvozalari soni 12 taga yetgan.
4. XVIII asrda shahar darvozarining soni 8 ta bo‘lgan.
5. Toshkent tabiiy ravishda markazda joylashgan bozor atrofidan har tomonga kengaya borgan.

**Javob:**

**14.** (Mulohaza – 13 ball. Kengaytirilgan)

Nima uchun qadimiy shaharlar atrofida mudofaa devorlari va darvozalar qurilgan deb o‘ylaysiz?

Toshkent darvozarining bugungi kungacha saqlanib qolmasligiga qanday omillar sabab bo‘lishi mumkin?

Agar qadimiy darvozalar saqlanib qolganida, bugungi Toshkent shahrining turizm rivojiga qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkin edi?

Fikrlaringizni 80 – 100 ta so‘z bilan ifodalang.

**Javob:**

---

---

---

---

---

---

---

---

---

**15.** (Mulohaza – 13 ball, kengaytirilgan)

Sizningcha, Toshkentning qadimiy darvozarini tarixiy manbalar asosida qayta tiklash yoki ularning ramziy nusxalarini barpo etish uchun qanday aniq choralar ko‘rish mumkin? Taklif qilgan yechimingiz shahar tarixi va turizm rivojiga qanday foyda keltirishi mumkinligini izohlang.

Fikrlaringizni 80 – 100 ta so‘z bilan ifodalang.

**Javob:**

---

---

---

---

---

---

---

---

### **3-MATN (ona tili)**

#### **Ilmiy-ommabop matn**

11 – 15-savollar matn asosida bajariladi.

#### **TESKARI TUSHGAN TOVUSHLAR**

##### **I**

Bolalik kunlarimdan unutilmas xotira bo‘lib dil tubiga cho‘kkan quvonch lahzalaridan biri uyimizga patefon kelgani edi. O‘sha patefondan eshitgan qo‘shiqlarim hamon qulog‘imdan ketmaydi. Lutfixonim Sarimsoqova maromiga yetkazib aytgan katta ashulani unutmayman: *Xulqi xush yo‘q sen kabi jonona, aynalsin quling*. Qo‘shiq aynan shunday aytilgan edi. *Aylansin emas, aynalsin quling!* Farg‘onada *aynalay* degan so‘zni har kun eshitganim uchun menga u erish tuyilmagan. Aksincha, Toshkentga kelib, ayollarning *aylanay* degani meni hayron qilgan edi. Keyinchalik Furqatning o‘sha g‘azalini topib o‘qiganimda yana ajablandim. Bu so‘z hozirgi imlo qoidasiga ko‘ra *aylansin quling* tarzida yozilgan. Lekin qo‘qonlik Furqat o‘zi qanday yozgan va aslida qaysi shakl to‘g‘ri?

##### **II**

Ogahiyning bir g‘azali shunday boshlanadi:

*Yuzing ochkim, quyosh sadqang bo‘lib boshingdan aylansin*

*Yangi oy yuz tavoze ko‘rguzib qoshingdan aylansin.*

Mumtoz she‘riyatimizning nodir namunasi bo‘lgan bu g‘azalni ko‘p hofizlarimiz turli ohangda ijro etganlar. Toshkentlik Orif Alimahsumov *aylansin* deb aytgan bo‘lsa, farg‘onalik Alijon Erkayev *aynalsin* shaklida ijro etgan. Toshkentlik ayollarning *aylanay* deyishi ham meni hayron qoldirgan edi. Yana savol: qay biri

to'g'ri? Biz turli shevalarda turlicha aytamiz. Buxoroda *aylonayin*, Xorazmda *aynanayin*, vodiya *aynalay* deyiladi. Aslida qanday ekanini Hazrat Navoiydan so'raymiz. Javob shunday:

*Muztarib ko'nglim aro ul yuz xayoli aylanur,*

*Mavjlig' suda quyosh aksi nechukkim chayqalur.*

### III

Tilimizda bu kabi tovush almashgan so'zlar ko'p. Almashuvning bir turi aytish qiyin bo'lgani uchun majburiyat yuzasidan sodir bo'lgan. *Kift, qulf, avf, bo'yra, kiprik* so'zlari aslida *kitf, qufl, afv, bo'ryo, kirpik* bo'lgan. *Yomg'ir* aslida *yog'mur*. *Yog'mak, yog'in* shu o'zakdan. Aytish oson bo'lsin uchun *yomg'irga* aylandi. *Tuproqni* ham qulaylik yuzasidan *turpoq* deymiz. Lekin ko'pgina tovush almashuvi, yozuvda harf almashuvi ixtiyorsiz, yana ham to'g'rirog'i, so'zga e'tiborsizlikdan yuz beradi. *Saltanat* ismining *Santalatga, Maryamxonning Mayramxonga, Nazrullaning Narzullaga* aylanib qolgani bunga misol bo'ladi. *Sumalakni* turkistonlik o'zbeklar *sulamak* deydilar.

### IV

Tilimizda *o'rgilay* degan so'z bor. *Aylanay* ma'nosida. Lekin aslida *o'grilay* bo'lishi kerak. Chunki orqaga qaraganda biz *o'rgilmaymiz*, balki *o'girilamiz*. *Aylanish* va *o'grilish* bir mazmunli so'zlar. Lekin *o'grilish* demakka til qovushmaydi, shu bois bu so'z bir shevada *o'rgilish*, yana bir shevada *o'vrilish, evrilish* bo'lgan. *O'g'rilik* so'zi ham shunday. U ham ikki tovush o'rin almashib *o'g'irlikka* aylandi. Bu noto'g'ri. *O'g'ir* – don-dun maydalaydigan uzun yog'och hovon. Uni *keli* deb ham aytamiz. O'g'irlik qilish o'g'ir vazifasini bajarish, tuyish, yanchish bo'ladi. Afsuski, o'g'irlik lug'atlarimizga kirib qonunlashdi. Agar o'g'irlikni o'g'irlik desak, to'g'irlikni ham to'g'irlik deyishimiz kerak bo'ladi.

Siz bu fikrga shubha qilishingiz tayin. To'g'ri qilasiz. Ishtiboh yo'q yerda tafakkur yo'q.

*Erkin Vohidov*

**11.** (Bilish – 4 ball) Matnda aks etgan ma'lumot berilgan javob(lar)ni aniqlang.

- A) So'zlarda sodir bo'lgan tovush almashuvi uning mazmuniga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi.
- B) Tovush almashish hodisasi atoqli otlar tarkibidagi shaxs nomlarida sodir bo'lgan.
- C) Adabiyotimizning yetuk namoyandalari ham ayrim so'zlarning yozilishida xatoliklarga yo'l qo'yishgan.
- D) Ayrim chet tilidan o'zlashgan so'zlarning talaffuzi qiyin bo'lganligi bois ularning nutqda o'zgarishi kuzatiladi.
- E) Hofizlarimiz g'azallarni kuyga solib ijro etishda ayrim so'zlarning shevaga xos variantidan foydalanishgan.

**Javob:**

--	--	--	--	--

12. (Qo‘llash – 6 ball) Matn qismlari o‘rtasidagi mazmuniy bog‘liqliklarga e‘tibor qiling va qaysi qismda takroriy fikr mavjudligini aniqlang.

- A) II qismda takrorlangan
- B) I qismda takrorlangan
- C) IV qismda takrorlangan
- D) III qismda takrorlangan

**Javob:**

13. (Mulohaza – 8 ball, qisqa javobli) Ushbu matndan keltirilgan gaplardan qaysilari fakt hisoblanadi?

1. Kift, qulf, avf, bo‘yra, kiprik so‘zlari aslida kitf, qufl, afv, bo‘ryo, kirpik bo‘lgan.
2. Bu so‘z hozirgi imlo qoidasiga ko‘ra *aylansin quling* tarzida yozilgan.
3. Agar o‘g‘rilikni o‘g‘irlik desak, to‘g‘rilikni ham to‘g‘irlik deyishimiz kerak bo‘ladi.
4. O‘g‘ir – don-dun maydalaydigan uzun yog‘och hovon.
5. *Sumalak*ni turkistonlik o‘zbeklar *sulamak* deydilar.

**Javob:**

--	--	--	--	--

14. (Mulohaza – 13 ball, kengaytirilgan)

Ismlarning noto‘g‘ri shaklga o‘zgarib ketishi (Saltanat – Santalat, Maryamxon – Mayramxon) qanday ijtimoiy yoki til omillari natijasida yuz berishi mumkin?

Matn oxirida muallif “Ishtiboh yo‘q yerda tafakkur yo‘q” deydi. Bu fikr matnning asosiy g‘oyasi bilan qanday bog‘liq?

Agar so‘zlarga e‘tiborsizlik davom etsa, kelajakda tilimizda qanday o‘zgarishlar yuz berishi mumkin?

Fikrlaringizni 80 – 100 ta so‘z bilan ifodalang.

**Javob:**

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

**15. (Mulohaza – 13 ball, kengaytirilgan)**

Soʻzlarning notoʻgʻri talaffuzi va yozilishi keng tarqalib ketmasligi uchun ommaviy axborot vositalari va ijodkorlar qanday masʼuliyatni oʻz zimmasiga olishi kerak deb oʻylaysiz?

Shevalarda turlicha aytiladigan soʻzlarning adabiy til meʼyorini saqlab qolish uchun qanday takliflar bera olasiz?

Fikrlaringizni 80 – 100 ta soʻz bilan ifodalang.

**Javob:**

---

---

---

---

---

---

---

---

**4-MATN (ona tili)**

**Ilmiy-ommabop matn**

11 – 15-savollar matn asosida bajariladi.

**EI EGASIZ BOʻLMAS, TOʻN – YOQASIZ**

**I**

Toʻn – oldi ochiq uzun ustki kiyim boʻlib, Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” asarida ham bu nomning keltirilganligi uning qadimdan mavjud ekanligidan dalolat beradi. “Toʻn” soʻzi turkiy tillarda nihoyatda keng tarqalgan kiyim nomi boʻlib, tatar tilida ton, turk tilida don – toʻn, etik, oyoq kiyimi, qirgʻiz tilida esa ayollarning yozgi ust kiyimi maʼnosini ifodalashi qayd etilgan. Bu soʻzning turli xil kiyim nomlarini anglatishi uning xomashyoga koʻra nomlanganini taxmin qilishimizga asos boʻladi. Baʼzi tahlillar shuni koʻrsatadiki, toʻn soʻzi “teri” maʼnosini anglatgan.

**II**

Oʻzbek madaniyatida toʻn kiyim ustidan kiyiladigan, ichiga paxta solib qavilgan uzun milliy kiyim boʻlib, alohida qiymatga ega. Chunki oʻzbeklarning koʻpgina urf-odat va marosimlarida, xususan, oʻgʻil chaqaloqqa bagʻishlab oʻtkaziladigan beshik toʻyi marosimida, koʻpincha xonadonning katta yoshli vakillari tomonidan chaqaloqqa zarbof choponcha kiydirib qoʻyiladi. Toʻy marosimlarida

kelin xonadoni tomonidan yuboriladigan sarpolarda to‘n yuboriladi. Motam marosimlarida azali xonadonning erkak a‘zolari chopon (to‘n) kiyadilar. Bundan shu narsa aniq bo‘ladiki, o‘zbek madaniyatida chopon (to‘n) inson tug‘ilganidan so‘ng hayotining barcha onlarida unga hamrohlik qiladi.

### III

To‘nning yozda issiqdan asrashi va qishda sovuqdan himoyalashdagi eng qulay ustki kiyim ekanligi ham o‘zbek madaniyatida bu kiyimning o‘rnini qat‘iylashtiradi. Yoqa to‘n uchun eng zaruriy qism hisoblanadi, beqasamdan va boshqa matolardan to‘n tikilganda yoqasiga paxta solmay yoxud boshqa joyiga nisbatan juda yupqa qilib paxta solib, mayda qilib, qayta-qayta qavib tikish orqali yoqa qotiriladi. Ko‘p ishlov berilgan to‘n yoqasi boshqa qismlariga nisbatan juda mustahkam bo‘lib, kiyim eskirib, hammayog‘i yirtilib ketsa ham, yoqasi butun qoladi.

### IV

To‘n yoqasi boshqa qismlariga nisbatan juda mustahkam bo‘ladi. Kiyim eskirib, hammayog‘i yirtilib ketsa ham, yoqasi butun qoladi. Maqolda to‘n yoqasining shu xususiyatga egaligi muhim sanalgani kabi el-yurtda yaxshi tarbiyalangan, sog‘lom, bilimli rahbarning bo‘lishi zaruriy shart qilib ko‘rsatilgan. Maqollar shu tilda so‘zlashuvchi xalqning madaniyatini, an‘analari va tarixini, milliy o‘zligi va o‘ziga xosligini namoyon qiluvchi qimmatli merosdir. Ularning tili va mazmunini tahlil qilish uni yaratuvchi xalqning qarashlari, qadriyatlari va madaniyatini o‘rganishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

**11.** (Bilish – 4 ball) Matnda aks etgan ma’lumot berilgan javob(lar)ni aniqlang.

- A) Hayotimiz davomida bizga hamrohlik qiluvchi to‘n yozda issiqdan, qishda sovuqdan himoyalaydi.
- B) Ko‘p qavilishi natijasida to‘n yoqasi boshqa qismlariga nisbatan juda mustahkam bo‘ladi.
- C) Faqat motam marosimlaridagina azali xonadonning erkaklari chopon (to‘n) kiyadilar.
- D) O‘g‘il chaqaloqqa bag‘ishlab o‘tkaziladigan beshik to‘yi marosimida bolaning ota-onasiga zarbof chopon hadya qilinadi.
- E) Turli matolardan tikilgan to‘n barining orqa qismiga doim chevarning ismi yoziladi.

**Javob:**

--	--	--	--	--

**12.** (Qo‘llash – 6 ball) Matn qismlari o‘rtasidagi mazmuniy bog‘liqliklarga e’tibor qiling va qaysi qismda takroriy fikr mavjudligini aniqlang.

- A) II qismda takrorlangan
- B) I qismda takrorlangan
- C) IV qismda takrorlangan

D) III qismda takrorlangan

**Javob:**

**13.** (Mulohaza – 8 ball, qisqa javobli) Ushbu matndan keltirilgan gaplardan qaysilari fakt hisoblanadi?

1. Maqollar shu tilda so‘zlashuvchi xalqning o‘ziga xosligini namoyon qiladi.
2. “To‘n” so‘zi turk tilida don – to‘n, etik, oyoq kiyimi ma’nosida qo‘llanadi.
3. To‘nning yoqa qismi boshqa qismlariga nisbatan juda mustahkam tikiladi.
4. Qirg‘iz tilida “To‘n” so‘zi ayollarning yozgi ust kiyimi ma’nosini ifodalaydi.
5. “To‘n” so‘zi Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida mavjud.

**Javob:**

**14.** (Mulohaza – 13 ball, kengaytirilgan)

To‘nning o‘zbek madaniyatida tug‘ilishdan tortib turli marosimlarda qo‘llanishi qanday sabablar bilan izohlanadi va bu holat qanday ma’naviy ahamiyatga ega?

To‘n yoqasining mustahkamligi haqidagi fikr maqol mazmuni bilan qanday bog‘langan va bu orqali qanday hayotiy g‘oya ifodalangan?

Fikrlaringizni 80 – 100 ta so‘z bilan ifodalang.

**Javob:**

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

**15.** (Mulohaza – 13 ball, kengaytirilgan)

Milliy qadriyatlar va maqollarning mazmunini chuqur anglash jamiyat tarbiyasiga qanday ta’sir qiladi va bu qadriyatlarni mustahkamlash uchun qanday tashabbuslarni ilgari surish mumkin?

Agar maqollarda ifodalangan g‘oyalar bugungi jamiyatda yetarli darajada qo‘llanmayotgan bo‘lsa, ularni hayotga tatbiq etish uchun qanday yechimlarni taklif qilgan bo‘lardingiz?

Fikrlaringizni 80 – 100 ta so‘z bilan ifodalang.

**Javob:**



olimlarga shishadan quti yasatib, suv ichidagi baliqlar hayotini o‘rganishi – suvosti kemasining xayoliy chizmalari sifatida talqin qilinadi. Agar Navoiy “Xamsa”da ilgari surgan barcha ilmiy kashfiyotlar tadqiq qilinsa, shoirning yaxshigina olim-u kashfiyotchi ekanligiga shubha qolmaydi.

#### IV

Navoiy “Xamsa”si juda qisqa vaqtda yaratilgan bo‘lsa-da, dostonlarning puxta tuzilgani, voqea-hodisalarning izchil rivojlanishi, asar qahramonlarining har bir xatti-harakati, ichki olami ijtimoiy va ruhiy jihatdan asoslanganligi diqqatga sazovordir.

Navoiy qahramonlari asrlar davomida necha-necha avlodlar uchun odob-axloq va odamiylikda, xalqparvarlik va jasoratda o‘rnak bo‘ladigan yorqin badiiy siymolardir. Shoirning bu shoh asari mana besh asrki, hali ochilmagan qo‘riq, bag‘rida dur-u javohirlarni yashirgan sirli xazinadir. Kelajak avlod yana yuzlab yillar davomida bu xazinadan bahramand bo‘ladi, undagi qahramonlar hayotini o‘zlari uchun dasturilamal qiladilar.

**11.** (Bilish – 4 ball) Matnda aks etgan ma’lumot berilgan javob(lar)ni aniqlang.

- A) Abdurahmon Jomiyning asari besh emas yetti dostonidan iborat bo‘lib, “Haft avrang” deb nomlangan.
- B) Navoiyning “Xamsa” asaridagi dostonlarning mukammal nasriy matnlari tuzilib keng tirajda nashr qilingan.
- C) Iskandar devorining qurilishi “Xamsa”da ilgari surilgan ilmiy kashfiyotlardan biri sifatida aks etgan.
- D) Navoiy “Xamsa”sidagi o‘nlab ilmiy ixtirolar shoirning kashfiyotchiligidan dalolat.
- E) Navoiy nazdida Xusrav ham shoh, ham komil inson – haqiqiy ishq sohibi bo‘la olmas edi.

**Javob:**

**12.** (Qo‘llash – 6 ball) Matn qismlari o‘rtasidagi mazmuniy bog‘liqliklarga e’tibor qiling va qaysi qismda takroriy fikr mavjudligini aniqlang.

- A) III qismda takrorlangan
- B) IV qismda takrorlangan
- C) I qismda takrorlangan
- D) II qismda takrorlangan

**Javob:**

**13.** (Mulohaza – 8 ball, qisqa javobli) Ushbu matndan keltirilgan gaplardan qaysilari fakt hisoblanadi?

- 1. Navoiy “Xamsa”si ikki yarim yil davomida yozilgan.
- 2. Navoiy “Xamsa”sida Farhod, boshqa xamsalarda Xusrav asosiy obraz sanaladi.
- 3. Navoiy “Xamsa”sining o‘ziga xos jihatlaridan biri dostonlarda ilmiy timsollarning mavjudligidir.
- 4. Xamsanavislik buyuk ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviydan boshlangan.
- 5. Navoiy “Xamsa”ni boshqa xamsanavislardan farqli o‘laroq turkiy tilda bitgan.

**Javob:**

--	--	--	--	--

**14.** (Mulohaza – 13 ball, kengaytirilgan)

Navoiy “Xamsa”sining asrlar davomida qadrlanib kelishining asosiy sabablari nimada?

Navoiy dostonlarida ilmiy timsollar va kashfiyotlarga o‘xshash tasvirlarning berilishi shoirning dunyoqarashi va bilim darajasi haqida qanday xulosaga olib keladi?

Fikrlaringizni 80 – 100 ta so‘z bilan ifodalang.

**Javob:**

---

---

---

---

---

---

---

---

**15.** (Mulohaza – 13 ball, kengaytirilgan)

Sizningcha, Navoiy “Xamsa”sini zamonaviy avlodga yanada tushunarli va qiziqarli qilish uchun adabiyot, kino, teatr yoki raqamli texnologiyalar orqali qanday tashabbuslarni amalga oshirish mumkin?

Navoiy qahramonlari komil inson timsoli sifatida tasvirlangan. Bugungi jamiyatda yoshlarni shunday fazilatlarga ega qilib tarbiyalash uchun qanday amaliy choralar ko‘rish mumkin?

Fikrlaringizni 80 – 100 ta so‘z bilan ifodalang.

**Javob:**

---

---

---

---

---

---

---

---

## **6-MATN (ona tili)**

### **Ilmiy-ommabop matn**

11 – 15-savollar matn asosida bajariladi.

### **KALTAMINOR**

#### **I**

Hozirda Ko‘hna Xiva shahrini bu me‘moriy yodgorliksiz tasavvur qilish qiyin. Kaltaminor Xiva shahridagi Ichan qal‘a hududida joylashgan bo‘lib, shahar ramziy belgisi sifatida tan olingan. U 1990-yilda YUNESKOning Butunjahon merosi obyektlari ro‘yxatiga kiritilgan. 1996-1997-yillarda yodgorlik Xiva shahrining 2500 yilligi arafasida ta‘mirlangan. XIX asrning betakror naqsh va yozuvlari qayta tiklangan, bu esa minoraga o‘zining mahobatli qiyofasini qaytargan. Uning o‘lchami va noyob bezaklari kishini hayratga solmasdan qo‘ymaydi.

#### **II**

Kaltaminor Muhammad Aminxon madrasasining old tomonida joylashgan va ba‘zan uning bir qismi deya e‘tirof etiladi. O‘zbekistondagi eng baland o‘rta asr minoralari ichida 6-o‘rinda turadi. Minoraning ikkinchi qavatidan boshlab madrasa bilan bog‘langan ko‘prikcha orqali yuqoriga chiqish mumkin. Ichkarisida yuqoriga olib chiquvchi yog‘och zinapoya mavjud. Bu zinapoya tez-tez ta‘mir lab turilgan. Minora poydevori 15 metr chuqurlikda joylashgan, uning diametri 14,5 metrni, balandligi 29 metrni tashkil qiladi. Minora kesik konus shaklida. Dinamik qisqarishiga qarab xulosa qilinsa, bitganidan so‘ng uning balandligi 100 metrga yetib, O‘rta Osiyodagi eng katta va baland minora bo‘lishi mumkin edi. Ammo minoraning qurilishi oxiriga yetkazilmagan, u xuddi bahaybat sirli bochkaga o‘xshab qolgan. Shunga ko‘ra unga “Kalta minora” deb nom berilgan.

#### **III**

U tashqi tomoni sirlangan koshin mozaika va mayolika bilan qoplangan yagona minoradir. Koshinlarida to‘q yashil, ko‘k va oq ranglar ustunlik qiladi, ba‘zi naqshlar firuza rangga ega. Quyosh nuri har qanday jism rangini o‘zgartiradi, ya‘ni oqartiradi yoki ochiq tusga kirgizadi. Bu holat minorada sezilmaydi. Mana qancha vaqt o‘tgan bo‘lsa ham xuddi yangi qurilganday saqlanib turibdi. Minora tashqi devorlarida faqat fors tilida ishlatiladigan harfdan iborat qayta tiklangan yozuvlar mavjud. Minora qurilishi 1852-yilda boshlanib, balandligi 29 metrga yetgach, birdan to‘xtatiladi. Dinamik qisqarishiga qarab xulosa qilinsa, bitganidan so‘ng uning balandligi 100 metrga yetib, O‘rta Osiyodagi eng katta va baland minora bo‘lishi mumkin edi. Xivalik tarixchi va yozuvchi Ogahiyning yozishicha, qurilish tashabbuskori Muhammad Aminxon 1855-yilda Seraxs yaqinidagi jangda halok bo‘lgani sababli qurilish tugallanmagan.

#### **IV**

Xalq orasida Kaltaminor bilan bog‘liq ko‘plab afsonalar uchraydi. Ulardan biriga ko‘ra, Xiva xoni tepasidan Buxoroyi azim ko‘rinib turadigan ulkan va baland minora qurishni buyuradi. Bundan xabar topgan Buxoro amiri ustalar bilan kelishib, Buxoroda ham shunday minorani bunyod etishni rejalashtiradi. Buni sezib qolgan Xiva xoni minora bitgandan keyin ustalarni minoradan tashlashni buyuradi. Xon

bunday minora boshqa joyda takrorlanishini istamasdi. Ustalar bu haqda bilib qolgach, xonning buyrug‘i haqida g‘ishtga yozib, tepada ishlayotgan Katta ustaga yetkazishadi. U esa o‘limdan qutulib qolish uchun o‘ziga qanot yasab uchib ketgan, shu sababli minora oxirigacha qurilmasdan qolib ketgan, deyishadi.

Shunday qilib, afsonaviy minora hali-hanuz sayyohlar diqqatini o‘ziga tortib kelmoqda.

**11.** (Bilish – 4 ball) Matnda aks etgan ma’lumot berilgan javob(lar)ni aniqlang.

- A) Kaltaminor qurilganidan buyon qariyb ikki asrga yaqin vaqt o‘tdi.
- B) Kaltaminor Yer sayyorasida qurilishi yakunlanmay qolgan yagona yodgorlikdir.
- C) Minora xivalik shoir, tarixchi va davlat arbobi Muhammad Rizo Ogahiy boshchiligida qurilgan.
- D) Minoraning qurilishi tugallanmaganligi bois unga “Kalta minora” deb nom berishgan.
- E) Kaltaminorday minora boshqa hech qayerda qurilmasligi uchun uning bosh quruvchisi qatl etilgan.

**Javob:**

--	--	--	--	--

**12.** (Qo‘llash – 6 ball) Matn qismlari o‘rtasidagi mazmuniy bog‘liqliklarga e’tibor qiling va qaysi qismda takroriy fikr mavjudligini aniqlang.

- A) III qismda takrorlangan
- B) IV qismda takrorlangan
- C) II qismda takrorlangan
- D) I qismda takrorlangan

**Javob:**

--

**13.** (Mulohaza – 8 ball, qisqa javobli) Ushbu matndan keltirilgan gaplardan qaysilari fakt hisoblanadi?

1. Minora qurilishi bitgach, O‘rta Osiyodagi eng baland minora bo‘lishi mumkin edi.
2. Minora O‘zbekistondagi eng baland o‘rta asr minoralari ichida 6-o‘rinda turadi.
3. Minora XIX asr o‘rtalarida qurila boshlangan.
4. Yodgorlik Xiva shahrining 2500 yilligi arafasida qayta ta‘mirlangan.
5. Minoraning balandligi 29 metrni tashkil qiladi.

**Javob:**

--	--	--	--	--

**14.** Mulohaza – 13 ball, kengaytirilgan)



## **7-MATN (ona tili)**

### **Ilmiy-ommabop matn**

11 – 15-savollar matn asosida bajariladi.

### **KALTAMINOR**

#### **I**

Hozirda Ko‘hna Xiva shahrini bu me‘moriy yodgorliksiz tasavvur qilish qiyin. Kaltaminor Xiva shahridagi Ichan qal‘a hududida joylashgan bo‘lib, shahar ramziy belgisi sifatida tan olingan. U 1990-yilda YUNESKOning Butunjahon merosi obyektlari ro‘yxatiga kiritilgan. U O‘zbekistondagi eng baland o‘rta asr minoralari ichida 6-o‘rinda turadi. 1996-1997-yillarda yodgorlik Xiva shahrining 2500 yilligi arafasida ta‘mirlangan. XIX asrning betakror naqsh va yozuvlari qayta tiklangan, bu esa minoraga o‘zining mahobatli qiyofasini qaytargan.

#### **II**

Kaltaminor Muhammad Aminxon madrasasining old tomonida joylashgan va ba‘zan uning bir qismi deya e‘tirof etiladi. U O‘zbekistondagi eng baland o‘rta asr minoralari ichida 6-o‘rinda turadi. Minoraning ikkinchi qavatidan boshlab madrasa bilan bog‘langan ko‘prikcha orqali yuqoriga chiqish mumkin. Ichkarisida yuqoriga olib chiquvchi yog‘och zinapoya mavjud. Bu zinapoya tez-tez ta‘mir lab turilgan. U tashqi tomoni sirlangan koshin mozaika va mayolika bilan qoplangan yagona minoradir. Uning o‘lchami va noyob bezaklari kishini hayratga solmasdan qo‘ymaydi. Koshinlarida to‘q yashil, ko‘k va oq ranglar ustunlik qiladi, ba‘zi naqshlar firuza rangga ega. Quyosh nuri har qanday jism rangini o‘zgartiradi, ya‘ni oqartiradi yoki ochiq tusga kirgizadi. Bu holat minorada sezilmaydi. Mana qancha vaqt o‘tgan bo‘lsa ham xuddi yangi qurilganday saqlanib turibdi. Minora tashqi devorlarida faqat fors tilida ishlatiladigan harfdan iborat qayta tiklangan yozuvlar mavjud.

#### **III**

Minora poydevori 15 metr chuqurlikda joylashgan, uning diametri 14,5 metrni, balandligi 29 metrni tashkil qiladi. Minora kesik konus shaklida. Dinamik qisqarishiga qarab xulosa qilinsa, bitganidan so‘ng uning balandligi 100 metrga yetib, O‘rta Osiyodagi eng katta va baland minora bo‘lishi mumkin edi. Ammo minora qurilishi oxiriga yetmay qolganligi sababli, u xuddi bahaybat sirli bochkaga o‘xshab qolgan. Shunga ko‘ra unga “Kalta minora” deb nom berilgan. Xivalik tarixchi va yozuvchi Ogahiyning yozishicha, minora qurilishi 1852-yilda boshlanib, qurilish tashabbuskori Muhammad Aminxon 1855-yilda Seraxs yaqinidagi jangda halok bo‘lgani sababli tugallanmay qolgan.

#### **IV**

Xalq orasida Kaltaminor bilan bog‘liq ko‘plab afsonalar uchraydi. Ulardan biriga ko‘ra, Xiva xoni tepasidan Buxoroyi azim ko‘rinib turadigan ulkan va baland minora qurishni buyuradi. Bundan xabar topgan Buxoro amiri ustalar bilan kelishib, Buxoroda ham shunday minorani bunyod etishni rejalashtiradi. Buni sezib qolgan Xiva xoni minora bitgandan keyin ustalarni minoradan tashlashni buyuradi. Xon bunday minora boshqa joyda takrorlanishini istamasdi. Ustalar bu haqda bilib

qolgach, xonning buyrug‘i haqida g‘ishtga yozib, tepada ishlayotgan Katta ustaga yetkazishadi. U esa o‘limdan qutulib qolish uchun o‘ziga qanot yasab uchib ketgan, shu sababli minora oxirigacha qurilmasdan qolib ketgan, deyishadi.

Shunday qilib, afsonaviy minora hali-hanuz sayyohlar diqqatini o‘ziga tortib kelmoqda.

11. (Bilish – 4 ball) Matnda aks etgan ma’lumot berilgan javob(lar)ni aniqlang.

- A) Minora ichidagi yog‘och zinapoya tez-tez ta’mir lab turilgan.
- B) Kaltaminorning bosh ustasi xonning g‘azabiga uchrab, qatl etilgan.
- C) Minoraga quyosh nurlari tik tushganligi sababli koshinlardagi yozuvlar asl rangini yo‘qotgan.
- D) Qurilish tashabbuskori Muhammad Aminxon jangda halok bo‘lgani sabab minora bitmay qolgan.
- E) Afsonaga ko‘ra, minoraning bosh ustasi Xiva malikasiga ko‘ngil qo‘ygani uchun xon tomonidan qatl etilgan.

**Javob:**

12. (Qo‘llash – 6 ball) Matn qismlari o‘rtasidagi mazmuniy bog‘liqliklarga e’tibor qiling va qaysi qismda takroriy fikr mavjudligini aniqlang.

- A) II qismda takrorlangan
- B) III qismda takrorlangan
- C) IV qismda takrorlangan
- D) I qismda takrorlangan

**Javob:**

13. (Mulohaza – 8 ball, qisqa javobli) Ushbu matndan keltirilgan gaplardan qaysilari fakt hisoblanadi?

- 1. Minora YUNESKOning Butunjahon merosi obyektlari ro‘yxatiga kiritilgan.
- 2. Minorada XIX asrning betakror naqsh va yozuvlari qayta tiklangan.
- 3. Minoraning poydevori 15 metr chuqurlikda joylashgan.
- 4. Minoraning koshinlarida to‘q yashil, ko‘k va oq ranglar ustunlik qiladi.
- 5. Afsonaga ko‘ra, katta usta o‘ziga qanot yasab uchib ketgan.

**Javob:**

14. (Mulohaza – 13 ball, kengaytirilgan)

Qurilishning to‘xtab qolishi va minoraning “Kalta minora” deb atalishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni izohlang. Matnga tayangan holda qurilishi oxirigacha tugallanmagan

minoraning bugungi kunda sirli va afsonaviy obyekt sifatida qadrlanish sababi va oqibatlarini tahlil qiling.

Fikrlaringizni 80 – 100 ta so‘z bilan ifodalang.

**Javob:** \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

**15.** (Mulohaza – 13 ball, kengaytirilgan)

Agar siz o‘sha davr me‘mori yoki mas‘ul shaxs bo‘lganingizda, minoraning qurilishini davom ettirish yoki uni saqlab qolish uchun qanday yechimlar taklif qilgan bo‘lardingiz? Kamida 2 ta aniq taklif yozing.

Fikrlaringizni 80 – 100 ta so‘z bilan ifodalang.

**Javob:** \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

## **8-MATN (ona tili)**

### **Ilmiy-ommabop matn**

11 – 15-savollar matn asosida bajariladi.

### **TOG‘LAR**

#### **I**

Yer yuzasining tekisliklaridan yakka yoki qator bo‘lib ko‘tarilib turgan baland joylari tog‘lar deyiladi. Tog‘lar turli yo‘nalishda, har xil masofada to‘g‘ri chiziq yoki yoysimon shaklda cho‘zilgan bo‘ladi. Tog‘larning balandligi dengiz sathidan bir necha km gacha ko‘tarilgan bo‘ladi. Tog‘li joylarda tizmalar, yakka tog‘lar, vodiylar, keng soyliklar ham mavjud bo‘ladi. Tog‘ tizmalari har ikki tomondagi yon bag‘irlari tik bo‘lgan, uzunasiga cho‘zilgan yirik relyef shakllaridir. Tog‘lar bugungi kunda

dunyo landshaftining beshdan birini tashkil qiladi va dunyo aholisining o'ndan bir qismini uy bilan ta'minlaydi.

## II

Tog'larning balandligi dengiz sathidan bir necha km gacha ko'tarilgan bo'ladi. Masalan, Yer sharining eng baland nuqtasi Himolay tog'idagi Jomolungma (Everest) cho'qqisining balandligi 8848 m. Tog' relyefi o'ziga xos bo'lib, u tik, muzlik hosil qiluvchi qirlar, piramidasimon cho'qqilar, o'tkir qirrali tog' tepalari, tog'orasimon vodiylardan iborat bo'ladi. Bunday tuzilishdagi tog'larga Kavkaz, Pomir, Tyanshan, Himolay, Alp, Kordilyera tog'larini misol qilish mumkin.

Olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, hatto dengizlar tubida ham tog'lar mavjud, shuningdek, quruqlikka qaraganda okeanlarda ularni ko'proq uchratish mumkin. Ba'zi orollar suvdan chiqadigan tog'larning cho'qqilaridir.

## III

Tog'lar 3 turga, ya'ni tektonik, erozion va vulkanik turlarga bo'linadi. Tektonik tog'lar Yer plitalarining o'zaro kuchli urilishi, siljishi va birikishidan ko'tariladi. Cho'qqilari tik va baland, tizmalari uzun va yoysimon bo'ladi. Bunday tog'lar asosan yosh tog'lar sanalib, ularda zilzilalar tez-tez sodir bo'ladi. Himolay va Alp tog'lari shular jumlasidandir.

Vulkanik tog'lar yer ostidagi vulqonlar otilishi natijasida yuzaga ko'tarilib chiqqan lava qatlamlarining keyinchalik qotishidan hosil bo'ladi, odatda shakli konussimon va cho'qqisida krateri (og'iz) bo'ladi. Bunday tog'larga Fudziyama, Vezuviy, Etna va Klimanjanolarni misol qilish mumkin.

Eroziyon tog'lar uzoq vaqt davomida suv, shamol, muzliklar yoki boshqa tashqi kuchlar ta'sirida yemirilib shakllangan tog'lardir. Avval baland va yaxlit bo'lgan tog' jinslari vaqt o'tishi bilan yemiriladi, parchalangan holda pastlab boradi. Natijada, qirrali, g'ovak, notekis shaklli tog'lar hosil bo'ladi. Ularning cho'qqilari yumaloq yoki yemirilgan bo'lib, tik cho'qqilar kam uchraydi, daryo vodiylari, jarliklar ko'p bo'ladi, ko'pincha qadimgi tog' tizmalari hisoblanadi. Bularga Ural va Appalachi tog'lari kiradi.

## IV

Tog'lar tabiatdagi eng go'zal joylardan biridir. Olimlar yaqin-yaqingacha ularning vazifalarini bilishmasdi. Ilm-fan taraqqiy etganidan so'ng ularning bir qancha vazifalari borligi aniqlandi. Jumladan, tog'lar o'zining shakli va yer ostiga chuqur kirib borgan sababli, yer qatlamlari surilib ketishining oldini olib, qoziq sifatida ularni ushlab turadi. Tabiiy boyliklarning shakllanishida muhim. O'simlik va hayvonot olami uchun ajoyib muhit sanaladi. Ulardagi tog' jinslari yemirilishidan unumdor tuproq paydo bo'ladi. Tog'larda insoniyat uchun eng zarur bo'lgan chuchuk suvning 80 foizi to'planadi, shuningdek, ular tabiiy to'siq bo'lib, ayrim hududlarni shamol va sovuqdan himoyalaydi.

**11.** (Bilish – 4 ball) Matnda aks etgan ma'lumot berilgan javob(lar)ni aniqlang.

A) Tog'larning qanday paydo bo'lganligi haligacha insoniyat uchun sir bo'lib qolmoqda.

- B) Tog‘lar yer qatlamlari surilib ketishining oldini olib, qoziq sifatida ularni ushlab turadi.
- C) Tog‘ cho‘qqilari aviatsiya sohasida yo‘nalishni belgilashda muhim sanaladi.
- D) Tog‘ning balandligini hisoblashda dengiz joylashuvi asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi.
- E) Tog‘da o‘sadigan o‘simlik yoki hayvonlar boshqa joylarda uchramaydi.

**Javob:**

**12.** (Qo‘llash – 6 ball) Matn qismlari o‘rtasidagi mazmuniy bog‘liqliklarga e‘tibor qiling va qaysi qismda takroriy fikr mavjudligini aniqlang.

- A) IV qismda takrorlangan
- B) I qismda takrorlangan
- C) III qismda takrorlangan
- D) II qismda takrorlangan

**Javob:**

**13.** (Mulohaza – 8 ball, qisqa javobli) Ushbu matndan keltirilgan gaplardan qaysilari fakt hisoblanadi?

1. Himolay tog‘idagi Jomolungma cho‘qqisining balandligi 8848 metrni tashkil qiladi.
2. Tog‘lar dunyo aholisining o‘ndan bir qismini uy bilan ta‘minlaydi.
3. Tog‘lar 3 turga, ya‘ni tektonik, erozion va vulkanik turlarga bo‘linadi.
4. Tog‘lar tabiatdagi eng go‘zal joylardan biridir.
5. Himolay va Alp tog‘lari tektonik tog‘lar sirasiga kiradi.

**Javob:**

**14.** (Mulohaza – 13 ball, kengaytirilgan)

Tog‘larda qanday relyef shakllari va tabiiy xususiyatlar paydo bo‘lishini izohlang. Agar tog‘lar bo‘lmaganida, Yer yuzasidagi iqlim, suv resurslari va hayot sharoitlari qanday o‘zgarishi mumkin edi? O‘z fikringizni asoslab yozing.

Fikrlaringizni 80 – 100 ta so‘z bilan ifodalang.

**Javob:**

---



---



---



---



---



---



---



---



Pomir, Tyanshan, Himolay, Alp, Kordilyera tog‘larini misol qilish mumkin. Tog‘lar tabiiy boyliklarning shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Ular o‘simlik va hayvonot olami uchun qulay hamda boy tabiiy muhit hisoblanadi.

## II

Tog‘lar balandligi dengiz sathidan 200 metrdan bir necha kmga yetadi. Masalan, Yer sharining eng baland nuqtasi – Himolay tog‘laridagi Jomolungma (Everest) cho‘qqisi bo‘lib, uning balandligi 8848 metrni tashkil etadi. Olimlarning tadqiqotlariga ko‘ra, tog‘lar nafaqat quruqlikda, balki dengiz va okeanlar tubida ham mavjud. Hatto ularni quruqlikka nisbatan okeanlarda ko‘proq uchratish mumkin. Ayrim orollar esa suv yuzasiga chiqib turgan suvosti tog‘larining cho‘qqilaridir. Tog‘lar bugungi kunda dunyo landshaftining beshdan birini tashkil qiladi va dunyo aholisining o‘ndan bir qismini uy bilan ta‘minlaydi.

## III

Tog‘lar 3 turga, ya‘ni tektonik, erozion va vulkanik turlarga bo‘linadi. Tektonik tog‘lar Yer plitalarining o‘zaro kuchli urilishi, siljishi va birikishidan ko‘tariladi. Cho‘qqilari tik va baland, tizmalari uzun va yoysimon bo‘ladi. Bunday tog‘lar asosan yosh tog‘lar sanalib, ularda zilzilalar tez-tez sodir bo‘ladi. Himolay va Alp tog‘lari shular jumlasidandir.

Vulkanik tog‘lar yer ostidagi vulqonlar otilishi natijasida yuzaga ko‘tarilib chiqqan lava qatlamlarining keyinchalik qotishidan hosil bo‘ladi, odatda shakli konussimon va cho‘qqisida krateri (og‘iz) bo‘ladi. Bunday tog‘larga Fudziyama, Vezuviy, Etna va Klimanjanolarni misol qilish mumkin.

Eroziyon tog‘lar uzoq vaqt davomida suv, shamol, muzliklar yoki boshqa tashqi kuchlar ta‘sirida yemirilib shakllangan tog‘lardir. Avval baland va yaxlit bo‘lgan tog‘ jinslari vaqt o‘tishi bilan yemiriladi, parchalangan holda pastlab boradi. Natijada, qirrali, g‘ovak, notekis shaklli tog‘lar hosil bo‘ladi. Ularning cho‘qqilari yumaloq yoki yemirilgan bo‘lib, tik cho‘qqilar kam uchraydi, daryo vodiylari, jarliklar ko‘p bo‘ladi, ko‘pincha qadimgi tog‘ tizmalari hisoblanadi. Bularga Ural va Appalachi tog‘lari kiradi.

## IV

Tog‘lar tabiatdagi eng go‘zal joylardan biridir. Olimlar yaqin-yaqingacha ularning vazifalarini bilishmasdi. Ilm-fan taraqqiy etganidan so‘ng ularning bir qancha vazifalari borligi aniqlandi. Jumladan, tog‘lar o‘zining shakli va yer ostiga chuqur kirib borgani sababli, yer qatlamlari surilib ketishining oldini olib, qoziq sifatida ularni ushlab turadi. Tog‘lar tabiiy boyliklarning shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Ular o‘simlik va hayvonot olami uchun qulay hamda boy tabiiy muhit hisoblanadi. Tog‘lardagi tog‘ jinslari yemirilishidan unumdor tuproq paydo bo‘ladi. Tog‘larda insoniyat uchun eng zarur bo‘lgan chuchuk suvning 80 foizi to‘planadi, shuningdek, ular tabiiy to‘siq bo‘lib, ayrim hududlarni shamol va sovuqdan himoyalaydi.

**11.** (Bilish – 4 ball) Matnda aks etgan ma‘lumot berilgan javob(lar)ni aniqlang.

- A) Hatto dengizlar tubida ham tog‘lar mavjud, shuningdek, quruqlikka qaraganda okeanlarda ularni ko‘proq uchratish mumkin.
- B) Tog‘lar yer yuzining faqat quruqlik qismida joylashgani olimlar tomonidan isbotlangan.
- C) Tog‘lar Yerdagi kabi Yerning tabiiy yo‘ldoshi bo‘lmish Oyda ham mavjud.
- D) Ural va Appalachi tog‘lari vulkanik tog‘lar sirasiga kiradi.
- E) Fudziyama, Vezuviy, Etna va Klimanjano tog‘lari cho‘qqilarida maxsus og‘izlar mavjud.

**Javob:**

**12.** (Qo‘llash – 6 ball) Matn qismlari o‘rtasidagi mazmuniy bog‘liqliklarga e‘tibor qiling va qaysi qismda takroriy fikr mavjudligini aniqlang.

- A) IV qismda takrorlangan
- B) II qismda takrorlangan
- C) III qismda takrorlangan
- D) I qismda takrorlangan

**Javob:**

**13.** (Mulohaza – 8 ball, qisqa javobli) Ushbu matndan keltirilgan gaplardan qaysilari fakt hisoblanadi?

1. Yer yuzasining tekisliklaridan yakka yoki qator ko‘tarilib turgan baland joylari tog‘lar deyiladi.
2. Olimlar yaqin-yaqingacha tog‘larning vazifalarini bilishmasdi.
3. Himolay tog‘idagi Everest cho‘qqisining balandligi 8848 metrni tashkil etadi.
4. Tog‘lar bugungi kunda dunyo landshaftining beshdan birini tashkil qiladi.
5. Tog‘larda insoniyat uchun eng zarur bo‘lgan chuchuk suvning 80 foizi to‘planadi.

**Javob:**

**14.** (Mulohaza – 13 ball, kengaytirilgan) Tog‘larning tabiiy resurslari va inson faoliyati o‘rtasidagi sabab–oqibat munosabatini aniqlab yozing. Fikrlaringizni 80 – 100 ta so‘z bilan ifodalang.

**Javob:**

---



---



---



---



---



---



---



“Motamsaro ona” haykaliga gulchambar qo‘yish, Toshkentdagi qatag‘on qurbonlariga bag‘ishlangan “Shahidlar xotirasi majmuasi”ni ziyorat qilishni dunyoviy ziyoratga kiritish mumkin.

## II

Ziyorat turizmining ijtimoiy va ma’naviy ahamiyati shundaki, u ma’naviy qadriyatlarning rivojlanishiga olib keladi. Muqaddas joylarni ziyorat qilish uchun kelganlar faqatgina aziz avliyolar qabrini ziyorat qilish bilan cheklanmaydilar, albatta. Ular shaharlarning boshqa diqqatga sazovor tarixiy, madaniy obyektlari, me’moriy obidalarini ham borib ko‘radilar. Mahalliy aholi turmush tarzi, an‘analari, urf-odatlarini, o‘lmas qadriyatlari, zamonaviy hayoti bilan ham tanishadilar. Shahar va shaharlararo transport hamda kommunikatsiya vositalaridan foydalanadilar. Milliy tansiq taomlardan tanovul qilib, milliy liboslar xarid qiladilar. Demak, ziyorat turizmining iqtisodiy-moliyaviy ahamiyati ham katta.

## III

Ziyorat diniy rasm-rusumlarni bajarish uchun insonning turli muqaddas makonlar bo‘ylab sayohati hisoblanadi. Shunga muvofiq, keyingi yillarda O‘zbekistonda umumiy turizmning bir tarmog‘i sifatida uni rivojlantirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Islom dinimiz rivojiga ulkan hissa qo‘shgan ulug‘ ajdodlarimiz maqbaralari obod qilinib, u yerlarda masjid va madrasalar, ziyoratchilar uchun xos mehmonxonalar qurildi va ular atrofida bog‘-rog‘lar barpo etildi. Bugungi kunda islom madaniyati (sivilizatsiyasi) rivojiga har qachongidan-da ko‘proq e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekistondagi xalqaro islom akademiyasi, O‘zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazi, Toshkent Islom instituti, Mir Arab oliy madrasasi kabi ilmiy-ma’rifiy, o‘quv muassasalarining ta’sis etilishi hadis, kalom, fiqh maktablarining tashkil qilingani fikrimiz dalilidir.

## IV

Ajdodlarimizdan meros yuksak islomiy axloqni qaror toptirish, islom ruhi bilan sug‘orilgan barhayot an‘analarni XXI asr sharoitida munosib davom ettirish maqsadida O‘zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasida ziyorat turizmi elektron integral platformasi yaratildi. Platforma sayt, mobil ilova, audio hamda video yuklamalari, “O‘zbekiston ziyoratgohlari” foto-albomini o‘z ichiga olgan bo‘lib, yurtimizdagi 100 dan ortiq muqaddas maskanlarga bag‘ishlangan. Bu obyektlar xalqaro va milliy miqyosi, tarixi, ahamiyati, infratuzilmasi va boshqa sharoitlarni hisobga olgan holda tanlangan. O‘zbekistondagi barcha muqaddas qadamjolar, madaniy, ma’naviy boyliklarning xalqaro tajribaga asoslangan yagona integratsion reyestri va ularning aniq tarixiy materiallarga asoslangan tavsifi yaratildi. Bularning barchasi, shubhasiz, ziyorat turizmi imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Buyuk allomalarni bergan bu muqaddas zamin, yurt chet ellik turistlarni, ayniqsa, ziyoratchi sayyohlarni o‘ziga ohangrabodek tortishi tabiiy.

**11.** (Bilish – 4 ball) Matn mazmunida aks etgan ma’lumot berilgan javob(lar)ni aniqlang.

- A) Sayyohlar muqaddas joylarga faqatgina aziz avliyolar qabrini ziyorat qilish uchungina tashrif buyuradilar.
- B) Keyingi yillarda O‘zbekistonda ulug‘ ajdodlarimiz maqbaralari obod qilinib, masjid va madrasalar qurildi.
- C) Ziyorat turizmi elektron integral platformasi sayt, mobil ilova, audio hamda video yuklamalari, “O‘zbekiston ziyoratgohlari” foto-albomini o‘z ichiga olgan.
- D) Samarqanddagi Imom al-Buxoriy yodgorlik majmuasini ziyorat qilishni diniy ziyoratga kiritish mumkin.
- E) Yurtimizdagi muqaddas qadamjoldan biri “Shahidlar xotirasi majmuasi”ga bag‘ishlab foto-albom yaratilgan.

**Javob:**

--	--	--	--	--

**12.** (Qo‘llash – 6 ball) Matn qismlari o‘rtasidagi mazmuniy bog‘liqliklarga e‘tibor qiling va qaysi qismda takroriy fikr mavjudligini aniqlang.

- A) IV qismda takrorlangan
- B) II qismda takrorlangan
- C) III qismda takrorlangan
- D) I qismda takrorlangan

**Javob:**

--

**13.** (Mulohaza – 8 ball, qisqa javobli) Ushbu matndan keltirilgan gaplardan qaysilari fakt hisoblanadi?

1. Buyuk allomalarni bergan bu muqaddas zamin, yurt chet ellik turistlarni, ayniqsa, ziyoratchi sayyohlarni o‘ziga ohangraboddek tortishi tabiiy.
2. O‘zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasida ziyorat turizmi elektron integral platformasi yaratilgan.
3. Ziyoratni shartli ravishda ikki qismga ajratish mumkin: diniy va dunyoviy.
4. O‘zbekistonda O‘zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazi ilmiy-ma’rifiy o‘quv muassasasi ta’ sis etilgan.
5. “Ziyorat” arabcha so‘z bo‘lib – bu odatda muqaddas joylarga tashrif buyurishni bildiradi.

**Javob:**

--	--	--	--	--

**14.** (Mulohaza – 13 ball, kengaytirilgan)

Muqaddas joylarning obod qilinishi va infratuzilmaning rivojlanishi qanday qilib turistlar oqimining oshishiga va iqtisodiy foydaga olib kelishini izohlang.

Agar elektron platforma kabi zamonaviy vositalar yaratilmaganida, ziyorat turizmining rivojlanishiga qanday ta’sirlar bo‘lishi mumkin edi? O‘z fikringizni asoslab yozing.

Fikrlaringizni 80 – 100 ta so‘z bilan ifodalang.



## Adabiyot

### 16-SAVOL

1. (Bilish – 8 ball) Xalq og‘zaki ijodiga xos anonimlik xususiyatiga oid to‘g‘ri ma‘lumotni aniqlang.

1. Folklor asarlarini kuylash jarayonida ijrochining vaziyatga ko‘ra, ilhom bilan yangiliklar qo‘shishi jarayoni bo‘lib, xalq dostonlari, terma, o‘lanlar ijrosida ko‘proq ro‘y beradi.

2. Folklor asari, an‘analari ustozdan shogirdga, avloddan avlodga, urug‘dan urug‘ga o‘tib, yangi davr ruhida, yangi ijrosida sayqal topib yashashi og‘zaki tarzda amalga oshadi.

3. Folklorda biror bir asarni kimdir dastlab yaratgan bo‘lishi mumkin, lekin bu asar sujeti, tasvir vositalari, ohang yo‘llari xalq og‘zaki ijodi an‘analariga tayanilib ijod etilsa, u folklor asari bo‘lib qoladi.

**Javob:**

2. (Bilish – 8 ball) Go‘ro‘g‘li turkumi dostonlariga oid to‘g‘ri ma‘lumotni aniqlang.

1. Bu dostonda tarqoq elni birlashtirish, yurt farovonligi va tinchligi uchun kurash, nikohga sadoqat, va‘daga vafo qilish motivlari yetakchilik qilib, dostondagi voqealar silsilasining keskin burilishiga aka-ukalar o‘rtasidagi nizo sabab bo‘ladi.

2. Bu dostonda sevgiga sadoqat, soxta do‘stlikning qoralanishi, oilasi parokanda bo‘lgan insonning tushkunlikka tushib, tarki dunyo qilishi va tasodifan podshohlik taxtiga chiqib, oilasini qayta topib, dushmanlaridan qasos olishi voqealari aks etgan.

3. Bu dostonda o‘zga yurtga o‘z muhabbatini izlab ketgan yigitning kutilmaganda asir tushishi, e‘tiqodidan kechishga majburlanishi, oxir-oqibat otasi tomonidan qutqarilib, sevgan yori bilan topishib, murod-maqсадiga erishishi tasvirlangan.

**Javob:**

3. (Bilish – 8 ball) “Ravshan” dostoniga oid to‘g‘ri ma‘lumotni aniqlang.

1. Dostonda davlat qushi uch marta ham qalandarning boshiga qo‘nib, u taxtga chiqadi va Qalandarxonning davri boshlanadi.

2. Dostonda Zulxumor har kuni kanizaklari bilan birga bozorga qalpoq sotishga chiqar, uning xaridorlari ko‘p edi.

3. Dostondagi yilqiboqar Rustambek Gajdumbekning xos odami edi, shu bois uning singlisi Bibi Hilolni o‘zi dafn qiladi.

**Javob:**

4. (Bilish – 8 ball) Ertak janriga oid to‘g‘ri ma‘lumotni aniqlang.

1. Sehrli ertaklarda voqelik tasviri real hayotdan uzoqlashmaydi va ularda xalqning kundalik turmush tarzi bilan bevosita bog‘liq turli holatlar, vaziyatlar, omma nazarida diqqatga arzigulik ishlar tasvirlanadi.

2. Majoziy ertaklardagi hayvon obrazlari ko‘chma ma‘nodagi personajlar bo‘lib, ular xuddi insonlardek xatti-harakatda tasvirlanadilar: o‘ylaydilar, gapiradilar, jabr-zulmga norozilik bildiradilar, yaxshilarga yaxshilik, yomonlarga yomonlikni ti-laydilar.

3. Maishiy ertaklarda qahramonning safar manzillari, yo‘lidagi taqiq, shart-u shartlashuv ko‘rinishidagi sinovlar, raqib bo‘lmish barcha yovuz kuchlar bilan bog‘liq voqea-hodisalar sirli, sehrli makon va zamonda kechadi.

**Javob:**

5. (Bilish – 8 ball) Xalq og‘zaki ijodiga xos badihago‘ylik xususiyatiga oid to‘g‘ri ma‘lumotni aniqlang.

1. Folklor asarlarini kuylash jarayonida ijrochining vaziyatga ko‘ra, ilhom bilan yangiliklar qo‘shishi jarayoni bo‘lib, xalq dostonlari, terma, o‘lanlar ijrosida ko‘proq ro‘y beradi.

2. Folklor asari, an‘analari ustozdan shogirdga, avloddan avlodga, urug‘dan urug‘ga o‘tib, yangi davr ruhida, yangi ijrosida sayqal topib yashashi og‘zaki tarzda amalga oshadi.

3. Folklorda biror bir asarni kimdir dastlab yaratgan bo‘lishi mumkin, lekin bu asar sujeti, tasvir vositalari, ohang yo‘llari xalq og‘zaki ijodi an‘analariga tayanilib ijod etilsa, u folklor asari bo‘lib qoladi.

**Javob:**

6. (Bilish – 8 ball) Xalq og‘zaki ijodiga oid ishqiy-qahramonlik dostoniga oid to‘g‘ri ma‘lumotni aniqlang.

1. Bu kabi izohga ushbu dostonlarni keltirish mumkin: “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Romeo va Julietta”. Ularda oshiq va ma‘shuq obrazlari asosiy planda turadi.

2. Bunday dostonlarda ishq-muhabbat mavzusi yetakchilik qilsa-da, qahramonlik motivlari ham uchraydi, bunga “Kuntug‘mish”, “Ravshan”, “Alpomish” dostonlarini misol qilish mumkin.

3. Bunday dostonlarda ishq-muhabbat bilan birga jang-u jadallar, harbiy yurishlar ham aks etadi, jumladan, “Shayboniynoma” va “Zafarnoma” dostonlarini misol qilib keltirish mumkin.

**Javob:**

7. (Bilish – 8 ball) Quyidagilardan “Ravshan” dostoniga oid to‘g‘ri ma‘lumotni aniqlang.

1. Dostonning bosh g'oyasi tarqoq elni birlashtirish, yurt tinchligi va mustahkamligi bo'lib, unda yettita alp obrazlari mavjud. Dostonda yigitlarning doimiy yo'ldoshi ot obrazi – Boychibor timsolida gavdalangan.

2. Doston “Go‘ro‘g‘li” turkumiga mansub, unda or-nomus, vatanga va diniga sodiqlik g'oyalari yetakchilik qilib, jonidan kechsa ham, muqaddas dinidan voz kechmagan, o'z sevgisi uchun kurashgan, otasi Hasanxon va kallar yordamida maqsadiga erishgan qahramon mavjud.

3. Dostonning bosh g'oyasi sevgiga sadoqat va vafo, do'stga sodiqlikdir. Unda har qanday qiyin vaziyatda ham sevgisidan voz kechmagan, ammo boshiga tushgan ayriliqlarga chiday olmasdan qalandarga aylangan qahramon obrazi mavjud.

**Javob:**

**8.** (Bilish – 8 ball) Ertak janriga oid to'g'ri ma'lumotni aniqlang.

1. Sehrli ertaklarning sujetini, asosan, sotsial-maishiy motivlar tashkil qilib, ularning g'oyaviy mazmuni va obrazlar talqinida majoz asosiy o'rinda turadi.

2. Hayvonlar haqidagi ertaklar orasida qurilishiga ko'ra bir harakatning ketma-ket ko'p bora zanjirli takrorlanib, yana yechimga qaytishi tasvirlanuvchi namunalar alohida o'rin tutadi.

3. Odatda, hayvonlar haqidagi ertaklar ikki qismdan – kumulatsiya (zanjir) va yakun (final)dan iborat bo'lib, dunyoning ayrim xalqlari folkloridagina uchraydi.

**Javob:**

**9.** (Bilish – 8 ball) “Ravshan” dostoniga oid to'g'ri ma'lumotni aniqlang.

1. Dostonda davlat qushi uch marta ham qalandarning boshiga qo'nib, u taxtga chiqadi va Qalandarxonning davri boshlanadi.

2. Dostonda o'ylamay qaror qabul qilib, ko'p xatolarga yo'l qo'ygan, oilasidan, xotini va farzandidan ayrilib yashashga mahkum bo'lgan podsho obrazi uchraydi.

3. Doston qahramonining “ketib qolmasligi” uchun berilgan uzuk aynan uning ketib qolishiga sabab bo'ladi.

**Javob:**

**10.** (Bilish – 8 ball) “Ravshan” dostoni qahramonlariga oid to'g'ri ma'lumotni aniqlang.

1. Ravshan – Qoraxon a'yonlarining dinini o'zgartirish haqidagi taklifini rad etib, o'z e'tiqodidan, dinidan voz kechmaydi.

2. Zulxumor – Chambil podshohining qizi bo'lib, u mardlik, sadoqat, e'tiqodda sobitlik ramzi sifatida talqin qilinadi.

3. Hasanxon – Go'ro'g'lining tarbiyasini olgan botir, biroq yoshligi, soddaligi tufayli osongina bandi etilib, zindonga tashlanadi.

**Javob:**

## 17-SAVOL

1. (Qo‘llash – 9 ball) Navoiyning “Sab‘ai sayyor” dostoni obrazlari haqidagi to‘g‘ri fikr(lar)ni aniqlang.

1. Bahrom – yori va uning xalqi uchun butun boshli lashkarga bir o‘zi bas kela olgan qahramon sifatida talqin qilish mumkin.
2. Dilorom – shoh Bahrom bilan ovga chiqqanda kiyik hodisasi yuz beradi va uning merganlik mahoratini “mashqning natijasi” deb aytadi.
3. Moniy – Bahromga Chinda tengi yo‘q bir go‘zal Dilorom haqida xabar berib, o‘zi chizgan suratni taqdim etadi.
4. Bahrom – Diloromga butunlay mahliyo bo‘lib, davlat, mamlakat ishlarini unutadi, kayf-safoga berilib ketadi.

**Javob:**

--	--	--	--

2. (Qo‘llash – 9 ball) Navoiyning “Sab‘ai sayyor” dostoni obrazlari haqidagi to‘g‘ri fikr(lar)ni aniqlang.

1. Bahrom – yetti iqlim shohi, ov qilib yurib afsonaviy rassom Moniyni uchratib qoladi.
2. Dilorom – Bahromga rad javobini beradi, shuning uchun Bahrom uning oyoq-qo‘lini bog‘lab, biyobonga tashlab kelishni buyuradi.
3. Bahrom – g‘azab va mastligi tarqab afsuslanganidan keyin Diloromni o‘zi borib izlaydi, lekin topa olmaydi va hijron azobidan o‘zini butunlay yo‘qotadi.
4. Moniy – yetti iqlim shohi qurdirgan yetti qasrning har birini alohida bir rang bilan bezaydi.

**Javob:**

--	--	--	--

3. (Qo‘llash – 9 ball) Navoiyning “Sab‘ai sayyor” dostoni obrazlari haqidagi to‘g‘ri fikr(lar)ni aniqlang.

1. Bahrom – har biri yetti sayyoradan birining rangiga mos yetti qasrda yetti iqlimdan kelgan musofirlardan hikoyat tinglaydi.
2. Bahrom – homiysi Mushtariy bo‘lgan sandal (jigarrang) qasrda Muqbil va Mudbir haqidagi hikoyatni tinglaydi.
3. Moniy – yakshanba kuni homiysi Zuhra bo‘lgan oq qasrda shoh Bahromga Dilorom haqidagi hikoyatni so‘zlab beradi.
4. Dilorom – Bahrom uning suratini ko‘rib oshiq bo‘lib qoladi va Chin mamlakatining bir yillik xirojini to‘lab, uni saroyga keltiradi.

**Javob:**

--	--	--	--

4. (Qo‘llash – 9 ball) Navoiyning “Sab‘ai sayyor” dostoni obrazlari haqidagi to‘g‘ri fikr(lar)ni aniqlang.

1. Mudbir – o‘zini savdogar, kema egasi, Muqbilni qulim deb tanishtiradi va shu zahoti yorilib o‘ladi.
2. Muqbil – ibodatli, rostgo‘y bo‘lib, Mudbirning ahmoqona gaplaridan ko‘p ozor chekadi va undan voz kechmoqchi bo‘ladi.
3. Mudbir – Xovar shohiga kuyov bo‘lish maqsadida do‘sti Muqbilni kemadan suvga itarib yuboradi.
4. Muqbil – buloqqa sho‘ng‘ib, suv tagidagi qasrga duch keladi va u yerda bir mahvashga oshiq bo‘lib qoladi.

**Javob:**

--	--	--	--

**5. (Qo‘llash – 9 ball) Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostoni obrazlari haqidagi to‘g‘ri fikr(lar)ni aniqlang.**

1. Muqbil – odamlari ochlik va tashnalikdan halok bo‘lgan, ichi sandal daraxti bilan to‘la kemaga duch keladi.
2. Mudbir – kazzob va pastkash odam bo‘lib, yolg‘onchiligi uchun buloq suviga tusholmaydi.
3. Muqbil – o‘ziga kelib, suvdan chiqqanida suv tagida suratini ko‘rib oshiq bo‘lgan go‘zal ishqida o‘zini yo‘qotib bexud bo‘ladi.
4. Mudbir – Xovar shohining qiziga yetisholmagach, oroldagi daraxt kovagida qizning suvratini, uning qasri nusxasini paydo qilib, o‘zini ovutib o‘tiradi.

**Javob:**

--	--	--	--

**6. (Qo‘llash – 9 ball) Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostoni obrazlari haqidagi to‘g‘ri fikr(lar)ni aniqlang.**

1. Muqbil – rostgo‘yligi tufayli Xovar shohi uni vazir qilib oladi va uylanishga da‘vat qilib, farzandlikka qabul etadi.
2. Muqbil – shohga sandal sotib, foyda topish umidi bilan, hind mamlakatiga borib, qanchadan-qancha xushbo‘y sandal keltiradi.
3. Mudbir – Muqbilga yaxshiliklar qilishga va‘da berib, o‘zidan o‘tgan gunohlariga tavba qilib, ayrilmaylik, deb yolvoradi.
4. Mudbir – sandal daraxti bilan to‘la bo‘lgan kemani va ichidagi mollarni ham o‘ziniki qilib oladi.

**Javob:**

--	--	--	--

**7. (Qo‘llash – 9 ball) Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostoni obrazlari haqidagi to‘g‘ri fikr(lar)ni aniqlang.**

1. Muqbil – hushini sandal qasrdagi sandal hidli go‘zal o‘g‘irlagani uchun Xovar shohining qiziga uylanish taklifini rad etmoqchi bo‘ladi.
2. Xovar shohi – adolatli va dono hukmdor, Muqbilning rostgo‘yligini qadrlaydi va uni o‘z qiziga munosib kuyov deb biladi.

3. Mudbir – Xovar shohining qiziga oshiq bo‘ladi, lekin unga yetisha olmaydi, shu sabab qizning qasri va suratining xayoliy nusxasini yaratadi.

4. Muqbil – rostdo‘y, ibodatli, sabrli va halol inson bo‘lib, har qanday sinovda to‘g‘rilikdan chekinmaydi.

**Javob:**

--	--	--	--

8. (Qo‘llash – 9 ball) Navoiyning “Sab‘ai sayyor” dostoni obrazlari haqidagi to‘g‘ri fikr(lar)ni aniqlang.

1. Bahrom – yetti iqlim shohi, avval davlat ishlaridan chalg‘ib, kayf-safo va nafsga berilib ketadi.

2. Moniy – Bahrom uchun yetti qasr qurdirib, ularni turli ranglar bilan bezaydi va o‘z qizlarini ham unga hadya qiladi.

3. Dilorom – Chin mamlakatidan keltirilgan nihoyatda go‘zal qiz, biroq shohga rost gap aytgani uchun jazolanadi.

4. Moniy – afsonaviy rassom, Diloromning suratini chizib, Bahromni uning go‘zalligidan xabardor qiladi.

**Javob:**

--	--	--	--

9. (Qo‘llash – 9 ball) Navoiyning “Sab‘ai sayyor” dostoni obrazlari haqidagi to‘g‘ri fikr(lar)ni aniqlang.

1. Moniy – shohning kasalligini davolashga harakat qilgan donishmand, Bahromni ruhiy va jismoniy jihatdan tiklashga yordam beradi.

2. Bahrom – Diloromdan ayrilgach, hijron azobini chekadi va asta-sekin haqiqiy ishq va hayot saboqlarini anglay boshlaydi.

3. Dilorom – Chin mamlakatidan keltirilgan nihoyatda go‘zal qiz, go‘zallik, sadoqat va chin muhabbat timsoli.

4. Moniy – afsonaviy rassom bo‘lib, san‘at, tasviriy mahorat va go‘zallikni yaratish ramzi hisoblanadi.

**Javob:**

--	--	--	--

10. (Qo‘llash – 9 ball) Navoiyning “Sab‘ai sayyor” dostoni obrazlari haqidagi to‘g‘ri fikr(lar)ni aniqlang.

1. Bahrom – haftaning shanba kunida homiysi Zuhul bo‘lgan qora qasrda Farrux va Axiy haqidagi hikoyatni tinglaydi.

2. Moniy – haftaning muayyan kunida Bahromga hikoyat aytib beradi, uning hikoyalari orqali shoh hayot saboqlari va ma‘naviy tajriba oladi.

3. Dilorom – Bahromning suyuklisi bo‘lib, undan ayrilgan Bahrom hijron azobidan o‘zini butunlay yo‘qotadi.

4. Bahrom – Diloromga butunlay mahliyo bo‘lib qolgach, mamlakatda tartibsizliklar boshlanib, xalq orasida shikoyat va norozilik kuchayishiga sababchi bo‘ladi.

**Javob:**

--	--	--	--

## 18-SAVOL

1. (Qo'llash – 9 ball) Ushbu misralar haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.

*Giyoh bilan qoplanmish ko'hna qabr boshlari,*

*Maysadagi shudringlar kimlarning ko'zyoshlari?*

*Bu yerda yotar otam ham uzangidoshlari,*

*Har bahor eslar uni qavmi qarindoshlari —*

*Bahor, ketma mening bog'imdan.*

A) To'ra Sulaymon qalamiga mansub ushbu misralarda shoir ota xotirasiga hurmat, o'tganlar sog'inchi va hayotning o'tkinchiligi haqida fikr yuritadi.

B) Abduvali Qutbiddin qalamiga mansub bu misralarda shoir go'yo o'z qismatini bashorat qilgan kabi taassurot uyg'otadi.

C) Muhammad Yusufning ushbu satrlarida tabiat manzaralari (giyoh, shudring, bahor) orqali insoniy tuyg'ular – dard, xotira va sog'inch ifodalangan.

D) Usmon Azim qalamiga mansub ushbu satrlarda muallif o'z zamondoshlarini ajdodlar xotirasiga hurmatda bo'lishga chaqiradi.

**Javob:**

2. (Qo'llash – 9 ball) Ushbu misralar haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.

*Gulzorni alaf bossa, zog' bossa bog'bon turib.*

*Muallaq qolsa kimdir, yer turib, osmon turib.*

*Bir gazanda toptasa, tuproqni posbon turib.*

*Bir yo'rtoq yo'l boshlasa, qudratli karvon turib.*

*Ko'nglimda armon yotar Buzilgan ro'zg'or misol.*

A) Ushbu satrlar Muhammad Yusufning "Armon" she'ridan olingan bo'lib, yomonlikni to'xtatishga shoir ojiz ekanligi aytilgan.

B) Shavkat Rahmonning "Bashorat" she'ridan olingan bu satrlarda kuchli va dono kishilar jamiyatni himoya qila olmasligi ifodalangan.

C) Ushbu satrlar Abduvali Qutbiddinning "Uzoqdan olisga" she'ridan olingan bo'lib, unda uy-ro'zg'orning bog'boni bo'lgan ota-onalarning farzand tarbiyasiga e'tiborsizligi ifodalangan.

D) To'ra Sulaymonning "Armon" she'ridan olingan bu satrlarda shoir jamiyatdagi beparvolik, mas'uliyatsizlik va adolatsizlikni tanqid qiladi.

**Javob:**

3. (Qo'llash – 9 ball) Ushbu misralar haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.

*Yoqa ushlab qolsin ko'rganlar,*

*Olovlarga otgum uni, bas.*

*Yonib ketsin chirsillab qalbin,*

*Sevish kerak... yashash shart emas!*

A) Shavkat Rahmonning ushbu misralarida shoir qalbining yonishini tasvirlab, sevgining naqadar azobli va kuchli ekanini ta'kidlaydi.

B) Usmon Azim qalamiga mansub ushbu misralarda olov ramziy ma'noda ishlatilgan bo'lib, u kuchli ehtiros, iztirob va qalbdagi yonishni anglatadi.

C) Muhammad Yusuf ushbu misralarida muhabbatning kuchi, inson qalbidagi ehtiros va iztirob badiiy tasvirlar orqali ifodalangan.

D) Abduvali Qutbiddin qalamiga mansub bu misralarda uning baxtini ko'rganlar hasaddan yoqa ushlab qolishlari tasvirlangan.

**Javob:**

4. (Qo'llash – 9 ball) Ushbu misralar haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.

*Oy mening yelkamga*

*O'tirib olgan,*

*Oftob g'avg'o solar*

*Yurgan yo'limga.*

*Xayol tushovidan*

*Chiqolmay qolgan*

*Umrinni topshirib*

*Qo'ydim ko'nglimga.*

A) Muhammad Yusufning "Surat" she'ridan olingan bu misralarda lirik qahramonning yolg'izligi, o'y-xayollarga berilishi va qalb kechinmalari tasvirlangan.

B) Sirojiddin Sayyidning "Xayol" she'ridan olingan bu satrlarda shoirning yo'liga oy g'avg'o solib uning tinchligini buzayotgani va hayotdagi murakkabliklar bayon etilgan.

C) Usmon Azimning "Ko'ngil" she'ridan olingan bu satrlarda shoir o'y-xayollarga bog'lanib qolganini, ulardan chiqib ketolmayotganini bildiradi.

D) Abduvali Qutbiddinning "Avtoportret" she'ridan olingan bu misralarda shoirning hayotini aql emas, qalb va tuyg'ular boshqarayotgani tasvirlangan.

**Javob:**

5. (Qo'llash – 9 ball) Ushbu misralar haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.

*Tug'ildi, tug'ildi,*

*Tug'ildi qullar,*

*qirqida qirqilgan –*

*imdodga muhtoj,*

*yovlarga ters qarab*

*itlarday hurar,*

*bir-biriga dushman,*

*bir-biridan koj.*

A) Muhammad Yusufning "Yomg'irli kun edi" deb boshlanuvchi she'ridan olingan bu satrlarda ba'zi ellar mustaqil bo'la olmayotgani, doimo yordamga muhtoj ekani tasvirlangan.

B) Abduvali Qutbiddinning "So'z" she'ridan olingan bu satrlar odamlarning haqiqiy dushmanga qarshi kurashmay, faqat shovqin qilayotganini anglatadi.

C) Shavkat Rahmonning "Turkiylar" she'ridan olingan bu misralar orqali shoir erksizlik, qo'rqqoqlik va birlikning yo'qligini tanqid qiladi.

D) Usmon Azimning “Vatan haqida she’r” she’ridan olingan bu satrlarda qullar so‘zi bevosita haqiqiy qul emas, balki erksiz, mustaqil fikri yo‘q, boshqalarga qaram insonlar ma’nosida ishlatilgan.

**Javob:**

6. (Qo‘llash – 9 ball) Ushbu misralar haqidagi to‘g‘ri fikrni aniqlang.

*Baland bir o‘t yongan ichimni  
Men sovutib yashashim kerak.  
O‘z-o‘zimga sarflab kuchimni,  
Men ovutib yashashim kerak.*

A) Abduvali Qutbiddinning “So‘z” she’ridan olingan bu misralarida lirik qahramon o‘z ichidagi alangani bosib, sabr bilan yashashga majbur ekanini aytadi.

B) Usmon Azimning “Tong titraydi kech kuzakning quchog‘ida” she’ridan olingan bu satrlarda o‘t inson qalbidagi ichki alanga bo‘lib, unga ilhom bag‘ishlashi aks etgan.

C) Halima Xudoyberdiyevaning “Ayol o‘tib borar” she’ridan olingan bu misralarda lirik qahramonning ichki iztirobi, ruhiy kurashi va o‘zini bosishga majbur bo‘lgan holati tasvirlangan.

D) To‘ra Sulaymonning “Armon” she’ridan keltirilgan bu satrlarda lirik qahramon hayotda qiynalgan yaqinlarini ovutib, ularga yordam berib yashashi kerakligi ifodalangan.

**Javob:**

7. (Qo‘llash – 9 ball) Ushbu misralar haqidagi to‘g‘ri fikrni aniqlang.

*Hali yorilmagan  
Yangi peshonam,  
Jim turgin –  
Devorlar uraversin do‘q.  
Qancha peshonamni, axir, yorganman,  
Ammo  
Biror devor qulagani yo‘q.*

A) To‘ra Sulaymonning “Iltijo” she’ridan olingan bu satrlarda shoir shuncha urinishlarga qaramay, to‘siqlar hali ham saqlanib qolganini aytadi.

B) Usmon Azim o‘zining “Qismat” she’rida peshona va devor obrazlari orqali kurash, iztirob va hali ham yengilmagan muammolar g‘oyasini badiiy ifodalaydi.

C) Abduvali Qutbiddinning “So‘z” she’ridan olingan ushbu misralarda baxtsiz insonlarning qarashlari shoir uchun eng og‘ir sinov ekanligi aytilgan.

D) Shavkat Rahmonning “Baxt so‘zi” she’ridan olingan bu satrlarda shoir baxtsiz insonlarning iztiroblariga qarab yashash oson emasligini tasvirlaydi.

**Javob:**

8. (Qo'llash – 9 ball) Ushbu misralar haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.

*Tal'ating –*

*Yolg'izim, oynaklar mubham,*

*Qiyofa ortida mavjud qiyofa.*

*Aslida men emas gapirayotgan,*

*U shubha...*

A) Shavkat Rahmonning “Tong ochar ko'zlarin...” she'ridan olingan bu satrlarda insonning tashqi ko'rinishidan uning ichini bilib bo'lmasligi ifodalangan.

B) Abduvali Qutbiddinning “So'z” she'ridan olingan bu satrlarda tashqi qiyofa bilan ichki olam o'rtasidagi farqni ko'rsatib, inson qalbida doimo savollar va shubhalar yashashini ifodalaydi.

C) Faxriyorning “So'z” she'ridan olingan bu satrlarda shubha inson qalbini ichidan yemirishiga ishora qilingan bo'lib, u kishining ichki savollari timsoli sifatida aks ettirilgan.

D) To'ra Sulaymonning “Tavallo” she'ridan olingan bu satrlarda shoirning yosh avloddan kutgan maqsadi, kelajak umidlari aks etgan.

**Javob:**

9. (Qo'llash – 9 ball) Ushbu misralar haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.

*Bahor kelar dalalarga to'rkunlab,*

*Qushlar ham qaytadi olis-yaqindan.*

*Qishki uyqusidan uyg'onar millat,*

*zamburug'lar bola ko'rar chaqindan.*

A) Oydin Hojiyeva ushbu satrlarida qushlarning qaytishi tabiatdagi hayotning qayta jonlanishini tasvirlaydi.

B) Faxriyor bu satrlarida tabiat manzaralari orqali yangilanish, uyg'onish va hayotning davomiyligi g'oyasini ifodalaydi.

C) To'ra Sulaymon ushbu satrlarida bahorni yangilanish, hayotning qayta boshlanish ramzi sifatida uning chiroyli, tantanavor tarzda kirib kelishini tasvirlaydi.

D) Xurshid Davron bu satrlarda istiqlolni bahorga qiyoslagan, erkning ulug' ne'mat ekanligini nozik ifodalar vositasida tasvirlay olgan.

**Javob:**

10. (Qo'llash – 9 ball) Ushbu misralar haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.

*Bir so'z bor,*

*Unga yetolmagan hali ko'p millat.*

*Shu so'zni unutib yashagan elning*

*Yegan noni bo'lmas aslo beminnat.*

A) Xurshid Davron ushbu misralarda erkinligi va qadr-qimmatini bo'lmagan xalqning hayoti ma'nosiz bo'lib qolishini ta'kidlaydi.

B) Sirojiddin Rauf qalamiga mansub bu misralar orqali shoir xalq uchun erkinlik va mustaqillik eng muqaddas ne'mat ekanini ta'kidlaydi.

C) Shavkat Rahmon bu misralarda vatanni beminnat nonga qiyoslagan bo‘lib, unda shukronalik hissi yetakchi tuyg‘u sifatida aks etgan.

D) Abduvali Qutbiddin mazkur misralarida halol non topib yeyishga odatlanmagan kishilarni tanqid qiladi.

**Javob:**

## 19-SAVOL

1. (Qo‘llash – 9 ball) Quyidagi parcha haqidagi to‘g‘ri fikrni aniqlang.

*“Xonim boshini eggancha, bo‘ronga qarshi hujumga o‘tdi, darvozadan chiqib, ko‘chada izg‘irin bilan olisha-olisha, qorda toyg‘ana-toyg‘ana ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. It esa darvozaxonada yarador biqinidan azob chekkan holda muzday devorga suyangancha, yolg‘iz o‘zi qoldi. Hamda bu yerdan endi aslo qo‘zg‘almaslikka, shu yerda o‘limini kutishga qat‘iy qaror qildi. Tushkunlik uni shu ko‘yga solgandi. Qalbida shunchalar armon, shunchalar dard-alam, yolg‘izlik va dahshat bor ediki, hatto ko‘zlarida mayda yosh tomchilari paydo bo‘lib, pastga oqib tushar va shu zahoti qurib qolardi. Kuygan biqinida junlari suv, qor tekkani tufayli sumalak bo‘lib qotib qolgan, ular orasidan esa terining kuygani, katta-katta qizg‘ish dog‘lar yaqqol ko‘zga tashlanardi. Bu oshpaz deganlari namuncha befahm, befarosat, toshbag‘ir bo‘lmasa?!”*

1. Bu parcha Herbert Jorj Uellsning “Ko‘rinmas odam” asaridan olingan bo‘lib, bosh qahramonning jamiyat va insoniy qadriyatlarga nisbatan keskin ichki isyonini ifodalaydi.

2. Bu parcha Mixail Bulgakovning “Ityurak” asaridan olingan bo‘lib, unda Sharik ismli sayoq itning og‘ir ahvoli tasvirlanadi.

3. Bu parcha Yasunari Kavabataning “Anor” hikoyasidan keltirilgan bo‘lib, hikoyadagi qahramonning ruhiy tushkunlikka tushish holati tasvirlangan.

4. Bu parcha Valentin Rasputinning “Fransuz tili saboqlari” hikoyasidan olingan bo‘lib, maktab hovlisidagi itning og‘ir ahvoli tasvirlangan.

**Javob:**

2. (Qo‘llash – 9 ball) Quyidagi parcha haqidagi to‘g‘ri fikrni aniqlang.

*— Men televizion ko‘rsatuvlarini kamdan-kam ko‘raman, avtomobil poygalarida bo‘lmayman va o‘yin-kulgi bog‘lariga bormayman. Vaqtim mana shunday har xil telba xayollarga qoladi. Shahar chekkasidagi katta yo‘lda reklama g‘ov taxtalarga ko‘zingiz tushdimi? Hozir ularning uzunligi ikki yuz futga boradi. Bilasizmi, bir mahallar ularning uzunligi yigirma futdan oshmas ekan. Endilikda esa avtomobillar yo‘llarda shunday tezlikda yurishadiki, reklamalarni uzaytirishga to‘g‘ri kelgan, aks holda ularni hech kim o‘qiy olmas edi.*

1. Najib Mahfuzning “O‘zgaralar uchun yasha” hikoyasidan olingan parchada hikoya qahramonining chet eldan qaytib kelishi va ro‘y bergan o‘zgarishlarni akasidan eshitishi aks etgan.
2. Bu parchada Valentin Rasputinning “Fransuz tili saboqlari” hikoyasi qahramonining muallima Lidiya Mixaylovna bilan suhbatini aks etgan.
3. Rey Bredberining “Farenget bo‘yicha 451 daraja” romanidan olingan bu parchada tezlik, shovqin va yuzakilik hukmron bo‘lgan jamiyatda insonning o‘ylash va sezish qobiliyati so‘nib borayotgani aks etgan.
4. Bu parchada Gabriel Garsiya Markesning “Ziyorat” hikoyasidan olingan bo‘lib, unda ona va bolaning sayohat qilib borib qolgan shahardagi ruhoniylar bilan suhbatini aks etgan.

**Javob:**

3. (Qo‘llash – 9 ball) Quyidagi parcha haqidagi to‘g‘ri fikrni aniqlang.

*“Kasal odamdan besh battar qiynalar, iztirob chekar edim. Fikr-u xayolim, yagona istagim ham shu edi – tezroq uyga ketsam! Sentabr oyining oxirlarida onam kelgan edi, meni ko‘rib kapalagi uchib ketdi. Ozib, cho‘p bo‘lib qolgan emishman. Onamning oldida o‘zimni bazo‘r tutib turdim, arz-hol qilmadim, yig‘lamadim, ammo u ketayotganida chidayolmadim – ho‘ngillagancha mashina ortidan yugurdim. Mashinaning ustida tik turib ketayotgan onam, qol, meni ham, o‘zingni ham sharmanda qilma, degandek qo‘l siltadi.”*

1. Parcha Valentin Rasputinning “Fransuz tili saboqlari” hikoyasidan olingan bo‘lib, unda inson qalbidagi eng nozik tuyg‘ular – ona mehri, sog‘inch, sabr va iztirob juda ta’sirchan qilib ko‘rsatiladi.
2. Parcha Najib Mahfuzning “O‘zgaralar uchun yasha” hikoyasidan olingan bo‘lib, unda Samaraning qalbida kechayotgan tarqoq fikrlar, xotiralar va kechinmalar ifodalangan.
3. Parcha Gabriel Garsiya Markesning “Ziyorat” hikoyasidan olingan bo‘lib, unda asar qahramonining kuchli bo‘lishga harakat qilayotgani, onasini ranjitmaslikka intilayotgani tasvirlangan.
4. Parcha Paulo Koeloning “Alkimyogar” romanidan olingan bo‘lib, unda Santyagoning bolalik xotiralari va onasining qattiqqo‘l ayol bo‘lgani aks ettirilgan.

**Javob:**

4. (Qo‘llash – 9 ball) Quyidagi parcha haqidagi to‘g‘ri fikrni aniqlang.

*“U bugun miyasiga kelayotgan g‘alati o‘ylardan hayron. Ehtimol, qarg‘ish tekkan, naqd mehrobidan tutanjir o‘sib chiqqan xaroba cherkovda tunab qolgani uchun shunday bo‘layotgandir? Uyqusida oldin ko‘rgan bir tushni qayta ko‘rdi, mana, endi sodiq hamrohlariga tish qayrayapti. U kechki ovqatdan qolgan vinodan bir qultum yutdi va kamzuliga yaxshilab burkanib oldi. Yana bir necha soatdan keyin quyosh chosh tepaga keladi, jazirama avjiga minib, suruvni yaydoq dalada haydashning iloji bo‘lmay qoladi.”*

1. Bu parcha Herbert Jorj Uellsning “Ko‘rinmas odam” asaridan olingan bo‘lib, unda Missis Xollning qalbidagi bezovtalik sabab u hatto eng yaqin narsalarga ham boshqacha qaray boshlashi tasvirlangan.
2. Paulo Koeloning “Alkimyogar” romanidan olingan bu parcha bosh qahramon – cho‘pon yigitning ichki holatini, ruhiy bezovtaligini va taqdir sari yetaklayotgan sirli ishoralarni ko‘rsatadi.
3. Bu parcha Yasunari Kavabataning “Anor” hikoyasidan keltirilgan bo‘lib, unda asar qahramonining asabiylik va ruhiy zo‘riqishi kundan kunga ortib borayotganligi bayon qilingan.
4. Bu parcha Valentin Rasputinning “Fransuz tili saboqlari” hikoyasidan olingan bo‘lib, hikoya qahramonining kamqonligi sabab boshi aylanishi natijasida savollarga to‘la tartibsiz xayollari aks etgan.

**Javob:**

5. (Qo‘llash – 9 ball) Quyidagi parcha haqidagi to‘g‘ri fikrni aniqlang.

*“ Ammo ne ajabki, tun bo‘yi sharros quygan yomg‘ir va esgan kuchli shamolga qaramay g‘isht devorda hali ham bitta yaproq ko‘rinib turardi! U pechakgul yaproqlarining so‘nggisi edi. Poyaga yaqin joylari hali-hamon to‘q yashil, arrasimon qirralari esa qurib sarg‘aya boshlagan bu yaproq yigirma futcha balandlikda matonat bilan o‘z novdasiga osilib olgandi. ”*

1. O.Henrining “So‘nggi yaproq” hikoyasidan olingan parchada ba‘zan eng oddiy narsalar (bir dona yaproq ham) inson hayotini saqlab qolishi mumkinligi aks etgan.
2. Yasunari Kavabataning “Anor” hikoyasidan keltirilgan ushbu parchada anor yaprog‘ining tasviri fidoyilik, mehr va san‘atning buyuk kuchini ko‘rsatib beradi.
3. Gabriel Garsiya Markesning “Ziyorat” hikoyasidan olingan ushbu parchada tabiat bilan insonning uzviy bog‘liqligi ifodalangan.
4. Richard Baxning “Oqchorloq Jonaton Livingston” asaridan olingan bu parchada ko‘lda kechasi yomg‘irda qolib ketgan oqchorloqning ruhiy holati tasvirlangan.

**Javob:**

6. (Qo‘llash – 9 ball) Quyidagi parcha haqidagi to‘g‘ri fikrni aniqlang.

*– Beandishalik deysizmi?! – xitob qildi u. – Sizlarga nima bo‘ldi, birodarlar?! Hayotning mohiyatini tushunishga urinish, katta maqsadlarga olib boradigan yo‘llarni izlash – axir, buning nimasi beandishalik? O‘zingni bu olijanob ishlarga bag‘ishlash – mas‘uliyatni to‘la his etish-ku! Axir, biz hozirgacha nimani tushunib yetdik – baliqning ichak-chavog‘ini talashib minglab yillarni boy berdik... Endi bizda ibtidomizni – nima uchun yashayotganimizni – anglash imkoniyati paydo bo‘ldi. Kashf etish, tushunish, ozod bo‘lish imkoniyati! Menga bir marta imkon bering, nima topganimni ko‘rsatishga izn so‘rayman...*

1. Valentin Rasputinning “Fransuz tili saboqlari” hikoyasidan olingan bu parchada muallif ko‘pchilikning hayotni faqat moddiy ehtiyojlar, mayda manfaatlar, kundalik tirikchilik darajasida ko‘rishini tanqid qiladi.

2. Najib Mahfuzning “O‘zgalar uchun yasha” hikoyasidan olingan parchada o‘quvchi muallimni odatiy hayot qoliplaridan chiqib, o‘zining haqiqiy imkoniyatlarini izlashga undashi ifodalangan.

3. Richard Baxning “Oqchorloq Jonaton Livingston” asaridan olingan bu parcha insonning faqat tirikchilik bilan cheklanib qolmasdan, hayotning asl ma’nosini izlashga da’vatini ifodalaydi.

4. Rey Bredberining “Farenget bo‘yicha 451 daraja” romanidan olingan bu parchada hayot mohiyatini anglashga intilish, yuksak maqsadlarni qidirish va o‘zini shu yo‘lga bag‘ishlash eng katta mas’uliyat ekanligi ta’kidlangan.

**Javob:**

7. (Qo‘llash – 9 ball) Quyidagi parcha haqidagi to‘g‘ri fikrni aniqlang.

*“U baroq tuya ustida atrofga olazarak bo‘lib qarardi, ko‘pchib ketgan yuzlari jiddiy tusda, boshidagi qora qalpog‘ining ikkala uchi tepaga qayrilib ketgan, go‘yo qayiqni eslatardi. Boshining orqa tomonida esa bir o‘ram qop-qora haydar kokili yaltirab, osilib turardi. Jungjang uzangida tik turib, nayzasini o‘qtalgancha ko‘zlarini chaqchaytirib atrofga nazar tashlardi. Bu odam Sario‘zakni bosib olib, qanchalab aholini qul qilib haydab ketgan, onaning oilasiga ham cheksiz kulfatlar keltirgan g‘animlardan biri emasmi? Mana shu quturgan yirtqich yovga qarshi yolg‘iz ona – qurol-yaroqsiz ayol nima ham qila olardi?”*

1. Parcha Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” romanidan olingan bo‘lib, unda onaning ojizligi, zulm oldidagi himoyasizligi va dushmanga bo‘lgan nafrati tasvirlangan.

2. Bu parcha Herbert Jorj Uellsning “Ko‘rinmas odam” asaridan olingan bo‘lib, unda inson hayotida to‘g‘ri tanlov qilish va uning oqibatlarini uchun javobgarlik masalasi ifodalangan.

3. Gabriel Garsiya Markesning “Ziyorat” hikoyasidan olingan bu parchada muallif baroq tuya ustidagi odamni oddiy jangchi emas, balki deyarli yirtqich sifatida ko‘rsatadi.

4. Najib Mahfuzning “O‘zgalar uchun yasha” hikoyasidan olingan parcha dushmanning dahshatli qiyofasini chizish orqali urushning shafqatsizligi va ona qalbidagi cheksiz iztirobni ifodalaydi.

**Javob:**

8. (Qo‘llash – 9 ball) Quyidagi parcha haqidagi to‘g‘ri fikrni aniqlang.

*“Otang dengiz sayohatini butunlay esingdan chiqargin, degan edi-ku. Axir qaysi ishning boshini tutishing kerakligini u sendan ko‘ra yaxshi biladi-ku! O‘zingni xarob qilging kelsa, hoziroq jo‘nab ketaqol, ammo amin bo‘lginki, sening sayohatingga otang bilan ikkimiz aslo rozilik bermaymiz. Onam bu ishda yordam beradi deb chakki o‘ylabsan. Lekin bu gaplaringni bittasini ham otangga aytmayman. Yo‘q. Keyincha, dengizda yurib muhtojlik ko‘rganingda, jafo chekkaningda, oyim yo‘l qo‘ygan edi deb meni ayblashingni istamayman.”*

1. Daniel Defoning “Robinzon Kruzoning sarguzashtlari” romanidan olingan ushbu parcha ota-onaning farzand taqdiri uchun qayg‘urishi va yosh insonning orzu-havaslarini o‘rtasidagi ziddiyatni aks ettiradi.
2. Richard Baxning “Oqchorloq Jonaton Livingston” asaridan olingan bu parcha ota-onaning tajribasi, hayotiy bilimlarini farzandnikidan ustun qo‘yib bo‘lmasligini aks ettiradi.
3. Jek Londonning “Hayotga muhabbat” hikoyasidan olingan ushbu parchada o‘g‘lining oltin qidirib sayohatga chiqishidan xavotirlanayotgan onaning holati aks ettirilgan.
4. Najib Mahfuzning “O‘zgalar uchun yasha” hikoyasidan olingan parchada o‘g‘lining dengizda azob chekishi, muhtojlik ko‘rishi mumkinligidan xavotirlanayotgan onaning holati tasvirlangan.

**Javob:**

9. (Qo‘llash – 9 ball) Quyidagi parcha haqidagi to‘g‘ri fikrni aniqlang.

*“U notavon va zabonsiz bir maxluq bo‘lgani uchun ham mutlaqo itoatkor va beozor. Qochaman-qo‘yaman degan xayol uning tushiga ham kirmaydi. Quldor uchun eng dahshatli narsa – qullarning isyoni. Har bir qul siymosida isyonkorlik ruhi yashiringan. Yolg‘iz manqurtgina bundan mustasno, isyon ko‘tarish, bo‘yin tovlash unga butunlay yot. Bunday tushunchalar unga begona! Unga soqchi qo‘yishga, ayniqsa, buzuvchi niyatli kishi sifatida undan gumonsirashga hojat yo‘q.”*

1. Bu parcha Herbert Jorj Uellsning “Korinmas odam” asaridan olingan bo‘lib, unda insonning eng muhim xususiyati – erkin fikr va tanlash qobiliyati aks etgan.
2. Bu parcha Paulo Koeloning “Alkimyogar” romanidan olingan bo‘lib, unda oddiy qullarda ham ichki qarshilik, ozodlik istagi bo‘lishi aks etgan.
3. Bu parcha Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” romanidan olingan bo‘lib, unda inson ongini yo‘q qilish ma‘naviy qullikning eng dahshatli shakli ekani ifodalangan.
4. Bu parcha Mixail Bulgakovning “Ityurak” asaridan olingan bo‘lib, unda o‘z xotirasidan, o‘zligidan, ildizidan butunlay ajratilgan Sharik ismli itning og‘ir ahvoli tasvirlanadi.

**Javob:**

10. (Qo‘llash – 9 ball) *“Qiz hamon tizzasiga gullarni qo‘yib, oyoqlarini o‘rindi ostida chalish-tirganча o‘tirardi. Ruhoniy oldin unga, keyin onasiga tikildi, so‘ngra temir to‘r tortilgan deraza osha bulutsiz, beg‘ubor osmonga nazar tashladi.*

*– Shunday jaziramada-ya, – dedi u. – Issiq biroz pasayishini kutsanglar bo‘lardi... Ruhoniy unga sinchiklab tikildi. Ayol ham xuddi shunday xotirjam va ishonch bilan qaradi, padre xijolatdan qizarib ketdi. Boshini egib, yozishga kirishdi. Katak daftardagi sahifani to‘ldirish asnosida ayoldan kimligi va qayerdan kelganini so‘radi: ayol barcha savollarga daftardan o‘qib berganday ravon javob berdi.”*

1. Bu parcha Najib Mahfuzning “O‘zgaralar uchun yasha” hikoyasidan olingan bo‘lib, unda akasining qabrini ziyorat qilishga kelgan singilning holati bayon qilingan.
2. Bu parcha Gabriel Garsiya Markesning “Ziyorat” hikoyasidan olingan bo‘lib, unda ayolning xotirjamligi, ishonchi va qat’iyligi ruhoniyning o‘zini noqulay ahvolga solib qo‘yishi ifodalangan.
3. Bu parcha Herbert Jorj Uellsning “Ko‘rinmas odam” asaridan olingan bo‘lib, muallif ushbu obrazlar orqali ruhiy holat va ichki qarama-qarshilikni tasvirlaydi.
4. Daniel Defoning “Robinzon Kruzoning sarguzashtlari” romanidan olingan ushbu parchada ruhoni ayolning javoblaridan mamnun bo‘lib, quvonchdan qizarib ketgani aks etgan.

**Javob:**

## 20-SAVOL

1. (Qo‘llash – 9 ball) Navoiy qalamiga mansub ushbu baytdagi badiiy san‘atlarni aniqlang.

*Ich, Navoiy, may bag‘ir qonideg-u bexud yiqil,  
Necha vasl ummididin bag‘ringni qon etkay firoq.*

- A) talmeh, tardi aks
- B) talmeh, takrir
- C) nido, tashbeh
- D) mubolag‘a, talmeh

**Javob:**

2. (Qo‘llash – 9 ball) Navoiy qalamiga mansub ushbu baytdagi badiiy san‘atlarni aniqlang.

*Qatra qonlarkim tomar ko‘ksung‘a urgan toshdin,  
Zahmdindur demakim, qon yig‘lar ahvolimg‘a tosh.*

- A) husni ta‘lil, takrir
- B) tashbeh, tajnis
- C) tashxis, mubolag‘a
- D) tardi aks, tashxis

**Javob:**

3. (Qo‘llash – 9 ball) Navoiy qalamiga mansub ushbu baytdagi badiiy san‘atlarni aniqlang.

*Ko‘zung ne balo qaro bo‘lubtur  
Kim, jong‘a qaro balo bo‘lubtur.*

- A) tazod, ishtiyoq
- B) tajohuli orif, talmeh
- C) tardi aks, iyhom

D) takrir, tanosub

**Javob:**

4. (Qo‘llash – 9 ball) Navoiy qalamiga mansub ushbu baytdagi badiiy san’atlarni aniqlang.

*Sendin o‘rgangan kibi Laylo-u Shirin zulm-u kin,  
Mendin o‘rganmak kerak Majnun bila Farhod ishq.*

- A) tashbeh, talmeh
- B) tanosub, tajnis
- C) husni ta’lil, mubolag‘a
- D) istiora, tazod

**Javob:**

5. (Qo‘llash – 9 ball) Navoiy qalamiga mansub ushbu baytdagi badiiy san’atlarni aniqlang.

*Yuqar yomonlig‘ angakim, kirar yomon el aro,  
Ko‘mur aro ilik urg‘on qilur ilgini qaro.*

- A) tashbeh, talmeh
- B) ruju, tazod
- C) irsoli masal, ishtiyoq
- D) tashxis, tardi aks

**Javob:**

6. (Qo‘llash – 9 ball) Navoiy qalamiga mansub ushbu baytdagi badiiy san’atlarni aniqlang.

*Orazin yopqoch ko‘zumdin sochilur har lahza yosh,  
O‘ylakim, paydo bo‘lur yulduz, nihon bo‘lg‘och quyosh.*

- A) irsoli masal, kitobat
- B) husni ta’lil, ishtiyoq
- C) tamsil, tazod
- D) tazod, mukarrar

**Javob:**

7. (Qo‘llash – 9 ball) Navoiy qalamiga mansub ushbu baytdagi badiiy san’atlarni aniqlang.

*Garchi hajringdin agar yuz g‘am-u ozor manga,  
G‘am emas vaslinga ummid agar bor manga.*

- A) tazod, tanosub
- B) takrir, talmeh
- C) tardi aks, iyhom

D) nido, tashbeh

**Javob:**

8. (Qo‘llash – 9 ball) Navoiy qalamiga mansub ushbu baytdagi badiiy san’atlarni aniqlang.

*Sanga binafsha kibi qaddi nigun,  
Bosh ko‘tara olmay uyotdin zabun.*

- A) tajohuli orif, ta’did
- B) talmeh, husni ta’lil
- C) ishtiyoq, tamsil
- D) tashbeh, tashxis

**Javob:**

9. (Qo‘llash – 9 ball) Navoiy qalamiga mansub ushbu baytdagi badiiy san’atlarni aniqlang.

*O‘qlaring ko‘nglumga tushgach kuydi ham ko‘z, ham badan,  
Kim kuyar ho‘l-u qurug‘ chun naysitong‘a tushdi o‘t.*

- A) tashbeh, intoq
- B) mubolag‘a, iyhom
- C) irsoli masal, tazod
- D) tardi aks, tanosub

**Javob:**

10. (Qo‘llash – 9 ball) Ushbu baytdagi badiiy san’atlarni aniqlang.

*Jonimdin o‘zga yori vafodor topmadim,  
Ko‘nglumdin o‘zga mahrami asror topmadim.*

- A) tanosub, tarse’
- B) tashxis, tardi aks
- C) talmeh, tajohuli orif
- D) tashbeh, tazod

**Javob:**

## 21–25-SAVOLLAR

### 1-BADIIY MATN

21 – 25-savollar matn asosida bajariladi.

Bir... ikki...

Sohil bo‘ylab sekin odimlab ketayotgan qariyaning orqadan kelayotgan ovozdan xayollari to‘zib ketdi. O‘girilib qarasa, kulcha yuziga bir hovuch kunjut

sochib yuborilganday sepkilli bolakay izma-iz kelyapti. Cholning qaraganini ko'rgan bola taqqa to'xtadi. Chol sokingina jilmayib boshini chayqadi-da, yo'lida davom etdi. Orqadan eshitilayotgan ovozga quloq tutdi. Jimlik...

Birozdan so'ng ovoz yana takrorlandi.

– Bir, iikki, uuchchch...

Chol taqqa to'xtadi. Kutilmaganda cholga urilib ketgan bolakayning nigohidagi hadik bir zumda quvlik aralash o'yinqaroqlikka almashdi.

– Xo'sh, yana qancha davom etasan? – so'radi chol jo'rtaqa qoshlarini uyib.

Bola yelkalarini qisib, qo'llarini ikki yonga yoydi-da, aybdorlarcha jilmayib turaverdi. Buni ko'rib qariyaning yuzidagi yasama jiddiylikdan asar qolmadi:

– Nega qadamimni sanayapsan, bolajon? – dedi halimlik bilan.

– O'zingiz-chi, o'zingiz sanamayapsizmi? – dedi bolalarcha savolga savol bilan javob qaytarib.

– Sanamayapman... – og'ir xo'rsinib dedi qariya – bolaligimni izlayapman...

Bola qariyaning birdan mung'ayib qolganini tushunolmay birpas turib qoldi, so'ng boshqa ermak topdi, shekilli, sohil bo'ylab chopqillab ketdi.

Chol sohildagi o'rindiqlardan biriga borib o'tirdi. To'lqinlar uning xayollarini yelkasiga ortmoqlab olislarga olib ketdi. Bola esa goh oyog'iga urilayotgan to'lqinlar bilan o'ynar, goh qirg'oqqa chiqib qolgan chig'anoqlarni terar edi.

Nogoh bola allaqanday yaltiroq narsaning to'lqinlar ustida qalqib turganini ko'rib qoldi. Dengiz sirli narsani qirg'oqqa chiqarib tashlashini birpas kutib turdi, toqati yetmadi, shekilli, o'zini suvga otdi.

Sirli narsa ust qismini yam-yashil mox qoplagan shisha idish ekan. Mahkam berkitilgan idishni ochishga rosa urindi, bo'lmadi. axiyri, chol tomon yugurdi:

– Qarang, nima topdim! – deb idishni cholning qaltiroq qo'llariga tutqazdi.

– Tezroq oching, nima bor ekan-a?!

Mumlab yopilgan qopqoq ham hadeganda ochila qolmadi...

...Idish ichidan naycha shaklidagi qog'oz chiqdi.

Chol qaltiroq qo'llari bilan o'ramni zo'rg'a ochdi. Qog'ozni ko'zlariga yaqinlashtirdi. Qing'ir-qiyshiq yozilgan yozuvni o'qiyotib yuzidagi ajinlar yoyildi. Xira, jiyaklari ho'l ko'zlarida uchqun yilt etganday bo'ldi. Ancha vaqtgacha gapira olmadi. Ko'zlaridan qalqigan yosh ajinlari oralab ozg'in iyagi tomon oqdi...

– Nahotki bu o'sha... nahotki... – dedi xirqiroq ovozda. So'ng hech narsani tushunmay hayrat bilan qarab turgan bolaga:

– Sen Jyul Vernni o'qiganmisan? – deb qoldi.

– Yo'q, – dedi bolakay yelkalarini qisib.

– Biz uch o'rtoq edik, – biroz jimlikdan so'ng gap boshladi qariya. – Doim birga edik. Birga dars tayyorlar, birga kitob o'qir edik. Sevimli asarimiz qahramoniga o'xshashni xohlar edik. “Kapitan Grant bolalari”ni o'qib bo'lgach, biz ham maktub yozdik. Faqat asar qahramoni qutqarish maktubini bitgan bo'lsa, biz orzularimizni aks ettirdik. So'ng go'yo bolaligimizni, xotiralarimizni idishga solib to'lqinlarga topshirdik...

*Nargiza Azim*

21. (Bilish – 8 ball) Matn mazmunini qamrab oladigan sarlavha(lar)ni aniqlang.

- A) “Uch o‘rtoq”
- B) “Bolaligingizni izlaymiz”
- C) “To‘lqinlar”
- D) “Sohildagi sarguzasht”
- E) “To‘lqinlar qaytargan bolalik”

**Javob:**

--	--	--	--	--

22. (Qo‘llash – 9 ball) Matnda tasvirlangan obrazlar va ularning ruhiy holatiga berilgan to‘g‘ri ta’rif(lar)ni aniqlang.

1. Bola – hayotning jo‘shqinligi va poklik timsoli, uning dunyoqarashi hali falsafiy yuklardan xoli.
2. Chol – ba’zan g‘azabini yengolmasa-da, hissiyotga boy, qiziquvchan va rahmdil obraz.
3. Bola – yuvosh va havasmand obraz, kattalarga taqlid qilsa-da, ularni tushunishni istamaydi.
4. Chol – bolalikdagi orzularini unutgan, faqat bugungi kun bilan yashashni istaydigan obraz.

**Javob:**

--	--	--	--

23. (Qo‘llash – 9 ball) Matnda voqealarning rivojlanish ketma-ketligi to‘g‘ri keltirilgan javobni yozing.

1. Chol qaltiroq qo‘llari bilan o‘ramni zo‘rg‘a ochadi va qog‘ozni ko‘zlariga yaqinlashtiradi.
2. Chol sohildagi o‘rindiqlardan biriga borib o‘tiradi, to‘lqinlar uning xayollarini yelkasiga ortmoqlab olislarga olib ketadi.
3. Cholning qaraganini ko‘rgan bola taqqa to‘xtaydi, chol esa sokingina jilmayib boshini chayqaydi-da, yo‘lida davom etadi.
4. Chol bolakayga “Kapitan Grant bolalari”ni o‘qib bo‘lgach, o‘rtoqlari bilan birga maktub yozgani haqida gapirib beradi.

**Javob:**

--	--	--	--

24. (Mulohaza – 14 ball, qisqa javobli) Matnni o‘qib qanday xulosa(lar)ga kelish mumkinligini aniqlang.

- 1-xulosa: tasodiflar insonni baxtli qilolmaydi.  
2-xulosa: inson qarigandan keyin hayotiy qiziqishlarga ehtiyoj sezmaydi.  
3-xulosa: hayotda har bir uchrashuvning hikmati bor, ya'ni tasodiflar tasodif emas.  
4-xulosa: inson o'z o'tmishi, orzulari va qadriyatlari bilan bog'lanib tursagina haqiqiy xotirjamlikka erishadi.

**Javob:**

--	--	--	--

**25.** (Mulohaza – 16 ball, kengaytirilgan javobli)

Hikoyadagi qariyaning “bolaligimni izlayapman” degan so‘zlari nimani anglatadi? Fikringizni izohlab yozing.

Bolalik xotiralari inson ruhiyatiga qanday ta’sir qilishi haqida mulohaza yuriting. Fikrlaringizni 80–100 so‘zdan iborat, izchil va mantiqiy matn shaklida ifodalang.

**Javob:** \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

## **2-BADIIY MATN**

21 – 25-savollar matn asosida bajariladi.

Politsiyachi Jim Uels ko‘chalarni tekshirib borardi. U bo‘ydor, oyoqlarini xiyol kerib yurardi. Mahallalardan biriga yetganda qadamini sekinlatdi, temir buyumlar do‘koni oldida bir odamni uchratdi. U politsiyachini ko‘rishi bilan gapira ketdi:

– Hammasi joyida, serjant, oshnamni kutib turibman, bu uchrashuvni yigirma yil oldin rejalashtirgandik. Sizga g‘alati tuyulsa-da, tushuntirib beray. Bu do‘kon o‘rnida oldin “Ota Jo Bredi” restorani bo‘lardi.

– Besh yil oldin buzib tashlashdi, – dedi politsiyachi.

Notanish kimsa gugurt yoqib, sigaret tutatganida uning yuzi, chorburchak jag‘i, o‘tkir ko‘zlari va o‘ng qoshi yonidagi oq chandig‘i ko‘rindi. Yupqa bo‘yinbog‘idagi yirik olmos ko‘zli to‘g‘nog‘ichi charaqlab ketdi.

– Bundan yigirma yil oldin xuddi shu restoranda o‘rtog‘im Jim Uels bilan ovqatlangandik. Ikkalamiz Nyu-Yorkda tug‘ishgan aka-ukalardek katta bo‘lganmiz.

Keyin men g'arbiga ketdim. Jimmi Nyu-Yorkda qoldi, u bu shaharni juda sevdi. Biz yigirma yildan so'ng xuddi shu joyda uchrashishga kelishgandik.

– Qiziq, oradan shuncha yillar o'tibdi, keyin oshnangizdan xabar bo'ldimi? – so'radi politsiyachi.

– Oldiniga bir-ikki yil xat yozishdik, keyin bir-birimizni yo'qotib qo'ydik, ammo aniq bilamanki, u shartlashgan joyimizga, albatta, keladi. Biz restoran oldida ajrashganimizda soat roppa-rosa o'n edi, – deya begona kishi soatini chiqardi – soat qopqog'iga mayda olmos donachalari qadalgan edi.

– Nazarimda, g'arbda ishlaring yomon ketmagan, shekilli? – dedi politsiyachi.

– O'-ho', bo'lmasa-chi!

Politsiyachi: – Bo'пти, men boray.

– Ha, albatta, yana yarim soat kutaman. Yaxshi boring.

– Tuningiz xayrli bo'lsin, ser, – politsiyachi yo'lida davom etdi.

O'qtin-o'qtin esib turgan shamol izg'iringa aylangandi. Necha ming millab yo'l bosib kelgan kishi esa do'stiga bergan va'dasida turish uchun kutardi.

Yigirma daqiqa o'tgach, baland bo'yni bir odam ko'chani shoshib kesib o'tida, notanish kishi tomon yurdi.

– Bu senmisan, Bob? – so'radi yangi kelgan odam ishonqiramay.

– Sen Jimmi Uels emasmisan? – javob qaytardi unisi.

– Yo Parvardigor! – dedi novcha odam sigarali kishining ikkala qo'lini qo'llari bilan tutib. – Qara-ya, Bob ekaning kunday ravshan. Yigirma yil – hazilakam gap emas. Xo'sh, gapir-chi, g'arbda qanday yashading?

– Zo'r. U yerda barcha maqsadlarimga erishdim. Sen esa butunlay o'zgaribsan, Jim. Esimda, sen mendan ikki-uch dyum pastroq eding.

– Ha, yigirmaga to'lganimdan keyin biroz bo'yga tortdim.

– Sening ishlaring qalay, Jimmi?

– Yomonmas, shahar muassasalaridan birida xizmat qilaman. Bo'пти, Bob, yur, bir joyga borib, gaplashamiz.

Ular yo'lga tushishdi. Bob g'arbdan omadi yurishib, ko'zini yog' bosib kelgani haqida to'xtamay gapira ketdi. Boshini yoqasiga tiqib olgan sherigi uni qiziqish bilan tinglardi.

Mahalladagi dorixonaning chirog'i miltillardi. Yorug'ga kelgach, har ikkalasining ko'zi bir-birining yuziga tushdi. G'arbdan kelgani birdan to'xtadi.

– Siz Jim emassiz. Yigirma yil – uzoq muddat, ammo kishining novcha burni tugmachadek bo'lib qoladigan darajada uzoq emas.

– Bu muddatda ajabtovur odam ham muttahamga aylanishi mumkin, – dedi novchasi. – Gap bunday, Bob, o'n daqiqa bo'ldiki, siz hibsdasiz, Chikagodagilar sizni shu yerda tutish mumkinligini aytishgandi. Ortiqcha shovqin-suron ko'tarmaganingizdan minnatdorman. Endi sizni politsiyaga topshirishdan oldin bir xat beraman. Uni shu yerda o'qing. Buni menga politsiya posboni Jim Uels berdi.

G'arblik xatni o'qib bo'lgach, qo'llari xiyol titradi. Xat qisqagina edi: “Bob! Men tayinlangan joyga yetib keldim. Gugurt chaqqaningda, men Chikago qidirayotgan odam sen ekanligingni bilib qoldim. Seni o'zim hibsga ololmasdim, shu bois agentlarimizdan birini yubordim. Jimmi”.

*O. Henri*

21. (Bilish – 8 ball) Matn mazmunini qamrab oladigan sarlavha(lar)ni aniqlang.

- A) “Chikagodagi qotillik”
- B) “Vafodor do‘st”
- C) “Yigirma yildan so‘ng”
- D) “Sirli maktub”
- E) “Behuda sarflangan vaqt”

**Javob:**

--	--	--	--	--

22. (Qo‘llash – 9 ball) Matnda tasvirlangan obrazlar va ularning ruhiy holatiga berilgan to‘g‘ri ta‘rif (lar)ni aniqlang.

1. Jim Uels – sovuqqon va vazmin politsiyachi, burch va vijdon o‘rtasida qolgan, ammo noto‘g‘ri tanlov qilgan qahramon.
2. Bob – yuzidagi chandig‘iga ko‘ra jinoyat olamiga aloqador, katta boylik egasi, demak, olg‘ir odam, Jimni chuv tushirish uchun Nyu-Yorkka qaytgan.
3. Mahalliy agent – Jim Uelsning kasbdoshi, odamlarni aldashda pixini yoradigan, ammo o‘z ishiga nisbatan mas‘uliyatsiz xodim.
4. Jim Uels – o‘z kasbiga sodiq, burchlarini to‘g‘ri anglaydi, do‘stlikni ham qadrlaydigan inson.

**Javob:**

--	--	--	--

23. (Qo‘llash – 9 ball) Matndagi voqealarning rivojlanish ketma-ketligi to‘g‘ri keltirilgan javobni yozing.

1. Sobiq ikki do‘st Bob va Jim Uels restoranda roppa-rosa yigirma yildan keyin uchrashishga va o‘z hayotlari, yutuqlari haqida bir-biriga so‘zlab berishga kelishishadi.
2. Jim Uels Chikago politsiyasi qidiruvga bergan jinoyatchi Bobni o‘zining ishtirokisiz hibsga oldirdi.
3. Bob qadrdoni Jimni o‘zi bilan g‘arbga olib ketishga ko‘ndirolmagach, o‘zi ketadi va katta boylik orttiradi, Jim bu orada Nyu-York politsiyasiga ishga kiradi.
4. Jim 20 yil oldin Bob bilan kelishilgan uchrashuvga o‘z vaqtida yetib keladi, ammo do‘sti qidiruvdagi jinoyatchi ekan.

**Javob:**

--	--	--	--

24. (Mulohaza – 14 ball, qisqa javobli) Matnni o‘qib qanday xulosa(lar)ga kelish mumkin?

- 1-xulosa: insonlar eng avvalo o‘z burchiga sodiq qolishlari kerak, qolgan burchlar keyingi darajada turishi shart.
- 2-xulosa: jinoiy xatti-harakatlar ortidan qo‘lga kiritilgan boylik insonning mavqeyini yuksaltirmaydi.

3-xulosa: barchaga ishonib ketish, duch kelgan kishiga sirlarni aytishdan oldin, albatta, bu haqida o‘ylab ko‘rish lozim.

4-xulosa: ba’zi davlatlarda katta boylikka ega bo‘lgan kishilarning halol boyiganligiga gumon bilan qarashadi.

**Javob:**

--	--	--	--

**25.** (Mulohaza – 16 ball, kengaytirilgan javobli)

Hikoyada do‘stlik, va’daga sodiqlik va burch masalalari qanday tasvirlanganini izohlang.

Agar siz Jim Uels o‘rnida bo‘lganingizda, qanday yo‘l tutardingiz?

Fikrlaringizni 80–100 so‘zdan iborat, izchil va mantiqiy matn shaklida ifodalang.

**Javob:** \_\_\_\_\_

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

### 3-BADIIY MATN

21 – 25-savollar matn asosida bajariladi.

Aziza xola ayvonda yotgandi. Tepasida paydo bo‘lgan qo‘shnisi Lazokatxonning fe’li ayniganroq edi. Ammo qo‘shnisining lohas yotganini ko‘rib, unga achindi:

– Iya, egachi, sizni mehmonlarimni shirin suhbat bilan xursand qiladi, deb chaqirsam, chiqmadingiz. Nima bo‘ldi?

Aziza xola gavdasini arang ko‘tarib, ko‘rishgach, bodi qo‘zg‘alganidan qimirlayolmay qolganini aytib, uzr so‘radi. Qo‘shnisi bemorning bilagini ushlab, tomir urishi bejologini sezdi.

– O‘zingizni urintirgandirsiz-da... Sizga kim qarayotibdi o‘zi? Qani bolalar?

– Ketishgandi...

– Qayoqqa?

– Haligi... Yangi joyga...

– Qanaqa yangi joy?

Aziza xola qo‘shnisining fe’lini bilardi, qiziqqan narsasining tagiga yetmay qo‘ymasdi. Kelinining otasi kvartira olib berganini, o‘gli oilasi bilan ko‘chib ketganini aytib berdi.

Buni eshitib, Lazokatxonning jig'i-biyroni chiqib ketdi.

– Xo'jayiningiz ham indamay qo'yib berdilarmi?

– Xo'jayin bilmaydi. Komandirovkadalar.

– Shundoq ekan, bolalaringizga: “Dadang kelsin, meni yolg'iz tashlab ketmanglar”, – deb aytmabsiz-da?

– Aytuvdim. Tez-tez kelib turamiz, deyishdi. “Hozircha yoningizda tursin”, — deb bolasini qoldirishdi.

Shu chog' oshxonadan ushoqqina bir qizcha choynakni keltirib qo'ydi.

– Jajjining yoningizda bo'lgani yaxshi, lekin osh-ovqat, kasalingizga malham qo'yish buning qo'lidan kelmaydi-ku! Farzandlar shuni o'ylashmagani qiziq. Keliningiz yuzsizlik qilgan bo'lsa, o'g'lingiz rahm qilishi kerak edi!

Lazokatxon doktor chaqirish zarurligini aytdi-da, O'ktamning ishxonasining telefon raqamini so'radi va uyiga chiqib ketdi.

Oradan ko'p o'tmay qo'shni qiz keldi. Hovliga suv sepa boshlagandi, Aziza xolaning ovozi chiqdi.

– Voy, Dono qizim, nima qilib urinyapsan?

– Tuzukmisiz, xolajon? Sizga yordam bergani chiquvdim. Shunday degach, oshxonaga kirib ovqat qildi.

Bir payt Lazokatxon chiqib, qizining ishlarini kuzatib, ma'qulladi. Egachisidan esa ko'ngli bezovtaligini yashirmadi:

– O'g'lingizning ishxonasiga ikki-uch marta qo'ng'iroq qilib, topolmadim. Qayoqqadir ketgan deyishdi. Ularga: “O'ktamning oyisi kasal, tezda yetib kelsin”, deb tayinladim, – deya Dononi kasalning yonida tunash uchun qoldirdi.

Ertasi u doktor chaqirgach, hech narsa bilmaganday silliqqina bo'lib O'ktam kirib keldi. Eshikda “Tez yordam”, uyda doktor bilan Lazokatxonni ko'rib, naq kapalagi uchgan yigit o'zini arang bosgan holda:

– Iya, oyijon, sizga nima bo'ldi? – dedi.

– Sal tobim qochdi.

Egachisining o'g'liga muomalasini ko'rgan qo'shnisi: To'grisini aytavermaysizmi? – deb zarda qildi. Keyin O'ktamga yuzlandi: – Salgina tobi qochganmas. Bod. Xafaqon. Ha, bu kasallari oldindan borligini bilmasmiding? Shu yarim jon onani qanday qilib yolg'iz tashlab ketdilaring?!

O'ktam bu dashnomni eshitib, ikki qo'lini ko'ksiga qo'ygan holda zo'raki tabassum bilan:

– Shunaqa bo'p qoldi, opoqijon. Aybga qo'shmaysiz.

– Ha, o'zingizdan ortmay qolibsiz-da. Bilaman, ba'zilar o'z manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yib, huzur-halovatlariga berilib ketishadi-yu, farzandlik burchlarini unutishadi. Nahotki, sen ham o'shanaqa betayin, betavfiqlar qatoriga kirsang?!

– Mendan xatolik o'tgan bo'lsa kechiring, opoqijon!

– Otang qurib bergan bu uy torlik qilib qoldimi? Ko'chib ketishlaringga ota-onang rozi bo'lishganmidi?

O'ktam mushkul savoldan dovdiradi.

– Endi, opoqijon... Uncha qarshilik qilishmovdi...

– Shunaqa degin? – dedi Lazokatxon gumonsiragan holda. Keyin siz nima deysiz deganday Aziza xolaga tikildi. Aziza xola:

– Ha, endi... Shunaqa... Bo‘lar ish bo‘ldi... Qayerda bo‘lishsayam omon bo‘lishsin, – degancha dudmol javob qildi.

Bu javob Lazokatxonni qoniqtirmadi. Uyiga chiqib ketayotib, O‘ktamni imladi-da, dedi:

– Savolimga to‘g‘ri javob bermading, bola. Dadang komandirovkadan qaytsin, gaplashaylik-chi, nima derkinlar?..

O‘ktam buni jiddiy ogohlantirishday qabul qildi-yu, yuragini g‘ulg‘ula bosdi...

*Hakim Nazir*

**21.** (Bilish – 8 ball) Matn mazmunini qamrab oladigan sarlavha(lar)ni aniqlang.

- A) “Oqibatsiz farzand”
- B) “Qaytar dunyo”
- C) “Kelinning diydiyosi”
- D) “Qo‘shning tinch – sen tinch”
- E) “Dardini bergan shifosini ham berar!”

**Javob:**

--	--	--	--	--

**22.** (Qo‘llash – 9 ball) Matnda tasvirlangan obrazlar va ularning ruhiy holatiga berilgan to‘g‘ri ta’rif (lar)ni aniqlang.

1. Aziza xola – yumshoqtabiat, farzandlari baxti uchun o‘zini ayamaydigan, mehribon ona.
2. Lazokatxon – dardini oshkor qilmaydi, ich-ichidan o‘zining o‘g‘il farzandi yo‘qligidan aziyat chekadi.
3. Dono – onasining aytgan har bir gapini so‘zsiz bajaradi, ammo qozon-o‘choq, osh-ovqatga kelganda no‘noqroq.
4. O‘ktam – ayoli va onasining kelishmovchiliklari orasiga tushib qolgan, aslida mehribon, onasini har kuni yo‘qlaydigan solih farzand.

**Javob:**

--	--	--	--

**23.** (Qo‘llash – 9 ball) Matnda voqealarning rivojlanish ketma-ketligi to‘g‘ri keltirilgan javobni yozing.

1. Lazokatxon O‘ktamning ishxonasiga qo‘ng‘iroq qilib, onasining kasalligini va tezda yetib kelishini tayinlaydi.
2. Lazokatxon qo‘shnisi Aziza xoladan xabar olgani chiqib, unga mehribonlik qiladi.
3. Donoxon Aziza xolanikiga chiqib, uyini tozalab, ovqatini pishirib beradi.
4. O‘ktam Lazokatxondan onasiga nisbatan oqibatsizlik qilgani uchun tanbeh eshitadi.

**Javob:**

--	--	--	--

24. (Mulohaza – 14 ball, qisqa javobli) Matnni o‘qib qanday xulosa(lar)ga kelish mumkin?

1-xulosa: qo‘shnichilik o‘zaro mehr-muruvvat tuyg‘ulari asosiga quriladi.

2-xulosa: ayrimlar mehnatdan qochish uchun ham o‘zlarini har ko‘yga solishadi.

3-xulosa: jamiyatimizda, afsuski, ota-onasiga mehr ko‘rsatmaydigan, qariganda zaif, kasalmand holida ularni yolg‘iz qoldiradigan oqibatsiz farzandlar ham uchrab turadi.

4-xulosa: yoshlar ota-onasidan alohida turishni afzal ko‘rishadi, ular o‘z og‘irliklarini ota-onalariga tashlashni xohlashmaydi.

**Javob:**

--	--	--	--

25. (Mulohaza – 16 ball, kengaytirilgan javobli)

O‘ktamning onasini kasal holida yolg‘iz qoldirib ketishi orqali qanday hayotiy muammo ko‘tarilganini izohlang.

Jamiyatda mehr-shafqat, qo‘ni-qo‘shnichilik munosabatlari haqida mulohaza yuriting.

Fikrlaringizni 80–100 so‘zdan iborat, izchil va mantiqiy matn shaklida ifodalang.

**Javob:** \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

#### 4-BADIIY MATN

21 – 25-savollar matn asosida bajariladi.

Politsiyachi Jim Uels ko‘chalarni tekshirib borardi. U bo‘ydor, oyoqlarini xiyol kerib yurardi. Mahallalardan biriga yetganda qadamini sekinlatdi, temir buyumlar do‘koni oldida bir odamni uchratdi. U politsiyachini ko‘rishi bilan gapira ketdi:

– Hammasi joyida, serjant, oshnamni kutib turibman, bu uchrashuvni yigirma yil oldin rejalashtirgandik. Sizga g‘alati tuyulsa-da, tushuntirib beray. Bu do‘kon o‘rnida oldin “Ota Jo Bredi” restorani bo‘lardi.

– Besh yil oldin buzib tashlashdi, – dedi politsiyachi.

Notanish kimsa gugurt yoqib, sigaret tutatganida uning yuzi, chorburchak jag‘i, o‘tkir ko‘zlari va o‘ng qoshi yonidagi oq chandig‘i ko‘rindi. Yupqa bo‘yinbog‘idagi yirik olmos ko‘zli to‘g‘nog‘ichi charaqlab ketdi.

– Bundan yigirma yil oldin xuddi shu restoranda o‘rtog‘im Jim Uels bilan ovqatlangandik. Ikkalamiz Nyu-Yorkda tug‘ishgan aka-ukalardek katta bo‘lganmiz. Keyin men g‘arbga ketdim. Jimmi Nyu-Yorkda qoldi, u bu shaharni juda sevardi. Biz yigirma yildan so‘ng xuddi shu joyda uchrashishga kelishgandik.

– Qiziq, oradan shuncha yillar o‘tibdi, keyin oshnangizdan xabar bo‘ldimi? – so‘radi politsiyachi.

– Oldiniga bir-ikki yil xat yozishdik, keyin bir-birimizni yo‘qotib qo‘ydik, ammo aniq bilamanki, u shartlashgan joyimizga, albatta, keladi. Biz restoran oldida ajrashganimizda soat roppa-rosa o‘n edi, – deya begona kishi soatini chiqardi – soat qopqog‘iga mayda olmos donachalari qadalgan edi.

– Nazarimda, g‘arbda ishlaring yomon ketmagan, shekilli? – dedi politsiyachi.

– O‘-ho‘, bo‘lmasa-chi!

Politsiyachi: – Bo‘pti, men boray.

– Ha, albatta, yana yarim soat kutaman. Yaxshi boring.

– Tuningiz xayrli bo‘lsin, ser, – politsiyachi yo‘lida davom etdi.

O‘qtin-o‘qtin esib turgan shamol izg‘iringa aylangandi. Necha ming millab yo‘l bosib kelgan kishi esa do‘stiga bergan va‘dasida turish uchun kutardi.

Yigirma daqiqa o‘tgach, baland bo‘yli bir odam ko‘chani shoshib kesib o‘tdida, notanish kishi tomon yurdi.

– Bu senmisan, Bob? – so‘radi yangi kelgan odam ishonqiramay.

– Sen Jimmi Uels emasmisan? – javob qaytardi unisi.

– Yo Parvardigor! – dedi novcha odam sigarali kishining ikkala qo‘lini qo‘llari bilan tutib. – Qara-ya, Bob ekaning kunday ravshan. Yigirma yil – hazilakam gap emas. Xo‘sh, gapir-chi, g‘arbda qanday yashading?

– Zo‘r. U yerda barcha maqsadlarimga erishdim. Sen esa butunlay o‘zgaribsan, Jim. Esimda, sen mendan ikki-uch dyum pastroq eding.

– Ha, yigirmaga to‘lganimdan keyin biroz bo‘yga tortdim.

– Sening ishlaring qalay, Jimmi?

– Yomonmas, shahar muassasalaridan birida xizmat qilaman. Bo‘pti, Bob, yur, bir joyga borib, gaplashamiz.

Ular yo‘lga tushishdi. Bob g‘arbdan omadi yurishib, ko‘zini yog‘ bosib kelgani haqida to‘xtamay gapira ketdi. Boshini yoqasiga tiqib olgan sherigi uni qiziqish bilan tinglardi.

Mahalladagi dorixonaning chirog‘i miltillardi. Yorug‘ga kelgach, har ikkalasining ko‘zi bir-birining yuziga tushdi. G‘arbdan kelgani birdan to‘xtadi.

– Siz Jim emassiz. Yigirma yil – uzoq muddat, ammo kishining novcha burni tugmachadek bo‘lib qoladigan darajada uzoq emas.

– Bu muddatda ajabtovur odam ham muttahamga aylanishi mumkin, – dedi novchasi. – Gap bunday, Bob, o‘n daqiqa bo‘ldiki, siz hibsdasiz, Chikagodagilar sizni shu yerda tutish mumkinligini aytishgandi. Ortiqcha shovqin-suron ko‘tarmaganingizdan minnatdorman. Endi sizni politsiyaga topshirishdan oldin bir xat beraman. Uni shu yerda o‘qing. Buni menga politsiya posboni Jim Uels berdi.

G‘arblik xatni o‘qib bo‘lgach, qo‘llari xiyol titradi. Xat qisqagina edi: “Bob! Men tayinlangan joyga yetib keldim. Gugurt chaqqaningda, men Chikago qidirayotgan odam sen ekanligingni bilib qoldim. Seni o‘zim hibsga ololmasdim, shu bois agentlarimizdan birini yubordim. Jimmi”.

*O. Henri*

**21.** (Bilish – 8 ball) Matn mazmunini qamrab oladigan sarlavha(lar)ni aniqlang.

- A) “Munofiq odam”
- B) “Mahalliy agent”
- C) “Yigirma yildan so‘ng”
- D) “Xilvat ko‘chalar”
- E) “G‘arblik josus”

**Javob:**

--	--	--	--	--

**22.** (Qo‘llash – 9 ball) Matnda tasvirlangan obrazlar va ularning ruhiy holatiga berilgan to‘g‘ri ta‘rif (lar)ni aniqlang.

1. Politsiyachi – aslida o‘zini tanitishni istamagan Jim Uels edi, u o‘z burchiga sodiq, ammo do‘stlikni qadrlamaydigan inson.
2. Bob – oshig‘i olchi, tadbirkor, g‘arbda ancha boylik orttirgan, ammo qidiruvdagi shaxs.
3. Mahalliy agent – ish yuzasidan yolg‘on gapirishga to‘g‘ri kelib qolsa tap tortmaydigan, o‘z ishiga u qadar mas‘uliyat bilan yondashmaydigan obraz.
4. Bob – g‘arbda moddiy jihatdan muvaffaqiyatga erishgan, o‘z rejaları haqida ochiq so‘zlaydi, ishonuvchan va juda ham kamtar kishi.

**Javob:**

--	--	--	--

**23.** (Qo‘llash – 9 ball) Matnda voqealarning rivojlanish ketma-ketligi to‘g‘ri keltirilgan javobni yozing.

1. Mahalliy agent qidiruvga berilgan shaxs – Bobni hibsga oladi.
2. Bob va Jim Uels roppa-rosa yigirma yildan keyin soat 10 da uchrashishga bir-biriga so‘z berishadi.
3. Jim Uels aytilgan joyga o‘z vaqtida yetib kelgandi, ammo u o‘zini Bobga tanitmadi.
4. Jim sobiq do‘stini – qidiruvdagi Bobni o‘zi hibsga olishni xohlamadi va unga xat yozib, mahalliy agentdan berib yubordi.

**Javob:**

--	--	--	--

**24.** (Mulohaza – 14 ball, qisqa javobli) Matnni o‘qib qanday xulosa(lar)ga kelish mumkin?

- 1-xulosa: do‘stlik va burchdan bittasini tanlash zarur bo‘lganda, fidokor insonlar do‘stlikka emas, burchga sodiq qoladilar.
- 2-xulosa: qing‘ir yo‘l orqali topilgan boylik insonga xotirjamlik hissini bermaydi.
- 3-xulosa: siz do‘st deb bilgan, bor siringizni ishongan inson shaxsiy manfaatlari yo‘lida sizga xiyonat qilishi mumkin.
- 4-xulosa: ayrim insonlar dushmanlikni birovning qo‘li bilan qilishi mumkin.

**Javob:**

--	--	--	--

**25.** (Mulohaza – 16 ball, kengaytirilgan javobli)

Bobning yigirma yil oldin berilgan va'dani unutmay uzoq yo'l bosib kelgani nimani anglatishini izohlang.

Vaqt o'tishi bilan insonlarning hayoti, qarashlari va taqdirlari o'zgarishi mumkinligi haqida mulohaza yuriting.

Fikrlaringizni 80–100 so'zdan iborat, izchil va mantiqiy matn shaklida ifodalang.

**Javob:** \_\_\_\_\_

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

## **5-BADIIY MATN**

21 – 25-savollar matn asosida bajariladi.

Hamroyev soat sakkiz yarimda ota-onalar majlisiga borishi kerak, o'g'li Hamdam maktabdan qog'oz olib kelgan. U hech qachon majlisga borganmas, ammo bu safar bormoqchi va bola tarbiyalashni bilmagan o'qituvchilarni uyaltirmoqchi edi. Bu niyati xotiniga ham ma'qul bo'ldi.

– Gapiring, izza qiling! Bolalar maktabda o'qib qayta bevosh bo'lib ketyapti. Siz uyda yo'q vaqtlarda Hamdamingizning dastidan menga kun yo'q. Ilgarilar urib yengar edim, endi uray desam, qochib tomga chiqib ketadi, tomda turib menga tilini ko'rsatadi.

Hamroyev qo'yin daftoriga nimalarnidir yozdi.

– Xo'sh, tag'in nimalar qiladi?

– Tagin... Tag'in bir yildan beri biron marta “aya” deganini eshitganim yo'q, doim “Turondot” deydi.

Hamroyev kulib yubordi. Bu laqabni xotiniga o'zi qo'ygan va shu bilan hammani kuldirgandi.

– “Turondot” deydimi-a? Lekin buni majlisda gapirib bo'lmaydi, bir tomondan gapirsa ham bo'ladi, bola degan kattalarning gapini gapirmasligi kerak.

– Maktabda shularni o‘rgatmasa nimani o‘rgatadi? Quruq ilm bilan bola bola bo‘larkanmi?

Hamroyev tarbiyaga doir ayrim gaplarni yozib qo‘yin daftarini to‘ldirdi, keyin bulardan xulosa chiqardi: – Men biron qog‘ozga o‘qimasdan qo‘l qo‘ysam, sen biron ko‘ylakning yoqasini qiyshiq qadab qo‘ysang, ishga sovuqqonlik bilan qaraganimiz uchun javobgar bo‘lamiz, nima uchun bola tarbiyasiga sovuqqonlik bilan qaragan o‘qituvchiga qonun yo‘q, qani, chaqir bu yoqqa Hamdamni!

Narigi uydan yostig‘ini ko‘tarib, Hamdam chiqdi.

– O‘tir! Nega axloqsizlik qilasan!

– Nima qildim?

– Nima qilganingni bilmaysanmi? Nima uchun oying urganda... xayr, bu ham mayli. Nima uchun oyingni “aya” demay... yo‘q, nima uchun tomda turib, ayangga... umuman, tomlarda yurar emishsan, yer ko‘tarmaydimi? Maktabda senga shuni ta‘lim beradimi? Qani daftarlaring?

Hamdam ayasiga qaradi. — Qachon men tomda yuribman?

– Yo‘q, tomni qo‘y, menga daftarlaringni ko‘rsat! Bu yil o‘qish boshlangandan beri nechta “a‘lo” baho olding?

– Bitta ham... yomon baho olganim yo‘q. Mana...

– Xo‘p, hozir ko‘ramiz... “yaxshi”... “o‘rta”... “o‘rta”... Qani “a‘lo”? Ruschadan nima uchun “yaxshi”?

– A‘lo o‘qisam ham, o‘qituvchimiz “yaxshi” qo‘yadi, “a‘lo”dan “yaxshi” yaxshi deydi.

– Hali siz yolg‘on gapirishni ham bilasizmi?! Beriroq kel! “Yaxshi” yaxshi deydimi?

Hamdam yolg‘on gapirishning bunday oqibatini umrida birinchi ko‘rishi edi, yig‘lab yubordi.

– Menga qara! Kim o‘rgatdi senga yolg‘on gapirishni? Sobiraxon aralashdi:

– Qo‘ying, endi yolg‘on gapirmaydi.

Hamroyev bolaning qulog‘idan cho‘zib, o‘ziga qaratdi.

– Qani, choynakning qopqog‘ini ruscha nima deydi? Samovarning jo‘mragini-chi?

Hamdam ikkovini ham bilmadi va yig‘laganicha uyiga kirib ketdi.

– Yo‘q, bu ishga jiddiy qarash kerak. Shunday bo‘lgandan keyin majlisga jiddiy tayyorgarlik ko‘rib borilmasa bo‘lmaydi.

– Soat sakkiz bo‘ldi, — dedi Sobiraxon.

Hamroyev o‘ylanib qoldi: borsa, gapirish kerak, gapirmaydigan bo‘lsa, borishning keragi yo‘q.

– Yo‘q, bu xilda borishdan foyda yo‘q, Turondot, bu safarcha siz boring. Men yanagi safar jiddiy tayyorgarlik ko‘rib boraman.

– Qo‘ysangiz-chi! Umrinda bormagan joyimga qanaqa qilib boraman? Mening borishimdan nima foyda?

– Foyda bo‘lmasa, ziyon ham yo‘q-ku! Er-xotin foyda-ziyon to‘g‘risida tortishib soatni sakkiz yarim qilishdi. Hamdam chiqdi.

– Nima qilib o‘tiribsizlar? Direktor juda tayinlagan edi, xatni topshirmagandirsan deb meni urishadi.

- Oying bormaydi, borishidan foyda ham yo‘q, men yanagi safar boraman.
  - Mudir so‘rsa shunaqa deymanmi?
  - Nega? Kap-katta bo‘lib shunga ham vaj topolmaysanmi? Dadam ishdan kech keldi, oyim betob yotibdi degin!
- Hamdam dadasiga qaraganicha uzoq turib qoldi...

*Abdulla Qahhor*

**21.** (Bilish – 8 ball) Matn mazmunini qamrab oladigan sarlavha(lar)ni aniqlang.

- A) “Tarbiyasiz tarbiyachilar”
- B) “O‘jar”
- C) “Majlisda”
- D) “Ziyonkor”
- E) “O‘qituvchining aybi”

**Javob:**

--	--	--	--	--

**22.** (Qo‘llash – 9 ball) Matnda tasvirlangan obrazlar va ularning xatti-harakatiga berilgan to‘g‘ri ta‘rif (lar)ni aniqlang.

1. Hamroyev – bolasining tarbiyasizligi uchun o‘zini emas, o‘qituvchilar va maktabni ayblaydigan xudbin odam.
2. Sobiraxon – o‘g‘liga nisbatan qattiqo‘l, oilada ham o‘z o‘rniga ega, eridan mavqeyi ancha ustun turuvchi ayol.
3. Hamdam – aslida ko‘cha bezori, juda tarbiyasiz bola, tarbiyasizlikni u maktabdan, yon-atrofidagi o‘rtoqlaridan o‘rgangan.
4. Maktab direktori – o‘z ishiga puxta kishi bo‘lsa ham, yumshoqtabiatligi uchun aksariyat ota-onalar uni mensimaydilar.

**Javob:**

--	--	--	--

**23.** (Qo‘llash – 9 ball) Matnda voqealarning rivojlanish ketma-ketligi to‘g‘ri keltirilgan javobni yozing.

1. Sobiraxoni o‘g‘lining xulqi yomonlashgani haqida turmush o‘rtog‘iga shikoyat qiladi.
2. Hamroyev ota-onalar majlisiga bormoqchi va o‘qituvchilarni uylatirmoqchi bo‘ladi.
3. Hamdam majlisga borishni istamagan ota-onasi tomonidan yolg‘on gapirishga majbur qilinadi.
4. Ota o‘g‘liga tanbeh berayotib, birdan baholari bilan qiziq ketadi va majlisga bormaslikka qaror qiladi.

**Javob:**

--	--	--	--

**24.** (Mulohaza – 14 ball, qisqa javobli) Matnni o‘qib qanday xulosa(lar)ga kelish mumkin?

1-xulosa: matndan farzand tarbiyasida qo‘shnilar ham mas’ul degan xulosaga kelish mumkin.

2-xulosa: Hamdamning onasiga laqab qo‘yishida atrofidagi o‘rtoqlarining tarbiyasizligi ham sabab bo‘la oladi.

3-xulosa: Hamdamni jazolashdan oldin, ota-onaning o‘zi tarbiyada o‘rnak bo‘lishi kerak.

4-xulosa: har bir ota-ona bola tarbiyasini o‘z zimmasiga olishi lozim.

**Javob:**

--	--	--	--

**25.** (Mulohaza – 16 ball, kengaytirilgan javobli)

Hamroyevning farzand tarbiyasida faqat o‘qituvchilarni ayblash sababini izohlang. Ota-ona, maktab va o‘qituvchilarning bola tarbiyasidagi o‘rni haqida mulohaza yuriting.

Fikrlaringizni 80–100 so‘zdan iborat, izchil va mantiqiy matn shaklida ifodalang.

**Javob:** \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

## **6-BADIIY MATN**

21 – 25-savollar matn asosida bajariladi.

Qishloq bolasining vazifasi – mol boqish. Bizning ham sigirimiz bor edi. Tengqur bolalar bilan jiydazorda mol boqar edik. Adashmasam, o‘shanda beshinchi sinfda o‘qir edim. Jiydazorda o‘t ko‘p. Bekinmashoq o‘ynashga ham qulay joy. Faqat kun botar-botmas, har kim o‘z molini yetaklab uyiga jo‘nar, jiydazorda ajina bor, degan vahima gaplar yurardi. Mening sigirim yuvosh bo‘lsa ham bir aybi bor edi. Nuqul qozig‘ini sug‘urib “daydib ketardi”. Bilasiz qoziq yog‘ochdan yasaladi. Har kuni qoqavergandan keyin boshi yediriladi, sinadi. Qarabsizki, boshqa qoziq yasash kerak...

Shunday kunlardan birida temir qoziq topib oldim. Boshida halqasi ham, hatto uzilib qolgan bir-ikki qarich arqoni bor. O‘rtoqlarimdan “kimning qozig‘i” deb so‘rasam egasi chiqmadi. Sevinib ketib sigirimni yangi qoziqqa bog‘lab qo‘ydim: endiyam sug‘urib ko‘rsin-chi!

O'sha kuni emas-ku ertasiga g'alati ish bo'ldi. Kechasi endi uxlaganimda otam chaqirib qoldi. Hayron bo'lib ayvonga chiqsam, qovog'ini uyib o'tiribdi. Qo'lida o'sha temir qoziq.

– Qayoqdan olding buni? – dedi tahdid bilan. Otamdan qattiq hayiqardik. Qo'rqib ketdim.

– Topib oldim? – dedim rostini aytib.

– Qayerdan?

– Qiyshiq jiydaning tagidan.

– Jiydaning to'g'risi bo'lmaydi, qaysi birining tagidan? Ko'rsang taniysanmi o'sha jiydani?

– Taniyman, – dedim qo'rqa-pisa.

Otam qo'limga qoziqni tutqazdi.

– Xuddi o'sha jiydaning tagiga tashlab kelasan!

Yuragim orqaga tortib ketdi. Jiydazorda “ajina” borligi esimga tushib, talmovsirab qoldim.

Ayvon burchagida turgan oyim yalindi:

– Tashlab keladi, adasi, tong otsin, albatta, tashlab keladi.

– Sen aralashma! – dedi otam e'tirozga o'rin qoldirmaydigan ohangda.

Uyg'onib, ichkaridan chiqqan akam hammasini tushundi, shekilli, kostyumini kiya boshlagan edi, otam jerkib berdi:

– Sen qayoqqa?

– Birga borib kelamiz.

– Yo'q! – dedi otam shiddat bilan. – O'zi topganmi, o'zi oborib qo'yadi!

Kuz, salqin tushib qolgan. Qo'limda muzdek temir qoziq bilan yo'lga tushdim. G'ira-shira ko'roydinda sirli sukunat cho'kkan jiydazorga kirdim... Nazarimda har bir daraxt orqasida nimadir berkinib turgandek edi. Qayerdadir boyquch “huv-huv”ladi... Rostini aytsam, jiyda yonigacha bormay, qoziqni kuchim boricha uloqtirib orqaga qarab yugurdim...

Labimga uchuq toshib, bir-ikki kun achishib yurganini hisobga olmaganda hech nima bo'lmadi... Faqat oradan bir oy o'tgach, otam shu masalaga qaytib, bir gap aytdi.

– Sen topib olgan qoziqqa bog'langan sigir arqonini uzib, adashib ketgan bo'lsa yoki birov o'g'irlagan bo'lsa-yu, qoziq sening uyingdan chiqsa, egasi seni o'g'ri gumon qilsa, nima bo'ladi?

Otamning savoliga javob yo'q edi...

Oradan ko'p yillar o'tgach, yana bir voqea bo'ldi. Sochiga dam olishga bordim. Dam oluvchilar siyrak, xonalar bemalol. Menga alohida xona berishdi. Xonaga joylashdim. Yuvinish uchun vannaga kirayotsam, xizmatchi ayol kirib, ko'rpa-to'shaklarni almashtira boshladi. So'ng divan boshidagi stolcha tortmasini ochgan edi, bir dasta pul chiqdi. Katta pul!..

– Kechirasiz, – dedi ayol xijolat chekib. – Men bexosdan...

Xayrlashib chiqib ketayotgan edi, to'xtatdim.

– Bu pul meniki emas.

– Meni sinamoqchimisiz? – dedi ayol ranjib. – Xonaning egasi ketganiga uch kun bo'ldi. Pulini unutib qoldirgan bo'lsa allaqachon dovlangan bo'lardi...

– Meniki emas, – dedim takrorlab. – Olib keting!  
Shu kecha otam tushimga kirdi. Kulib turganmish...

*O'tkir Hoshimov*

**21.** (Bilish – 8 ball) Matn mazmunini qamrab oladigan sarlavha(lar)ni aniqlang.

- A) “Temir qoziq sabog‘i”
- B) “Qaytar dunyo”
- C) “Otamning kulgisi”
- D) “Vijdonsiz bola”
- E) “Yo‘qolgan sigir”

**Javob:**

--	--	--	--	--

**22.** (Qo‘llash – 9 ball) Matnda tasvirlangan obrazlar va ularning ruhiy holatiga berilgan to‘g‘ri ta’rif (lar)ni aniqlang.

1. Bola – biroz hajldor, hamma bilan ham chiqishib ketolmaydi, doim yolg‘iz yuradi.
2. Ota – farzandlariga qattiqqo‘l va talabchan, hikoyadagi eng muhim saboq beruvchi obraz.
3. Ona – bolalariga nisbatan judayam qattiqqo‘l, doim o‘zini birinchi o‘ringa qo‘yadigan ayol.
4. Xizmatchi ayol – anchagina ayyor bo‘lsa-da ishini puxta qiladigan, har bir mijozdan keyin xonani miridan-sirigacha tozalaydigan obraz.

**Javob:**

--	--	--	--

**23.** (Qo‘llash – 9 ball) Matnda voqealarning rivojlanish ketma-ketligi to‘g‘ri keltirilgan javobni yozing.

1. Bola qorong‘u tushganda jiydazorga borishini eshitib, qo‘rquvga tushadi.
2. Bola sigirini boqib yurganda jiydazordan temir qoziq topib oladi.
3. Otasining ovozidan uyg‘onib ayvonga chiqqan aka ukasiga yordam bermoqchi bo‘ladi.
4. Kechasi yurishidan xavotirga tushgan ona bolasining jiydazorga borishini xohlamaydi.

**Javob:**

--	--	--	--

**24.** (Mulohaza – 14 ball, qisqa javobli) Matnni o‘qib qanday xulosa(lar)ga kelish mumkin?



ketdi-ku bechora... Ustiga ustak xotin-xalaj yuvingani o'tishga qiynalyapti. Norozilik bilan to'ng'illab o'rnimizdan turishga majbur bo'ldik.

– Biron narsasini o'g'irlab qo'ying, ikkinchi saharlab hammani bezovta qilmaydigan bo'ladi, – dedi Ozod aka.

Bahodir akaning yap-yangi do'ppisi vagon tokchasida yotgan ekan. Olib portfelimga solib qo'ydim. Domla terlab-pishib kirib keldi.

– Ha, dangasalar, turdinglarmi? – dedi iljayib.

Qorako'l stansiyasida poyezd ikki daqiqa to'xtar ekan. Hammamiz tushib ketyapmiz-u, Bahodir aka nuqul timirskilanadi. „Nima bo'ldi“ desak, „do'ppimni topolmayapman“, deydi.

Ozod aka jerkib berdi.

– Qanaqa odamsiz o'zi, sizning do'ppingiz deb poyezd to'xtab turarmidi? Bo'ling tezroq!

Pastga tushishimiz bilan Ozod aka juda jiddiy qilib gap boshladi.

– Bu tomonlarda meningit kasali tarqalgan deyishadi, ehtiyot bo'p yuringlar.

– Meningit nimadan bo'ladi? – so'radi Abdug'afur aka „soddalik“ bilan.

– Nimadan bo'lardi, shamollashdan-da!

– Eng kerakligi bosh-da, – dedi Begali falsafiy ohangda.

– Meningitga yo'liqqan odam uch kunda o'ladi. – Ozod aka qattiq tayinladi. –

Ayniqsa, boshni ehtiyot qilinglar!

Bahodir aka sekin yonimga keldi.

– O'tkirjon, – dedi, – mabodo bironta ortiqcha do'ppingiz yo'qmi?

– Ortiqchasi yo'q-ku, o'zimmiki bor. Sizga kichkina kelarmikin deyman...

– Mayli, vaqtinchaga bo'lsayam, – deb domla endi gap boshlashi bilan Ozod aka meni urishib berdi:

– Bosh kiyimni birovga berib bo'lmaydi. Tem bolee, safarda yurganda. Kimdir boyagi gapni davom ettirdi.

– Uch kunda deysiz-ku, odam bir kunda o'lishi ham mumkin. Albatta, har kimning organizmi har xil-da...

Bahodir aka yalinishga tushdi.

– Xo'p desangiz, do'ppingizni sotib olardim, ukajon.

Og'ringan kishi bo'lib portfelimni ochdim.

– Yigirma besh so'mga oluvdim, – dedim iymanibroq. (U paytdagi yigirma besh so'm katta pul edi.)

– O'ttiz so'm! – Ozod aka gapni kesdi. – Bu yoqlarda do'ppi qimmat.

O'ttiz so'mga „bor-baraka“ qildik. Pul menga, do'ppi Bahodir akaga o'tdi.

– Iye, o'zimmiki, shekilli? – domla yupqa ko'zoynagini taqib do'ppiga uzoq termilib qoldi.

Ozod akaning „jahli“ chiqib ketdi.

– Bering, pulini qaytarib bering! Bir odam o'z hayotini xavf ostida qoldirib yaxshilik qilsa-yu, bu kishi...

– Yo'q, yo'-o'q! – Bahodir aka do'ppini mahkam changallab oldi. Boshiga kiyib mamnun jilmaydi. – To'g'ri aytibsiz, sal kichikroq ekan. Mayli, bo'laveradi. – Do'ppini yechib yana tomosha qildi. – Qarang, siznikini guli ham boshqacharoq ekan. Meni ranjidi, deb o'yladi shekilli, ko'nglimni ko'tardi:

– Xafa bo‘lmang, ukajon. Ertalab yo‘lakka chiqib ketayotganimda kupe eshigi oldida afti xunukroq bir odam turgandi. Menikini o‘sha o‘g‘irlagan. Toshkentga borsak, sizga o‘zim yaxshi do‘ppi olib beraman. Rahmat, ukajon!

*O‘tkir Hoshimov*

**21.** (Bilish – 8 ball) Matn mazmunini qamrab oladigan sarlavha(lar)ni aniqlang.

- A) “Hazilkash yo‘ldoshlar”
- B) “Beg‘uborlik”
- C) “Gurung”
- D) “Sog‘ tanda – sog‘lom aql”
- E) “Hazilning tagi – zil”

**Javob:**

--	--	--	--	--

**22.** (Qo‘llash – 9 ball) Matnda tasvirlangan obrazlar va ularning ruhiy holatiga berilgan to‘g‘ri ta‘rif (lar)ni aniqlang.

1. Ozod aka – vaziyatni atay dramatik qilib ko‘rsatishga usta, hazilkash va topqir inson.
2. Bahodir G‘ulomov – boshqalar tomonidan ko‘p aldanib qolganligi uchun hech kimga ishonmay qo‘ygan kishi.
3. Hikoyachi (O‘tkirjon) – domlaning soddaligidan foydalanib pul ishlaydigan ayyor odam.
4. Abdug‘afur Rasulov – hamrohlariga qo‘shilmaydigan hazilni yoqtirmaydigan odam.

**Javob:**

--	--	--	--	--

**23.** (Qo‘llash – 9 ball) Matnda voqealarning rivojlanish ketma-ketligi to‘g‘ri keltirilgan javobni yozing.

1. Bahodir aka bosh kiyimsiz qolishdan cho‘chib, hikoyachidan do‘ppi so‘raydi, Ozod aka esa narxini oshiradi.
2. Ozod aka “bu yerlarda meningit tarqalgan” deb hazilni davom ettiradi va boshni ehtiyot qilish kerakligini aytadi.
3. Qorako‘l stansiyasiga yetganda Bahodir aka do‘ppisini topolmay ovora bo‘ladi.
4. Vagon kuzatuvchisi Bahodir akaning saharlab yugurib hammani bezovta qilayotganini aytadi.

**Javob:**

--	--	--	--	--

**24.** (Mulohaza – 14 ball, qisqa javobli) Matnni o‘qib qanday xulosa(lar)ga kelish mumkin?

1-xulosa: chinakam qalbi pok va samimiy kishilar boshqalarni ham o‘zi kabi o‘ylaydi.

2-xulosa: safardagi qiziqarli sarguzashtlar insonning xotiralarida muhrlanib qoladi.  
3-xulosa: do‘stlikni niqob qilib, o‘z maqsadida foydalanuvchi insonlar ham ko‘p.  
4-xulosa: o‘zgalarning boshiga tushgan tashvishdan rohat topadigan kishilardan uzoq yurgan ma’qul.

**Javob:**

--	--	--	--

**25.** (Mulohaza – 16 ball, kengaytirilgan javobli)

Bahodir akaning do‘ppi bilan bog‘liq voqeaga munosabatini izohlang.  
Agar siz Bahodir akaning o‘rnida bo‘lganingizda va do‘ppingizni shunday hazil bilan “sotib olishganida”, qanday munosabat bildirgan bo‘lardingiz? O‘z fikringizni asoslab yozing.  
Fikrlaringizni 80–100 so‘zdan iborat, izchil va mantiqiy matn shaklida ifodalang.

**Javob:** \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

## 8-BADIIY MATN

21 – 25-savollar matn asosida bajariladi.

Qishloq bolasining vazifasi – mol boqish. Bizning ham sigirimiz bor edi. Tengqur bolalar bilan jiydazorda mol boqar edik. Adashmasam, o‘shanda beshinchi sinfda o‘qir edim. Jiydazorda o‘t ko‘p. Bekinmachoq o‘ynashga ham qulay joy. Faqat kun botar-botmas, har kim o‘z molini yetaklab uyiga jo‘nar, jiydazorda ajina bor, degan vahima gaplar yurardi. Mening sigirim yuvosh bo‘lsa ham bir aybi bor edi. Nuqul qozig‘ini sug‘urib “daydib ketardi”. Bilasiz qoziq yog‘ochdan yasaladi. Har kuni qoqavergandan keyin boshi yediriladi, sinadi. Qarabsizki, boshqa qoziq yasash kerak...

Shunday kunlardan birida temir qoziq topib oldim. Boshida halqasi ham, hatto uzilib qolgan bir-ikki qarich arqoni bor. O‘rtoqlarimdan “kimning qozig‘i” deb

so‘rasam egasi chiqmadi. Sevinib ketib sigirimni yangi qoziqqa bog‘lab qo‘ydim: endiyam sug‘urib ko‘rsin-chi!

O‘sha kuni emas-ku ertasiga g‘alati ish bo‘ldi. Kechasi endi uxlaganimda otam chaqirib qoldi. Hayron bo‘lib ayvonga chiqsam, qovog‘ini uyib o‘tiribdi. Qo‘lida o‘sha temir qoziq.

– Qayoqdan olding buni? – dedi tahdid bilan. Otamdan qattiq hayiqardik. Qo‘rqib ketdim.

– Topib oldim? – dedim rostini aytib.

– Qayerdan?

– Qiyshiq jiydaning tagidan.

– Jiydaning to‘g‘risi bo‘lmaydi, qaysi birining tagidan? Ko‘rsang taniysanmi o‘sha jiydani?

– Taniyman, – dedim qo‘rqa-pisa.

Otam qo‘limga qoziqni tutqazdi.

– Xuddi o‘sha jiydaning tagiga tashlab kelasan!

Yuragim orqaga tortib ketdi. Jiydazorda “ajina” borligi esimga tushib, talmovsirab qoldim.

Ayvon burchagida turgan oyim yalindi:

– Tashlab keladi, adasi, tong otsin, albatta, tashlab keladi.

– Sen aralashma! – dedi otam e‘tirozga o‘rin qoldirmaydigan ohangda.

Uyg‘onib, ichkaridan chiqqan akam hammasini tushundi, shekilli, kostyumini kiya boshlagan edi, otam jerkib berdi:

– Sen qayoqqa?

– Birga borib kelamiz.

– Yo‘q! – dedi otam shiddat bilan. – O‘zi topganmi, o‘zi oborib qo‘yadi!

Kuz, salqin tushib qolgan. Qo‘limda muzdek temir qoziq bilan yo‘lga tushdim. G‘ira-shira ko‘roydinda sirli sukunat cho‘kkan jiydazorga kirdim... Nazarimda har bir daraxt orqasida nimadir berkinib turgandek edi. Qayerdadir boyquch “huv-huv”ladi... Rostini aytsam, jiyda yonigacha bormay, qoziqni kuchim boricha uloqtirib orqaga qarab yugurdim...

Labimga uchuq toshib, bir-ikki kun achishib yurganini hisobga olmaganda hech nima bo‘lmadi... Faqat oradan bir oy o‘tgach, otam shu masalaga qaytib, bir gap aytdi.

– Sen topib olgan qoziqqa bog‘langan sigir arqonini uzib, adashib ketgan bo‘lsa yoki birov o‘g‘irlagan bo‘lsa-yu, qoziq sening uyingdan chiqsa, egasi seni o‘g‘ri gumon qilsa, nima bo‘ladi?

Otamning savoliga javob yo‘q edi...

Oradan ko‘p yillar o‘tgach, yana bir voqea bo‘ldi. Sochiga dam olishga bordim. Dam oluvchilar siyrak, xonalar bemalol. Menga alohida xona berishdi. Xonaga joylashdim. Yuvinish uchun vannaga kirayotsam, xizmatchi ayol kirib, ko‘rpa-to‘shaklarni almashtira boshladi. So‘ng divan boshidagi stolcha tortmasini ochgan edi, bir dasta pul chiqdi. Katta pul!..

– Kechirasiz, – dedi ayol xijolat chekib. – Men bexosdan...

Xayrlashib chiqib ketayotgan edi, to‘xtatdim.

– Bu pul meniki emas.

– Meni sinamoqchimisiz? – dedi ayol ranjib. – Xonaning egasi ketganiga uch kun bo‘ldi. Pulini unutilib qoldirgan bo‘lsa allaqachon dovlangan bo‘lardi...  
– Meniki emas, – dedim takrorlab. – Olib keting!  
Shu kecha otam tushimga kirdi. Kulib turganmish...

*O‘tkir Hoshimov*

21. (Bilish – 8 ball) Matn mazmunini qamrab oladigan sarlavha(lar)ni aniqlang.

- A) “Aybsiz – aybdor”
- B) “Saboq”
- C) “Bebosh sigir”
- D) “Tekin pishloq qopqonda bo‘lar”
- E) “Qishloqdagi sarguzasht”

**Javob:**

--	--	--	--	--

22. (Qo‘llash – 9 ball) Matnda tasvirlangan obrazlar va ularning ruhiy holatiga berilgan to‘g‘ri ta‘rif (lar)ni aniqlang.

1. Bola – otasining tarbiyasini ich-ichidan his qiladigan, minnatdor farzand.
2. Ota – farzandlariga qattiqqo‘l va juda jahldor, o‘g‘liga shafqatsiz.
3. Aka – ukasining qilgan ishidan jahli chiqib, undan qattiq ranjiydi.
4. Xizmatchi ayol – juda shartaki, pul uchun hech narsadan qaytmaydi.

**Javob:**

--	--	--	--

23. (Qo‘llash – 9 ball) Matnda voqealarning rivojlanish ketma-ketligi to‘g‘ri keltirilgan javobni yozing.

1. Bola boshida halqasi bor temir qoziq topib oladi.
2. Bola tengqur bolalar bilan jiydazorda mol boqib, bekinmashoq o‘ynab yuradi.
3. Akasi jiydazorga ukasiga hamroh bo‘lib bormoqchi bo‘ladi.
4. Bola kechasi endi uxlaganida otasi chaqirib qoladi va qo‘rqib ayvonga chiqadi.

**Javob:**

--	--	--	--

24. (Mulohaza – 14 ball, qisqa javobli) Matnni o‘qib qanday xulosa(lar)ga kelish mumkinligini aniqlang.

- 1-xulosa: turli shubha va gumonlar oqibatda chinga aylanishi mumkin.
- 2-xulosa: halol yashash – eng to‘g‘ri va eng osoyishta yo‘l.
- 3-xulosa: tarbiyadagi e‘tiborsizlik yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin.
- 4-xulosa: har bir mehnatning o‘z narxi bor.

**Javob:**

--	--	--	--

**25.** (Mulohaza – 16 ball, kengaytirilgan javobli)

Otaning temir qoziqni topilgan joyiga qaytarishni talab qilishi nimani anglatishini izohlang.

Halollik va ota-ona tarbiyasining inson hayotidagi muhim o‘rni haqida mulohaza yuriting.

Fikrlaringizni 80–100 so‘zdan iborat, izchil va mantiqiy matn shaklida ifodalang.

**Javob:** \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

## **9-BADIIY MATN**

21 – 25-savollar matn asosida bajariladi.

Siz nima desangiz deyavering-u, ammo men birinchi aprelni har yili bayram qilaman. O‘n yildan buyon.

O‘shanda yon qo‘shnim bo‘lardi. Bitta „dom“ning bitta qavatida, bitta devorning ikki tomonida yashardik. O‘lgudek g‘alamis edi. Bir kuni devorga marhum dadamning suratini ilib qo‘ymoqchi bo‘ldim. Bilasiz, beton devorga mix o‘tishi qiyin. Amallab qoqib qo‘ydim. Ertasiga qarasam, devorning narigi tomonidan bir qarichli mix turtib chiqib turibdi. Qo‘shnim menga qasdma-qasdlikka mix qoqib, allambalo surat osib qo‘ygan bo‘lsa kerak. Hayit kuni to‘rt yashar o‘g‘lim xursand bo‘lsin deb o‘yinchoq surnaycha olib kelgandim. Qo‘shnim allaqaysi kolleжда o‘qiydigan o‘g‘liga rostmana karnay olib berdi. Kechasi bilan ota-bola karnay chalishni mashq qilib chiqishdi.

Kuchanib chalinsa, karnay g‘alati ovoz chiqararkan... Oddiy magnitofonimiz bor edi. Bir kuni bolalar ovozini qattiqroq chiqarib qo‘shiq eshitgan ekanmi, ertasiga qo‘shnim „muzikalniy sentri“ning karnayini bizning devorga qapishtirib, tuni bilan „rok-muzika“ qo‘yib chiqdi... Har kim oldidagi maydonchaga ko‘chat o‘tqazgan edi. Bizning ikki tup gilos qiyg‘os gulladi. Qo‘shnim ekan tolning avjidan darak yo‘q. Ammo quvonchim uzoqqa cho‘zilmadi, gilolarimizga endi rang kirganda qurib qoldi. Tagidan nuqul kerosin hidi keladi. Noiloj arralab tashladik. Buning ustiga telefonimiz qo‘shnim bilan ulanib qolgan. Qachon qo‘ng‘iroq qilmoqchi bo‘lsam, qo‘shnim go‘shakni ko‘tarib qo‘yadi. Mengayam yo‘q, ungayam.

Bir kuni ishxonada o‘rtog‘imga hasrat qilib qoldim.

– Bori shumi? – dedi o‘rtog‘im. – Mana ko‘rasan, birinchi aprelgacha qo‘shning masalasini hal qilamiz.

U shunday dedi-yu, qo‘shnimga telefon qildi. Parallel telefonda men ham eshitib turibman.

– Bu Olimovning uyimi? – deb so‘radi o‘rtog‘im.

– Yo‘q, men qo‘shnisiman. Nimaydi? – dedi qo‘shnim.

– Men institutda birga o‘qigan o‘rtog‘iman, – dedi do‘stim. – Olimovni tabriklab qo‘ymoqchi edim. Qo‘shma korxonaga rahbar bo‘pti.

– Maoshiyam oshgandir? – dedi qo‘shnim uf tortib.

– Ha, dollar oladi! Qo‘shnim indamay go‘shakni ilib qo‘ydi.

Kechqurun borsam, salomlashmay uyiga kirib ketdi.

Ertasiga do‘stim yana qo‘ng‘iroq qildi.

– Bu Olimovning uyimi?

– Yo‘q, nimaydi? – dedi qo‘shnim.

– Olimovni deputatlikka nomzod qilishgan ekan. Shunga xursand bo‘lib qo‘ng‘iroq qilayotgandim.

Kechqurun kelsam, qo‘shnim zinadan tushib ketyapti. Meni ko‘rishi bilan qo‘lidagi konvertni yashirdi. „Yumaloq xat“ yozgani aniq. Indamay ketaverdim. Indiniga yana do‘stim telefon qildi.

– Bu Olimovning uyimi?

– Yo‘q, dedim-ku! – Qo‘shnim ingrab yubordi. – Nima gap? Men uning qo‘shnisiman.

– Tashqi ishlar vazirligidan qo‘ng‘iroq qilyapmiz, Olimov tanlovda g‘olib chiqqani uchun chet elga bir oylik sayohatga borishi kerak. Tezroq hujjatini topshirsa bo‘lardi. Malol kelmasa, shuni aytib qo‘ysangiz...

Kechqurun kelsam, qo‘shnim, qurib qolgan tol tagidagi xarrakda xomush o‘tiribdi. Rangi bir holatda.

– Tinchlikmi qo‘shni? – dedim kulib. – Xafa ko‘rinasiz?

– Mazam yo‘q, – dedi inqillab. Ammo telefonda eshitgan „yangiligini“ aytmadi.

Uch kundan keyin do‘stim qo‘ng‘iroq qildi.

– Bu Olimovning uyimi?

– Olimov o‘lar holatda yotibdi! – dedi qo‘shnim ming‘illab. – Nima deb qo‘yay?

– Attang! – dedi do‘stim. – Qo‘shningiz lotereyaga mashina yutgan ekan. Olib ketsin, demoqchiydik.

Telefonda qisqa-qisqa gudok eshitildi. Kechqurun kelsam, qo‘shnim yo‘q. Yurak o‘ynog‘i tutib, kasalxonaga olib ketishibdi. Bir oydan keyin qaytib keldi. Ammo uzoq turolmadi. Bizning „dom“imizdan ko‘chib ketdi. O‘sha kuni birinchi aprel edi. Mana, o‘n yil o‘tibdi. Shundan buyon har gal birinchi apelni bayram qilamiz.

*O‘tkir Hoshimov*

**21.** (Bilish – 8 ball) Matn mazmunini qamrab oladigan sarlavha(lar)ni aniqlang.

A) “Yutuqli bilet”

B) “G‘alamis”

C) “Qurigan gilos”

- D) “Telefon”  
E) “Devor”

**Javob:**

--	--	--	--	--

**22.** (Qo‘llash – 9 ball) Matnda tasvirlangan obrazlar va ularning ruhiy holatiga berilgan to‘g‘ri ta’rif (lar)ni aniqlang.

1. Olimov – atrofdagilardan alamzada, qasosni ochiq emas, bilvosita yo‘l bilan oladigan inson.
2. Qo‘shni – boshqalarning yutug‘ini ko‘rolmaydigan hasadgo‘y, basma-basiga ish qiladigan odam.
3. Olimovning do‘sti – hammaga hazil qilib telefonda vaqt o‘tkazadigan bekorchi kishi.
4. Qo‘shni – iqtidorli insonlarga havas qilib, ularga o‘xshashga harakat qiladigan taqlidchi.

**Javob:**

--	--	--	--

**23.** (Qo‘llash – 9 ball) Matnda voqealarning rivojlanish ketma-ketligi to‘g‘ri keltirilgan javobni yozing.

1. Do‘sti 1-aprel hazilini rejalashtiradi va qo‘shniga Olimovning katta lavozimga tayinlangani haqida yolg‘on xabar beradi.
2. Qo‘shnisi ko‘chib ketgandan keyin Olimov har yili 1-aprelni bayram qiladigan bo‘ladi.
3. Olimovning maydonchadagi gilos ko‘chatlari kerosin sepilgani sabab qurib qoladi.
4. “Lotereya yutug‘i” haqidagi xabardan so‘ng qo‘shni yurak xurujiga uchraydi.

**Javob:**

--	--	--	--

**24.** (Mulohaza – 14 ball, qisqa javobli) Matnni o‘qib qanday xulosa(lar)ga kelish mumkin?

- 1-xulosa: haddan ziyod qo‘pol hazil insonlar o‘rtasidagi samimiy munosabatlarning yemirilishiga olib keladi.
- 2-xulosa: raqobatchilik insonlarning o‘z ustida yanada ko‘proq ishlashini ta’minlaydigan jarayon.
- 3-xulosa: inson boshqalarning baxtidan quvonishni o‘rgansa, o‘zi ham tinch yashaydi.
- 4-xulosa: hasad insonlarga zarar keltiruvchi, qalbini va ruhiyatini kemiruvchi illat.

**Javob:**

--	--	--	--

**25.** (Mulohaza – 16 ball, kengaytirilgan javobli)

Bahodir G‘ulomovning sodda, samimiy va beg‘ubor fe‘l-atvori qaysi voqealar orqali ochib berilgan?

Samimiylik va sodda qalbli bo‘lish insonni boshqalarga yanada yaqin qilishi haqida mulohaza yuriting.

Fikrlaringizni 80–100 so‘zdan iborat, izchil va mantiqiy matn shaklida ifodalang.

**Javob:** \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

## 10-BADIIY MATN

21 – 25-savollar matn asosida bajariladi.

Toshkent dorilfununining domlasi Bahodir G‘ulomov boladek beg‘ubor, o‘ta samimiy, sodda odam edi. (Afsus, bevaqt vafot etdi.) Safarga chiqadimi, otirishga keladimi, deyarli har gal navbatdagi „shumlik“ning „qurboni“ bo‘lib, yo choyxona palovga, yo ziyofatga „tushar“, „tushmagani“ga, qo‘ymas edik.

Bir gal Bobotog‘da, archa tagida davra qurib o‘tiribmiz. Bahodir aka tandir pishguncha „jindek mizg‘ib olish“ uchun yonboshladi-yu, pinakka ketdi. Keyin motori yaxshilab sozlangan mashinadek bir tekis, osoyishta xurрак torta boshladi. Qarasak, pidjagining ich cho‘ntagidan pasporti ko‘rpachaga tushib qolibdi. Tabiiyki, pasportni “o‘g‘irladik”. Ozod Sharafiddinov „tekshiruv“ operatsiyasini ishlab chiqdi. Bizni tog‘ga olib chiqqan „RAF“ mashinasida mezbonlardan biri azza-bazza pastga tushib, bo‘lajak hangomani pishitib chiqdi.

Tandir pishganda domla uyg‘ondi. Yeyildi, ichildi. Kechga tomon sharillatib jala quyib berdi. Mashina sirg‘alib-sirg‘alib, amallab pastga tushib oldi. Hamon momaqaldiroq gumburlaydi, yomg‘ir chelaklab quyib turibdi. Biydek dalaning qoq o‘rtasida bir militsioner mashinani to‘xtatdi. „RAF“ga chiqib sovuqdan tishlari takillagancha gapirdi.

– Kechirasizlar, hujjatlaringizni ko‘rsatinglar!

Jahlimiz chiqqan bo‘lib, pasportlarimizni ko‘rsata boshladik. Bahodir aka tipirchilab qoldi.

– Boshpurtim yo‘q-ku! – dedi xavotirlanib. – Haligina yonimda edi. Xuddi shu payt militsioner yigit domlaning yaqiniga keldi.

– Marhamat, sizning hujjatingiz!

– Haligina bor edi, – dedi Bahodir aka alanglab. – Mana, bular guvoh, boshpurtim bor edi.

– Nima gap o‘zi, cho‘rt poberi? – dedi Ozod aka achchiqlangan bo‘lib.

– Xavfli jinoyatchi tog‘ga qochgan, degan xabar bor. – Militsioner yigit Bahodir akaga qarab qo‘yib davom etdi. – O‘zi keksaroq, ko‘zoynak taqib yuradi, tilla tishi bor, deyishgan.

– Voy, bu meni aytyapti shekilli! – Domla butunlay esankirab qoldi. Yaylovning qoq o‘rtasida militsioner nima qiladi, nega endi mashinani tekshirishi kerak, degan gap xayoliga ham kelmadi. – Men jinoyatchi emasman, ukajon, – dedi yalinib. – Olimman, Toshkentdan kelganmiz. Mana, hammalari guvoh.

– Men bu olimni tanimayman! – dedi Ozod aka jiddiy qiyofada. – Hozir, yo‘ldan mashinaga chiqdi.

– Voy, domla, esingizni yedingizmi? – Bahodir aka hammamizga javdirab qaradi. – Unaqa hazil qilmanglar. Meni hammasi taniydi.

Biz ham Bahodir akani „tanimadik“.

– Pastga tushishingizga to‘g‘ri keladi. – Militsioner kulib yubormaslik uchun teskari qaradi.

Domla xo‘p yalinganidan keyin uni „kafillikka“ oladigan bo‘ldik. Evaziga bitta ziyofat qilinadigan bo‘ldi. Militsioner shofyor yoniga o‘tirib uf tortdi.

– Qoyil-e, ikki soatdan beri kutaman-a! Hamma yog‘im shiltayi shalabbo bo‘ldi-ku!

– Nima deyapti? – so‘radi Bahodir aka ovozi pasaytirib.

– Jim! – dedim labimni tishlab. – Jahli chiqib turibdi. Melisa bilan hazillashib bo‘ladimi? Omon qolganingizga quvonmaysizmi?

– Rost aytasiz. Quruq tuhmatdan asrasin! – Bahodir aka qunishib o‘tirib olganicha shaharga kirgunimizcha bir og‘iz ham gapirmadi. Ertasiga domlaning pasportini “topib“, suyunchisiga yana bitta osh qarzdor qildik.

*O‘tkir Hoshimov*

**21.** (Bilish – 8 ball) Matn mazmunini qamrab oladigan sarlavha(lar)ni aniqlang.

- A) “Quruq tuhmat”
- B) “Militsioner”
- C) “Sodda inson”
- D) “Hazil – tagi zil”
- E) “Qiyofadosh”

**Javob:**

--	--	--	--	--

**22.** (Qo‘llash – 9 ball) Matnda tasvirlangan obrazlar va ularning xatti-harakatiga berilgan to‘g‘ri ta’rif (lar)ni aniqlang.

1. Bahodir aka (domla) – beparvo, doim narsalarini yo‘qotib yuradigan e’tiborsiz qariya.
2. Militsioner – yolg‘on gapirishga to‘g‘ri kelib qolsa, tap tortmaydigan, o‘z ishiga mas’uliyatsiz xodim.
3. Hikoyachi – hazil-mutoyibani yaxshi ko‘radi, hazilning muvaffaqiyatli chiqayotganidan mamnun.

4. Ozod aka – o‘z rejaları haqida ochiq so‘zlaydi, ishonuvchan va juda ham sodda kishi.

**Javob:**

--	--	--	--

**23.** (Qo‘llash – 9 ball) Matnda voqealarning rivojlanish ketma-ketligi to‘g‘ri keltirilgan javobni yozing.

1. Militsioner “jinoyatchi” ta’rifini aytgach, Bahodir aka esankirab qoladi.
2. “Militsioner” bilan kelishilib, sahnalashtirilgan tekshiruv uyushtiriladi.
3. Domlaning ich cho‘ntagidan pasporti tushib qoladi va do‘stlari uni yashirib qo‘yishadi.
4. Militsioner mashina tog‘dan pastga tushayotganda hujjat tekshirish uchun ularni to‘xtatadi.

**Javob:**

--	--	--	--

**24.** (Mulohaza – 14 ball, qisqa javobli) Matnni o‘qib qanday xulosa(lar)ga kelish mumkin?

- 1-xulosa: hayotdagi kichik hodisalar ham unutilmas xotiraga aylanadi.
- 2-xulosa: “Hazilning tagi – zil” deb bejiz aytishmagan.
- 3-xulosa: fe’li keng, sodda insonlar haddi sig‘adigan do‘stlarining hazilini ko‘taradi.
- 4-xulosa: hamma ham hazil ko‘tarmaydi, uni ko‘taradigan insonlarga qilish kerak.

**Javob:**

--	--	--	--

**25.** (Mulohaza – 16 ball, kengaytirilgan javobli)  
Pasport bilan bog‘liq hazil voqeasi orqali yozuvchi qanday munosabatlarni tasvirlaganini izohlang.

Samimiylik va do‘stona munosabatlar inson hayotini yanada mazmunli qilishi haqida mulohaza yuriting.

Fikrlaringizni 80–100 so‘zdan iborat, izchil va mantiqiy matn shaklida ifodalang.

**Javob:** \_\_\_\_\_

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---